

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

M. J. Maxmudov

KOMPOZITSIYA

o‘quv qo‘llanma

60111200 – “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta’lim yo‘nalishi
talabalari uchun



CHIRCHIQ-2022

Muallif: Maxmudov Mirali Jabborovich.

Mas'ul muharrir: “Tasviriy san’at” kafedrası dotsenti v.b,
X.X.Muratov

Taqrizchilar:

O‘zbekiston xalq rassomi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Akademigi,
profesor, B.F.Jalolov.

Toshkent viloyati, ChDPI, «Tasviriy san’at » kafedrası mudiri, dotsent.
X.E.Sultanov.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘quv-
uslubiy Kengashi tomonidan 2022 yil “_” “ ” “ ”-sonli qarori
bilan 60111200-Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi t’lim
yo‘nalishi talabalri uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

Qaydnoma №

Annotatsiya

Mazkur o'quv qo'llanma 60111200 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, bugungi kun talablarini hisobga olingan holda xorij adabiyotlari asosida tuzildi.

O'quv qo'llanma talabalarni "Kompozitsiya" fanining nazariy hamda amaliy asoslari bilan chuqur tanishtiradi. Fan dasturida mavjud mashg'ulotlarning mavzusi va mazmunini o'z ichiga qamrab olgan. Qo'llanmada kompozitsiyaning qonun qoidalarini chuqur o'rganish ko'zda tutilgan. Mavzularni mustahkamlash uchun testlar, o'quv qo'llanmada mavjud atamalarning izohli lug'ati, illyustratsiyalar hamda foydalanish uchun mahalliy va xorij adabiyotlar ro'yhati, elektron manbaalar keltirilgan.

Аннотация

Данное учебное пособие предназначено для студентов бакалавриата направления образования 60111200-Изобразительное искусство и инженерная графика и составлено на основе зарубежной литературы с учетом современных требований.

Учебное пособие знакомит студентов с теоретическими и практическими основами предмета "композиция". Предметная программа включает в себя тему и содержание существующих занятий. Пособие предусматривает углубленное изучение правовых положений сочинения. В учебном пособии представлены тесты для закрепления тем, толковый словарь существующих терминов, иллюстрации и список отечественной и зарубежной литературы для использования, электронные ресурсы.

Annotation

This textbook is intended for undergraduate students of the direction of education 60111200-Fine arts and engineering graphics and is compiled on the basis of foreign literature, taking into account modern requirements.

The textbook introduces students to the theoretical and practical basics of the subject "composition". The subject program includes the topic and content of existing classes. The manual provides an in-depth study of the legal provisions of the essay. The textbook presents tests for fixing topics, an explanatory dictionary of existing terms, illustrations and a list of domestic and foreign literature for use, electronic resources.

MUNDARIJA

Кириш	1
1. Kompozitsiyaning tarixi va rivojlanishi.....	3
2. O‘zbekiston tasviriy san’at va kompozitsiya maktabini rivojlanishi tarixi	18
3. Kompozitsiyaning qonun va qoidalari.....	60
4. Natyurmort kompozitsiyasi.....	90
5. Manzara kompozitsiyasini ishlashda qonuniyatlardan foydalanish.....	101
6. Mashhur rassomlar ijodida kompozitsiya masalalari.....	106
7. Rang va kompozitsiya masalasida rassomlar fikrlari.....	111
8. Ilyustratsiyalar.....	116
9. Glossary.....	24
10. Mavzularni mustahkamlash uchun testlar.....	51
11. Foydalanilgan adabiyotlar.....	139

KIRISH

“Yangi O‘zbekiston”ni barpo etish - yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o‘rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo‘limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir.

Keyingi yillarda madaniy-gumanitar yo‘nalishda - madaniyat, kino, raqs va tasviriy san‘at sohalarini, adabiyot va kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirayotgan ishlar barchamizga yaxshi ma‘lum, albatta. Xususan, tasviriy san‘at sohasini rivojlantirish, ijodkorlarni qo‘llab quvvatlash va rag‘batlantirish borasida bir qator qarorlar, farmonlar ishlab chiqildi. Mazkur qonunlar asosida sohani yanada rivojlantirish borasida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Tasviriy san‘at talabalarda ma‘naviy madaniyatning ajralmas qismlaridan biri hisoblangan badiiy madaniyatni uyg‘un rivojlantirish, talabalarni milliy merosimiz va umuminsoniy qadriyatlar bilan oshno qilish, ijodkorlikka keng yo‘l ochib berishdan iboratdir. Uning vazifalariga esa o‘quvchilarda badiiy ijodiy qobiliyat, kuzatuvchanlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, badiiy va estetik didni, ko‘z xotirasini, chamalash qobiliyatini, tasviriy malakalarni, rang sezishni hamda fazoviy obrazli tafakkurni rivojlantirish, borliq va san‘at asarlaridagi go‘zalliklarni ko‘ra bilish, san‘at asarlarini o‘qiy olishga o‘rgatish ham kiradi. Buning uchun tasviriy san‘atda kompozitsiya qonun-qoidalarini bilish muhim hisoblanadi.

Kompozitsiya – lotincha «kompositie» so‘zidan olingan bo‘lib, to‘qish, tuzish, joylashtirish, alohida qismlarni butun qilib birlashtirishni anglatadi.

Kompozitsiya haqidagi tushunchalar juda keng qamrovli va ma‘nolarga ega bo‘lgan tushunchadir. U barcha ijodiy jarayonlarga taalluqli bo‘lib, deyarli hamma san‘at turlarining asosini tashkil etadi. Kompozitsiya unsurlari musiqada ham, teatrda ham fotografiyada ham, adabiyotda ham, haykaltaroshlik va albatta boshqa tasviriy san‘at bilan aloqador sohalarda mavjuddir.

Kompozitsiya unsurlari bo‘lgan — mutanosiblik, muvozanat, yaxlitlik singari sifatlarni olib qarasak, ular har bir tabiat voqeliklarida mavjud ekanligini sezib olishimiz qiyin emas. Masalan, biz oddiy daraxtni ko‘rib ham undagi go‘zallikdan hayratlanishimiz tabiiy. Chunki har bir narsa ma‘lum tamoyil va qonuniyatlar ichida

mavjuddir. Ularning shakl o'lchamlari, tuzilishi o'zaro mutanosib ko'rinishlar kasb etishi unda kompozitsion mutanosiblik, shakl tuzilishidagi muvozanatning mavjudligidan darak beradi. Bunday misolni tabiatdagi barcha jismlarga tadbiqan keltirib o'tsak, ko'p narsani anglab olishimiz yengil kechadi. Buning ma'nosi shundan iboratki, demak kompozitsiya qanday shakl va mazmunda bo'lmasin, avvalambor u tafakkur mahsulidir. Buni badiiy ijodning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tushunishimiz ma'qul. Chunki tabiatdagi tayyor shakllar bilan badiiy ijod mahsuli bo'lgan shakllarni o'zaro farqlashimiz darkor.

Ma'lumki kompozitsiya tushunchasining barcha san'at turlariga aloqador umumiy jihatlari va shuningdek, har bir sohaga oid o'ziga xos jihatlari bor. Ularni atroflicha o'rganish, tahlil qilish talabalar ijodiy faoliyatining o'sishida muhim ahamiyat kasb etadi. Kompozitsiyani uning qonuniyatlarini o'rganish nazariya va amaliyotga bo'linishi tabiiy bo'lib, uni yaxshi o'zlashtirish uchun nafaqat yillar, balki asrlar davomida bu sohada yaratilgan nazariyalar va tajribalarning tub mohiyatini anglab, o'qib o'rganish kerak. Amaliyotda qo'llay bilish ham muhimdir. Shuni ham unutmaslik kerakki, maktab va o'quv yurtlarida dars beruvchi mutaxassis, rassom-pedagog kompozitsiyaga oid bilimlar bilan to'la qurollangan bo'lishi kerak. Chunki bolalarga rasm chizish sirlarini o'rgatish jarayonining ko'p qismi mavzuli rasmlar chizish amaliyoti bilan uzviy holda olib boriladi.

Ma'lumki kompozitsiya so'zi orqali rassomlar badiiy tasviriy san'at asarining barcha qismlarining o'zaro munosabatlarining qonuniyatini tushunadilar. Ayrim shunday bog'liqliklar albatta ko'z orqali ko'rib anglashiladi (son jihatlari), boshqalari esa (sifat jihatlari) idroklash, fikrlash orqali qabul qilinadi.

KOMPOZITSIYANING TARIXI VA RIVOJLANISHI

Tasviriy san'atda kompozitsiya qonun va qoidalari insoniyatni ibtidoiy taraqqiyot davridan boshlab shakllana boshlagan. Lekin ibtidoiy davr odamlari hayotni zehn bilan kuzatsalarda, kompozitsiya sezgisi juda bo'sh rivojlangan. Bunday holatni odam gavdasi va hayvon podalarini tartibsiz alohida tasvirida ko'rishimiz mumkin.

Qadimgi sharq san'atidagi kompozitsiya ibtidoiy davridan farq qiladi. Qadimgi sharqda kompozitsiya mavzusi tekislikda qat'iy ma'lum tartibda tasvirlanib, quldorlik jamiyatining (marosimlari) qonunlariga bo'ysundirilgan.

Qadimgi misr san'atida kompozitsiyani dastlabki yangi usullari paydo bo'la boshlagan. Bu esa jamiyatda ijtimoiy hayotni ongli rivojlanishi natijasidir. Tasvirga chizgi, o'lcham, rang va tus munosabatlari yuqori darajaga ko'tarildi.

Qadimgi dunyo rassomlari tabiat yaratgan o'simlik, barg va gullarni tuzilishida, yil faslini ketma-ket kelishida simmetriya va ritm tushunchalarini anglab, o'z ijodiy asarlarida, kompozitsiyada qo'llay boshladilar. Shuning uchun qadimgi greklar relief, fronton kompozitsiyalarida ritm va simmetriyadan unumli foydalanganlar. Uyg'onish davrigacha kompozitsiya faniga bag'ishlangan biror bir nazariy qo'llanma yaratilmagan.

Uyg'onish davri renessans insoniyatga ulug' san'at allomalarini etkazib berdi. O'sha davr rassomlari estalik kundalik, ilmiy maqolalarida kompozitsiya haqida qimmatli fikr, xulosalarni yozib qoldirdilar.

Erta uyg'onish davrining vakillari Djotto va Mazachcho o'z ijodlarida perspektiva, plastik anatomiya, geometriya qonunlarini amalda qo'llab, kompozitsiya fanining bilimdoni ekanliklarini misolda ko'rsatdilar. Yuqori uyg'onish davri rassomlari san'atning xilma-xil turlarini bir-biri bilan bog'lab, uning nazariyasini ilmiy asoslagan holda rivojlantirdilar. Ular perspektiva yordamida kartinada chuqurlik, masofani tasvirini haqqoniy namoyon etishga erishishdi.

Ko'p yillik kuzatuv va analiz natijasida ko'zga ko'ringan rassomlarning asarlarini g'oya tuzilishi, rang yechimidagi uslub, amaliy tajribalarini umumlashtirib Alberti "Rang tasvir haqida uch kitob" ilmiy nazariy meros yozib qoldirdi.

Leonardo da Vinchi va Alberti o'z maqolalarida badiiy asarlarida statik (harakatsiz) va dinamika (harakat)ga alohida ahamiyat bergan edi.

Fransuz rassomi E. Delakrua o'z ilmiy maqolalarida Leonardo da Vinchi, A. Dyurer, P. Rubenslarni kompozitsiyaga oid traktatlarini kengaytirib chuqur ma'nolar bilan davom ettirdi.

Osmon yulduzlarini shu'lasini ta'sirida inson jismiga Allohdan in'om etilgan go'zallik va qobiliyatni o'ziga mujassam etgan allomalarni yer yuziga kelishini insoniyat bir necha bor guvohi bo'lgan. Qobiliyatni Leonardo da Vinchi go'zal qiyofasida har qanday mushkul ishlarni osonlik bilan uddasidan chiqadigan odil inson shaklida ko'ramiz. Vinchi shahridagi janob Peroning o'g'li Leonardo, shunday ilohiy kuch-qudratga ega ediki, u bir necha oylab, matematika bilan shug'ullanar, lirada musiqa chalar qo'shiq aytib malakasini oshirardi. Shunday bo'lsada asosiy qiziqishi bo'lgan rasm chizish va haykaltaroshlikni tashlamadi. Xudo bergan betakror aql-zakovatli, xotirasi kuchli buyuk alloma chizgan tasviri bilan insonni hayratga solar, fikr-mulohaza kuchi bilan lol qoldiradi. U Milan shahrida Dominikanlik aka-ukalar uchun "Sirli oqshom"(1-rasm) nomli go'zal asar yaratdi. Avliyolarni chehrasiga husn qo'shib, ulug'vor qilib tasvirladi. Faqat Iso payg'ambar yuz qiyofasini tasvirlashda ilohiy qudrati etmaydi, chala qoldirgan va umrini oxirigacha bitira olmagan edi. Leonardo odam anatomiyasini Galena ta'limotiga asoslangan chuqur o'rgandi, murdalarning suyak muskunlarini pero va qizil qalamda sinchiklab chiza boshladi va odam anatomiyasi tasvirlari kitobini yaratdi. Otlarning suyaklari anatomiyasi kitobini ham yaratgan. Bu anatomiyaga oid chizgilarning ko'p qismi Leanardonning avtoportretlari bilan bir qatorda bizlargacha etib kelgan.



1-rasm. Leonardo da Vinchi "Mahfiy kecha"



2-rasm. Leonardo da Vinchi "Mona Liza"

Leonardo Franchesko del Djokondo uchun uning xotini Liza portretini (2-rasm) 4 yil mobaynida ishladi, ammo shunday bo'lsada portretni oxiriga yetkazaolmadi. Portretda ayolning hamma go'zal xislat, fazilatlarini, yarqiragan ko'zlari kipriklarigacha jonli nigohli ko'rinishida tasvirlagan.

Tasviriy san'atda bunday toj asarlarning mavjudligini dunyoda eng qobiliyatli, zehni olim, alomma musavvir qalamiga mansub bo'lishi xaligacha insonlarni beihtiyor hayratga soladi.

Tasviriy san'at XVI asr oxirida o'quv fani sifatida shakllana boshladi. Buni V.Neleng, S. Vasilev kabi metodistlarning Fransiya safaridan so'ng o'qitish sistemasi haqidagi hisobotlari orqali bilish mumkin. 1882 yili taniqli pedagog - rassom Violie Le Dyukani "Tarixchini tarixi" kitobini rus tiliga tarjima qilgan edi. Bu kitob shaxsiy ish tajribasidan kelib chiqib, tasviriy san'atni o'qitish metodikasidan suhbat tarzida berilgan. Bu kitobni "Сочинение" qismida, frantaziya, perspektiva ma'lum qonunlar bilan tanishishni uqtirib o'tilgan. Tasviriy san'atda kompozitsiya masalalari haqida dastlabki metodik bayonnoma muallifi amerikalik pedagog-rassom A. Doudir. Bu o'quv qo'llanmada tasvirda har xil shakl, tuslarni qog'oz va matoga to'g'ri joylashtirish, qog'oz hajmi va formatiga alohida ahamiyat bergan.

Tasviriy san'atda yangi impressionizm oqimining paydo bo'lishi rangtasvirda yangilanishga vosita bo'ldi, san'atni rivojlanishiga turtki vazifasini o'tadi. Impressionistlar rang politrasiini boyitdi. XX asr boshlarida g'arbiy Yevropa davlatlarida va Rossiyada har-xil badiiy oqimlar paydo bo'la boshladi: futurizm, kubizm, ekspressionizm, dadaizm, syurealizmlar shular jumlasidandir.

Tartibsiz mulohaza, qarama-qarshi fikrlarni kurashi tasviriy san'at va kompozitsiyani o'qitish metodikasiga chalkashlik va tartibsizlik olib kirdi. XX asrning birinchi choragida tasviriy san'at g'arbiy Evropa va Amerikada berk ko'chaga kirib qolgan edi. Shu bilan birga ko'p san'at maktablarida rassomlar realistik san'at yo'lida kompozitsiya nazariyasini o'rganishni davom ettirdilar. Rossiya tasviriy san'atida XVIII asrgacha ikona rangtasviri taraqqiy etgan edi. Eng qobiliyatli rus ikonachi rassomlardan biri Andrey Rublev edi. Uning mashhur "Uchbirlik" asari ikona janridagi qadimgi

klassik kompozitsiya namunalaridan biri xisoblanadi (3-rasm). Kompozitsiyada bu rassom gavda holatining aniq tasviri, rang garmoniyasi va yahlitligiga erishdi.



3-rasm. Andrey Rublev "Uchbirlik"

XVIII asr Rus tasviriy san'atida, realistik badiiy maktabning asoschilari A.P.Losenko, G.I. Ugryumovlar hisoblanadilar.

Rossiyada Peterburg Badiiy akademiyasini bitirgan A. Ivanov. A. Egorov, V.Shebuev, A. Venetsiyanov, K. Bryulovlar o'z ijodiy va pedagogik faoliyatlarida kompozitsiya muammolariga ko'proq ahamiyat berib, tasviriy san'atni yangi pog'onaga ko'tardilar.



4-rasm. Karl Bryulov "Chavandoz"

1757 yili tashkil topgan Peterburg Badiiy akademiyasida mutaxassislik fanlarini o'qitishni muntazam tarzda yo'lga qo'yilishi, Rossiya ta'sviriy san'atini rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Mashxur rassom va pedagog A.P.Losenko o'z faoliyatida ijodiy yondoshib kompozitsiya masalalari ustida ishladi. U hamma tasviriy vositalar asar g'oyasiga, mazmuniga qaratilgan bo'lishini ta'kidladi. Losenko o'z vaqtida akademik ta'lim metodini yangilashni angladi va yangi uslub-metodikasini ishlab chiqdi. Uning yaratgan Akademiya o'qitish nazariyasi XIX asr o'rtalarigacha davom etdi. Losenko davridayoq

Rossiya Badiiy Akademiyasi dovrig'i va obro'yi dunyoga tarqaldi. A.P.Losenko yuqori saviyali kompozitsiya ustasi edi.

P.I.Sokolov, G.I.Ugryumov, O.A.Kiprenskiy, K.P.Bryulov kabi ulug' rassom pedagoglar A.P.Losenko bilan o'qib ta'lim oldilar. Losenko boshlagan ishni Akademiyadagi pedagogik faoliyatini G.I.Kozlov, P.I.Sokolov (1782 y) kabilar davom ettirdilar. Ayniqsa Ugryumov, Losenko boshlagan tarixiy janr klassida kompozitsiyani davom ettirdi, kompozitsiya nazariyasini mukammallashtirgandi. Uning o'quvchilaridan A.Ivanov, A.Yegorov, V.Shebuevlar ham ustozning uslublarini davom ettirdilar.

Shunday qilib rassom-pedagog va metodistlar XVIII va XIX asr boshlarida tasviriy san'at va kompozitsiyani o'quv predmet sifatida rus badiiy maktabda o'qitilish mumkinligini isbotladilar. Bu yo'nalish rangtasvir kompozitsiyasi ustasi K.Bryullov tomonidan qo'llab quvvatlandi. K.Bryullov o'zining pedagogik va ijodiy faoliyatida gavdaning plastik tuzilishiga, asarda kompozitsiya muvozanatini haqqonoy tasvirlashga ahamiyat berdi. «Pompeyning so'ngi kuni» (5-rasm) asari bunga yorqin misol bo'la oladi. Asarda insonni hayotda sodir bo'ladigan xavfli, fojiali dramatik daqiqalardagi holati, tabiatda chaqmoq natijasidagi kuchli yorug' nurlari ostida bo'layotgan ta'sirchan voqea kontrast ranglarda tasvirlangan.



5-rasm. K.Bryullov «Pompeyning so'ngi kuni»

Odamlar ko'zidagi qo'rqinch, ularning go'zal nigohi xatti harakatlari, oilasi asrashga urinayotgan insonlarning xavotirli nigohlarini badiiy yuksak mahorat bilan, yuqori darajada jozibali tasvirlagan. Bryullov bu asarida badiiy Akademiyaning yuksak an'alarini davom ettirdi.

XIX asrning ikkinchi yarimida ilg'or ma'rifatli rus rassomlari tashqi dunyoni hayotda to'g'ri tasvirlash uchun kurash olib bordilar. Realistik san'atning rivojlanishiga I.N. Kramskoy boshliq sayyor rassomlar katta ta'sir ko'rsatdilar (6-rasm).



6-rasm. I.N. Kramskoy «Avtoportret»



7-rasm. I.N. Kramskoy «Rassom Ivan Shishkin»

Asosan xalq manfaatini ko‘zlab, xayotdagi muhim voqealarni kuzatib, ijod qildilar, asarni g‘oyasiga ahamiyat berdilar. Ko‘plab Rus rassomlarining ustozlari P.P.Chistyakov mutaxassislik fanlari o‘qitishning yangi tizimini yaratdi.




8-rasm. P.P.Chistyakov «Boyaryshnya Annushka»

Realistik san'atning buyuk namoyondasi I. Y. Repin kompozitsiyani nazariy va amaliy rivojlanishiga muhim xissa qo'shdi.



9-rasm. I.Y.Repin «Kursk viloyatidagi yurish»

Shuningdek tarixiy janrda har tomonlama yangi novatorlik vositalari bilan V. Surikov rus rassomlariga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. U kompozitsiya eskizini bajarishga alohida ahamiyat berdi. O‘ylagan mavzu rassom tasavvurida tiklansa u darrov qo‘liga qalam, ko‘mir, mo‘yqalam olib eskiz bajarishga kirishardi. Ayniqsa “Boyarina Morozova” (10-rasm) kartinasi uchun, o‘nlab, yuzlab qalamlavha, eskizlar bajargan. U mavzuga oid bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealarni sinchiklab o‘rganardi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya san‘atida va o‘qitish tizimida ilg‘or –progressiv yo‘nalish bilan bir qatorda reaksiyon kuchlar ta‘sirida, burjua falsafasiga taqlid qilgan yangi oqim paydo bo‘la boshladi.



10-rasm. V. Surikov “Boyarina Morozova”

Maishiy janrdagi kartina mazmuni, kompozitsiyaning badiiy yuksak yaxlitligi asta-sekin o‘z kuchini yo‘qota bordi.

Buyuk pedagog rassom D. N. Kardovskiy bularga qarshi murosasiz kurash olib bordi va realizm pozitsiyasida turib himoya qildi. D. Kardovskiy ham P. Chistyakov kabi tasviriy san’atdagi ardoqli pedagog-rassomlardan edi.




11-rasm. D. N. Kardovskiy “Rassom I.Y.Repin”

V. Efanov, D. Shmarinov kabi ko‘plab Rossiya rassomlari uning ustaxonasida yaxshi ta’lim oldilar. Ko‘p yillik pedagoglik faoliyati mobaynida qalamtasvir va kompozitsiyadan mukammal o‘quv tizimi shakllandi. Kompozitsiya hayot hodisalarini obrazli aks ettiruvchi vosita bo‘lib talabalardan ma’lum formatda, oddiydan murakkab eskizlar bajarishga o‘tish printsiplarini qo‘ydi. Keyinchalik kompozitsiyani nazariyasi, amaliyoti va ularni o‘qitish metodikasini asosiy printsiplarini ishlab chiqishda,

V. Favorskiy, A. Deyneka, K.Yuon, E.Kibrik, A.Alpatov, G.Nisskiy, F. Reshetnikov, D. Shmarinov kabi ulug' rus rassomlari o'z xissalarini qo'shdilar. Bularning ichida K. Yuon, A. Deyneka, E. Kibrik, M. Alpatovlarning to'ldirilgan ijodiy va ilmiy nazariyasi tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish o'rinli.

Kompozitsiya nazariy asoslarni rivojlantirishda salmoqli xissa qo'shgan rassomlardan yana biri Konstantin Yuondir. Ulug' rassomlarni asarlari misolida kompozitsiya tuzilishini taxlil qilib: kontrast, vertikal, gorizontal, dioganal simmetriya, assimetriya, aylana, uchburchak, muvozanat, ritm yaxlitlik, dinamik, statik xolat, yorug', rang koloriti, qurish nuqtasi, gorizont, kompozitsiya plani, maxobatlilik, dekorativlik kabi tasvir uslublarini ko'rsatib berdi. K. F. Yuon kompozitsiyani o'qitish metodikasi saviyasini yuqori darajaga qo'yish kerak deb hisoblardi (12-rasm).



12-rasm. K. F. Yuon "E'lon qilish kuni"

Har xil mavzudagi kompozitsiya eskizini bajarish jarayonida xomaki tasvir, yorug' va ranglarni har xil xolatida perspektiva qoidalarini ishlata bilishni tavsiya qilardi. qo'shimcha hayot ta'surotlarini, gavnani turli xolati, gurux odamlarni harakatdagi ko'rinishi, tipaj, liboslar, xona bino burchaklaridan chizgilar chizib, ulardan unumli foydalanishni tavsiya etardi.

Kompozitsiya masalalaridan takomillishtirishga munosib xissa qo'shgan buyuk rassomlardan biri E. Kibrikdir. U o'z asarlari bilan grafika san'atini yuqori cho'qqilariga olib chiqqan san'at ustalaridan biridir. U o'zining «Kompozitsiya masalalariga doir» (1961 yil) kitobida kompozitsiyani tasviriy san'atdagi obyektiv qonunlarini, kompozitsiyani o'qitish soxasidagi metodik qo'llanmadagi kamchiliklarni uqtirib o'tdi.

Kompozitsiya qonun-qoidalarini chuqur bilish, qobiliyatli ijodkor ongiga sayqal beradi. Yetuk rassomlarning ijodiy tajribasiga va kompozitsiyani o'qitish uslubiyatiga asoslanib Badiiy Akademiya tomonidan 1960-64 yillari nashr etilgan 8 jildli «Tasviriy san'at maktabi» nomli metodik qo'llanma tasviriy san'at manbaini boyitdi.

Tasviriy san'atda kompozitsiyaning mukammal bo'lishi asosiy maqsadlardan biri. San'at ustalari insoniyat san'ati tarixining barcha bosqichlarida kompozitsiya yaratishning o'ziga xos yutuqlar bilan yangilatib borganini kuzatish mumkin. Bu jarayon ayniqsa antik yunonistonda shakllangan bo'lib tik uyg'onish (renesons) davrida yanada boyidi, yangicha tus oldi. Kompozitsiya qonuniyatlarining dastlabki shakllanishidayoq to'g'ri perspektiva qonunlariga e'tibor berila boshlandi. Uyg'onish davriga kelib esa bu muammo ilmiy asoslanib odam, xayvonat dunyosi anatomiyasi chuqur o'rganilganligi ma'lum.

Antik yunoniston san'atida katta saboq olgan Uyg'onish davri ijodkorlari odam qiyofasini aks ettirishida badiiy nur, garmoniya perspektiv qisqarish va shu kabilar orqali kompozitsion echimda aniq natijalarga erishdilar. Ayniqsa Leonardo Da Vinchi, Rafael, Mikelonjelo kabi san'at vakillarining ijodiy faoliyati butun jaxon tasviriy san'ati ustalarining e'tiborini o'ziga jalb qildi.

Tasviriy san'atda kompozitsiya yaratishning sxematik shakllari xar xil davr klassik san'at ustalari tomonidan o'rganilib takomillashtirilgan. Bu o'rinda Koravadjo, Rembrand, El Greko, Sherden kabi rassomlar faoliyatini ta'kidlamasdan o'tib bo'lmaydi. Peterburgda badiiy ta'lim bergan mashxur rassomlar A.Ivanov, K.Bryullov, I.Repinga o'xshagan san'atkorlarning ijodlarida va ta'lim berishida kompozitsiyaing tuzilishi rassom xoxishiga xavola etilar edi. Bu xam tasviriy san'atni xar tomonlama o'rganar va mushoxada qilar ekanmiz, bo'lajak rassom o'qituvchilarning ijodiy

fikrlariga jumladan kompozitsiya tuzishda ijodiy jarayonni rivojlanishiga chuqurroq fikr bermog‘imiz lozim.

Tarixdan ma‘lumki o‘tmishning ulug‘ rassomlari kompozitsiya masalalariga juda jiddiy yondoshganlar va o‘z asarlarini yaratishda umumqoida bo‘lib qolgan tamoyillarga amal qilganlar. Kompozitsiyaning “vertikal”, “gorizontal”, “doiraviy”, “kvadrat”, “burchak” va boshqa ko‘rinishlarini qo‘llab yuksak natijalarga, go‘zal ifodaviylikka erishganlar. “Oltin kesim” kompozitsiya usulidan unumli foydalanish har soxada qo‘l kelgani ham ma‘lum.

Kompozitsiya tuzishga mohir bo‘lgan va uni o‘z asarlarida mukammal darajaga olib kelgan mo‘yqalam ustalari ko‘p, ularga misol qilib quyidagilarni qisman atab o‘tsak o‘rinli bo‘ladi. Bunday o‘tmish tasviriy san’ati ustalari: Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, A. Dyurer, J. D. Engr, P. Rubins, Rafael, Tintoretto, A. Ivanov, K. Bryullov, I. Y. Repin, Ya. Mateyko va boshqalardir.

O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN’AT VA KOMPOZITSIYA MAKTABINI RIVOJLANISHI TARIXI

O‘zbekistonda san’at va madaniyatni rivojlanishi o‘zini qadimiy tarixiga ega. Bir necha asr davomida har xil bosqichdagi san’at madaniy merosimizni boyitdi.

Afrosiyob -yirik arxeologik yodgorlik bo‘lib, qadim Samarqand shahri vayronalaridan darak beradi. Afrosiyobdagi arxeologik topilmalar shaharning sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, Samarqand tarixi muzeyida saqlanadi va ko‘rgazmaga qo‘yilgan. Muzeyning eng nodir eksponatlari orasida markaziy zaldagi, bir vaqtlar muzey binosidan bir-necha yuz metr G‘arbda joylashgan qabulxonani bezagan VII asr devoriy suratlari alohida o‘rinni egallaydi. Ular 1965 yilda ochilgan. Bu zal VII asrning uchinchi choragida Samarqandda hukmronlik qilgan Varxuman oilasining qarorgohi bo‘lgan. To‘rt devorda to‘rt kompozitsiya syujetlari – Samarqand hukmdori tomonidan elchilarni qabul qilinishi, maqbaraga tantanali safar, ilvirs ovi va boshqa rasmlar tasvirlangan. Kirishdan ro‘paradagi g‘arbiy devorga e’tibor beramiz. Yuqoridan chapda, tasvir saqlanib qolgan joyda, oq kiyim kiygan kishining surati va kiyimining etagida 16 ta sug‘diy yozuv saqlanib qolgan. Bu satrlar unash naslidan bo‘lmish shoh Varxumanning elchilar qabul qilish marosimiga taluqlidir. G‘arbiy devorning pastki qismida tasvirlangan sovg‘a olib borayotgan elchilarning tantanali yurish marosimi satrlarda ko‘rsatilgan yozuvlarga mos keladi. Bu sahna ochiq joyda tasvirlangan bo‘lib, bizning ko‘z o‘ngimizda qurollar to‘plami, tirgakka o‘rnatilgan nayzalar, o‘ng tomonda g‘alati niqoblar bilan bezatilgan qalqonlar uyumi tasvirlangan. ikkinchi qatordagi tasvirlar esa, tomoshabinga orqasi bilan o‘tirgan uzun sochli kishilar bo‘lib, ular aftidan hokimiyatning shaxsiy gvardiyasini tashkil etgan turklar bo‘lgan. Endi yozuvlar oldida turgan uchta soqolli kishilarni ko‘rib chiqamiz. Ular qilich va xanjar bilan qurollangan bo‘lib, shoyi kiyimlar kiyinishgan, yaktaglari har xil jonivorlar rasmi bilan bezatilgan, bular o‘sha davrdagi sasoniy Eroni va Xitoygacha tarqalgan uslub bo‘yicha kiyinishgan. Ularning biri taqinchoq va bezaklar, boshqalari shoyi to‘plami olib ketyaptilar. Oq va qora rangdagi odamlarning navbat bilan kelishi, Sug‘dda ikki xil tUSDagi odamlar

bo'lganidan darak beradi. Yozuvda ko'rsatilganidek, qararoq tUSDagi markaziy personajni, mansabi bo'yicha, Shosh (Toshkentning eski nomi) huqmdorining devonxona boshlig'iga o'xshatish mumkin. O'ngroqda oddiy kiyingan, jismonan mug'ullarga mansub kishilar turibdi. Ulardan biri (shikast yetgan devorning o'ngrog'ida) belida ro'mol osilgan qo'shnisining ortidan ro'moliga teginib turibdi (bu rasm bo'lagini yaqinda fransuz mutaxassisi Aliks Barbe ta'mirlash ishlari vaqtida aniqladi). Devorning o'rta qismida bir-biriga simmetrik ikkita guruh marosimga tantanali chiqmoqda. O'ng tomonda esa qora qalpoqlar kiygan, mevalar va shoyi gazlamalar ko'targan Xitoy elchilari boryapti. Bu yerda boshqa xitoyliklarning ham qizil hoshiya bilan belgilangan tasviri ko'zga tashlanadi. Izlanishlardan biri bo'yicha, rasmlar ustida ishlanayotgan paytda kompozitsiya o'zgartirilgan.

O'ng tomondan boshlanadigan shimoliy devorning kompozitsiyalari esa boshqa olamga chorlaydi. Biz go'yoki Samarqandda emas, Xitoydamiz. Chap tomonda ikkita sayr qayiqlarida ayollar tasvirlangan, birinchisi yaxshi saqlangan. Qayiqning quyruq tomonida musiqachilar turli musiqa asboblari bilan tasvirlangan, boshqalariga qaraganda yirikroq tasvirlangan ayol-xonzoda (kirolicha) bo'lgan.

Kirishdan chapdagi janubiy devor bo'yoqlari yaxshi saqlanmaganligi bilan, izohlashda qiyinchilik tug'diradi. Avval bu devor rasmini chet el elchilarining Samarqandga tantanali kirishi tasvirlangan deb taxminan qilingan.

Sharqiy devorning o'rta qismi, zalga kirishning asosiy qismini tashkil etadi. Suvda suzayotgan baliqlar, cho'milayotgan bolalar, ho'kizlar tasviri yaxshi saqlangan. Ehtimol, bu Hindistonni eslatadi yoki zardushtiylarni u dunyodagi jannat holatini, ya'ni marhumlar va tiriklarni ajratuvchi daryoni eslatadi.

Mulohaza va fikrlar shuni ko'rsatadiki, uchala devordagi syujetlarning mazmun-ma'nosi yagona maqsadga qaratilgan, ya'ni Shoh Varxuman siyosatiga uch xil nuqtai nazardan qarashdir. Birinchidan g'arbiy devorda tasvirlangan tantanali diplomatiya, ikkinchidan shimoliy devorda Xitoy bilan ittifoq va uchinchidan janubiy devorda tasvirlangan diniy marosimdir.

Panjakentdagi (Samarqanddan 60 km sharqda) ko'p beqiyos devoriy suratlarni Afrosiyobdagi tasvirlar bilan taqqoslaganda, Afrosiyob suratlari Panjakent

suratlaridan farqli o'laroq, o'zining ajoyibligi va ijodkorligi bilan ajralib turadi. Agar Panjakentda uchta katta mavzu (din, botirlik, masalchilik) tasvirda o'zining alohida o'rniga ega bo'lsa, Afrosiyob suratlarida esa, syujetlar erkin joylashtirilgan bo'lib, tasvirlarning mukammal o'rnini bor. Shu bois bu devoriy suratni o'z davrining noyob san'at asari desak mubolag'a bo'lmaydi. O'sha davrlarda garchi kompozitsiya haqida tushunchalar mavjud bo'lmasada suratda uning qonuniyatlari chiziqlarda, shakllarda va ranglarda o'z aksini topgan.



13-rasm. Afrosiyob devoriy suratlari.

Parijda milliy kutubxonada saqlanayotgan, XIV asrda ishlangan miniatyura (mo'jaz san'at) O'rta Osiyoda eng qadimgi tasviriy san'at asarlari hisoblanadi. XIV asrga kelib Samarqandda Amir Temurning «Bog'i-Shamol», «Bog'i-Dilkusho» saroylari devorlariga, g'arbiy yurish, jang va ov marosimlarini o'z davrining miniatyurachi rassomi Axmad-Bog'i-Shamol tomonidan tasvirlangan.

O'rta Osiyo miniatyura san'atini gullab rivojlanishi XV asrda boshlanadi. XV asrni ikkinchi yarmida Xirot Husayn Bayqaro saltanatida ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy raxnamoligida taraqqiy etgan madaniyat o'chog'iga aylanadi. Xirot adabiyot va san'at namoyondalari ichida K. Behzod yorqin yulduz bo'lib yarqiradi (13-rasm).



14-rasm. K.Behzod "Miniatyura"

Ulug' miniatyurachi musavvir o'z zamondoshlari: Sulton Xusayn Boyqaro, Shayboniyxon, shoirlar Jomiy kabilarni ajoyib portretlarini chizib bizlarga meros qilib qoldirgan.



15-rasm. K.Behzod “Shayboniyxon portreti”

Portretlar chuqur ruhiy holatlari bilan ajralib turadi. Sulton Husayn Boyqaro portreti tashqi qiyofasi xarakteri haqida Bobur o‘z hotiralarida shunday ta’riflaydi: u ma’noli qarab turgan, mahobatli, gavdasi kelishgan bamisoli sher, belidan pasti ingichka. U sergap, xushchaqchaq Xurosonda 40 yil davomida davlatpanox bo‘lganida, har kuni peshin nomozdan so‘ng ichishni kanda qilmagan. Behzod o‘zbek xoni Shayboniyxon portretini 1507 yili Xirot olingandan keyin yaratdi (14-rasm). U ulug‘ sarkarda davlat arbobi, ilmi olim, adabiyot va san’atni nihoyatda ulug‘laydigan shaxs edi.

Kamoliddin Behzod o‘z asarlarida o‘sha davrda portret miniatyura sanatini cho‘qqisiga erishdi. Xusayn Boyqaro qarorgohida miniatyura san’atida boshqa rassomlar ham ijod qilgan. Tarixchi Xondamir 1498 yili o‘zini «Xulosat Al’-Akbara» risolasida rassom Qosim-Alini asrimizning qaymoqlari, nozik asar mualliflarining sardori deb baholangan edi. Bu san’at sir asrarining Xusayn Boyqaro kutubxonasida uni raxnamoligida egalangan edi.

Shaybonixon saroyida Behzodning qobiliyatli shogirdlaridan biri Maxmud Muzaxxib (Muzaxxib oltin bilan bezovchini anglatadi) o‘z ustozidan eng yaxshi fazilatlarini tasviriy vositalarda yaxlit ifoda etishni o‘rgandi. Uning dastlabki hammaga ma’lum A.Navoiy portreti (XVI asr) (15-rasm) misol bo‘lishi mumkin. Mo‘ysafid yoshlardagi shoir, hassaga tayanib turgan xolda

tasvirlangan. Quvgʻinlikda, amirlik, davlatni boshqarish ishlarida sochlari oqarib irodasi sayqal topdi.

«Meni tanam susaysada, tangrim tetik, mening soʻzlarim xanuz qilich kabi oʻtkir» degan edi, Alisher Navoiy. Mahmud Muzoxhibni miniatyura asarida Alisher qiyofasida, soch, soqollari oqargan, biroz gavdasi engashgan, tugalmas xayotiy kuch, oʻtkir nigoh, labdagi engil tabassum, shoirning xalqparvar, «gumanist», mutafakkir inson ekanidan dalolat beradi.



16-rasm. K. Behzod. A.Navoiy portreti

Kompozitsiya jihatidan bu portret miniatyura sanʼatida oʻziga xos xususiyatga ega, uning nozik qiyofasi xayotiyliigi, koʻz-qoshlari harakatlarida ifoda etilgan.

XVII asrda bir xil Oʻrta Osiyo rassomlari oʻz vatanida uzoqda miniatyura sanʼatida ananalarni davom ettirdilar. Rassom Davlat Muxammad Xindistonda

Boburiylar saroyida Sulton va ularni oilalarini, saroy amirlarini, shoirlarini portretlarini yaratdi. Shu davrda Xindistonda Muxammad Murod Samarqandiy Bobur saroyida ijod qilib, portret tasvir ustasi nomini oldi.

Miniatyurachi rassom tashqi dunyodagi haqiqatni kuzatib hayotni tasavvurlari asosida kompozitsiyaning ma'lum qonun-qoidalariga amal qilgan holda asar yaratdi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, O'rta osiyo va O'zbekiston xalqlarini o'tmishda qoldirgan boy madaniy va estetik merosiga qaramay, tarixiy ob'ektiv sharoitlar sababli realistik tasvir san'ati o'z shaklini topmadi.

XIX asr 60 yillari O'rta Osiyoga, Rus ilg'or realistik san'ati o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Turkistonda birinchi bo'lib ijod qilgan rassomlar ichida «Turkiston turkumi» suratlarini yaratgan ijodkor V.Vereshagin xayotni kuzatuvchisi sifatida etnografik hayot tarzini chuqur o'rganib etyud va eskizlar bajarish natijasida har xil mavzuda asarlar yaratdi. Uning «Darvesh» asari (17-rasm) shular jumlasidandir. Uning tarixiy janrdagi yaratgan eng katta asari «Tantana qilmoqdalar» deb nomlanadi. Registon maydonida bo'lib o'tayotgan bu marosimda Mustaqillikka qarshi yurish qilgan kuchlar ustidan qozonilgan g'alaba tantanasi o'z ifodasini topgan.

Kompozitsiya jihatidan ko'p figurali, ko'p planli bu asarda oddiy fuqaro, darveshlar, otda yuz boshi sarbozlar, ularni bo'lib o'tayotgan tantanaga psixologik munosabatlari, milliy liboslari aks etgan quyoshning yorug' shu'lasida Samarqand tabiati iliq gammada tasvirlab berilgan.



17-rasm. V.Vereshagin. "Darvesh"


O‘zbekiston zamonaviy realistik tasviriy san’atiga asosan 1917 yildan keyin O‘zbekistonga kelgan rus rassomlari tomonidan asos solindi. Birinchilar qatorida M. Kurzin, P.Bure, I. Kazakov, A. Isupov. N. Rozanov kabi rassomlarni aytish mumkin.

1907 yili P. Bure Buxoroda o‘rta asr qattiq jazosini qo‘llanishini guvohi bo‘lgan. Keyinchalik naturadan bajarilgan etyud, chizgilar asosida «Eski buxoro zindoni», «Feodal Buxorodagi qatl» (1929) asarini yaratdi. quyosh

haroratida qizigan maydon o'rtasiga o'rnatilgan dor oldila yig'ilgan xaloyiq maxbusni qatl etishga shaylangan jallodni hatti harakatlarini g'azab bilan kuzatayotgani tasvirlangan. Rassom surat kompozitsiyasini teatr saxnasidagi ko'rinishdek etnografik holatda tuzgan. Keyinchalik Samarqand arxitektura yodgorliklari turkumini yaratdi.

1918 yili Samarqantda, 1919 yili Toshkentda Turkiston O'lka rassomchilik maktabi tashkil topdi, boshqa rassomlar qatorida A.Volkov yoshlarga dars berdi. Samarqandda esa O. Tatevosiyan rahbarlik qiladi.

O. Tatevosiyan rassom sifatida 20 yillarda tanildi. U o'zini manzara, natyurmort, portret, maishiy janrlarda sinab ko'rdi va asarlarida sharqni o'zicha talqin qildi. Keyinchalik u natyurmort ustasi professor sifatida tanildi va 1954-57 yillarda yosh rassomlarga dars berdi (18-rasm).



18-rasm. O. Tatevosiyan. "Bizning anorlar"

Rus demokrat rassomlardan I. Repinning shogirdi N. Rozanov 1924 yili san'at muzeyi qoshida birinchi bo'lib tasviriy studiyasini tashkil etdi (19-rasm).

Bu milliy studiyada shu yerlik rassomlar X.Valiev, 3. Saidnosirova, A. Toshkentboev, U Tansiqboev va boshqalar birinchi bo‘lib saboq olishdi.

N.Rozanov kabi I. Kazakov ham rus realistik san‘atini asoslarini yoshlarga o‘rgatdi.



19-rasm. N.Rozanov "Qiz portreti"

Realistik san‘at bilan bir qatorda Petrov -Vodkin, N. Kuznetsov, A Volkov kabi bir necha rassomlar formalistik yo‘nalishga burilib ketdilar. Bu yo‘nalishni amalga oshirganlardan biri A.Volkovdir. Uning «Anorli choyxona» (20-rasm), «Karvon», «Sandal oldidagi o‘yinchi» kabi asari 1924 yili Toshkentda, Moskvada shaxsiy ko‘rgazmada namoyish etildi. Jamoatchilik tomonidan

tanqidga uchragandan keyin realistik yoʻnalish qaror topdi. Volkov «Anorli choyxona» asaridan keyin ijodida burilish yasadi. U oʻz esdaliklarida realizm yoʻli inson obrazini yaratishda toʻgʻri yoʻlligini taʼkidladi. Avtoportret, rafiqasi portreti, kolxozchi, paxta terimi, qizil karvon, Bayram asarlarida realizm yoʻli namoyon boʻldi.


Aleksandr Volkov bahor marosimlari - sayl, lola terish, toʻy, hosil bayramlarini quvonchli ranglarda ifodaladi.




20-rasm. A.Volkov «Anorli choyxona»

Karvon asarida tuyani uchburchak shaklidagi ayol va bosh harakati arava gʻildiraklarini gʻildirash tovushlari bilan bogʻlanib, bir rang spektri kompozitsiyasiga aylangan «Uchta soʻzana» asarida shartli geometrik figura qizil, koʻk, oxra, sariq rangli shakllarni bir-birga tutashishi musiqa ohanglarini

eslatadi. Shu davrda portret va tarixiy - inqilobiy mavzuda O‘.Tansiqboev, Usta Mo‘min (Nikolaev), V.Ufimtsev, M.Arinin kabi rassomlar ijod qilishdi. Keyinchalik 1960 yildan boshlab O‘rol Tansiqboev ijodida manzara janri gullab rivojlanadi. U o‘ziga xos usulda manzara kompozitsiya maktabini yaratdi. ”Tongi qishloq. Oqshom” (21-rasm), ”Mening qo‘shig‘im” (22-rasm), «Tongda kuz» kabi ko‘plab asarlari Tretyakov galleriyasi hamda O‘zbekiston davlat san’at muzeyining oltin fondidan joy olgan.



21-rasm. O‘. Tansiqboyev «Tongi qishloq. Oqshom»



22-rasm. O'. Tansiqboyev «Mening qo'shig'im»

Peterburg Badiiy akademiyasida ta'lim olgan P.P.Benkov 1928 yili birinchi marta O'zbekistonga keldi. Bu o'lka o'zini betakror go'zalligi bilan uni o'ziga maftun etdi. Shu vaqtda u Buxoroda bo'lib «Buxoro bozori», «Chor-minor maschiti» (23-rasm), «Xovuz labidagi choyxona», «Uzum bozori». «Usti yopiq bozor» kabi maishiy shanirda qator asarlar yaratdi. Rassom 1930 yili Xiva. Keyin Samarqandga keldi. Bu ajoyib o'lkani tabiati, hayoti, odamlari yangi ijodga ilxomlantirdi. Tez orada u qozon shahridan Samarqandga ko'chib kelib ijodini ikkinchi yangi bosqichini boshladi. Rassom shahar tor ko'chalarini kezib, machit-madrasalarga, xonadonlarga kirdi, bozordagi shovqin-suron, savdo-sotiq bilan band, ranglarga boy libosdagi odamlar xayotini erinmay soatlab kuzatdi. Ularni quyosh nurida toblangan chexralarini mashaqqatli

mehnat evaziga etishtirilgan meva nozi-ne'matlarning rang-barangligi uni ko'zini qamashtirdi, yangi ijodiga ilhom bag'ishladi.



23-rasm. P. Benkov «Chor minor maschiti»



24-rasm. P. Benkov «Meshkobchi»

Shunday qilib ilk bor «Xivali qiz»(25-rasm) suratini yaratdi. Peshin payti, charog'on quyosh nuriga g'arq cho'milgan Xiva xovlilarining birida o'smir qiz charx yigirib o'tiribdi. Uning egnida guldor kuylak, boshida chiroyli do'ppisi. Ko'zlarini diqqat bilan boqishi, boshi sal egilganligi, qo'llarning harakati, uning berilib ishlayotganidan dalolat berib turibdi. Surat bo'yoqlarining yorqinligi, uni erkin uslubda ishlaganligi tufayli, asardagi milliy koloritni yanada chuqur xis etamiz. Bu asarni o'zbek tasviriy san'atida birinchi realistik ijod namunasi deyish mumkin. O'z paytida u Tretyakov davlat galereyasining doimiy ekspozitsiyasidan o'rin olgan edi.



25-rasm. P.P.Benkov «Xivali qiz»

Rassom 30 yillarda katta tematik suratlar ishlash uchun etyudlar, xomaki chizgilar sifatida badiiy materiallar to‘pladi. Uning «Hujum» nomli pillakashlik fabrikasi, «Registonda 8 mart» polotnolari shular jumlasidandir. U o‘z ustozlari D.Kardovskiy, I.Repindan o‘rgangan hayotni chuqur aks ettirish, badiiy obrazlar yaratish an’analarini davom ettirib o‘ziga xos ranglarni «politra»si vositasini yaratdi. «Uzum uzish» (26-rasm) yoki «Dugonalar» (27-rasm) kartinasida ko‘p millatli vatanimizda xalqlar do‘stligi g‘oyasi obrazi ochib berilgan. Janubning saxiy quyoshi, go‘zal farovon turmushi asar kompozitsiyasida moxirona hal etilgan.



26-rasm. P.P.Benkov «Uzum uzish»



27-rasm. P.P.Benkov «Dugonalar»

Qalin navda va barglari orasidan tushgan quyosh nurlarida pishib etilgan uzum bog‘lari manzarasi fonida ikki qiz tasvirlangan. Biri o‘zbek qizi, ikkinchisi rus qizi, ular kompozitsiya ma’naviy markazini tashkil etadi. Asarning personajlari, zavq bilan tamosha qilayotgan, qizlar ham, bolalar ham keksa bog‘bon ham bir oila a’zolaridek ko‘rinadi. Tasvir yorqin buyoqlarda ishlangan, unda havo ko‘p, serquyosh O‘zbekistonning go‘zal tabiati juda yaxshi nafis ranglarda aks ettirilgan.

P.Benkov, hayotni ko‘p ko‘rgan, yoshi ulug‘ odamlar suratini chizishni yoqtirardi. Uning eng yaxshi yaratilgan portretlaridan biri «Ilg‘or kolxozchi portreti» (28-rasm) edi. Unda sochlari oq oralagan, mehnatda chiniqqan insonning obrazi aks ettirilgan.




28-rasm. P.P.Benkov «Ilg'or kolxozchi portreti»

1945 yili P. Benkov safdoshi - shogirdi Z. Kovalevskaya bilan bir-birlarini portretlarini chizishdi (29-30 rasmlar).



29-rasm. P.P.Benkov «rassom Z.M.Kovalevskaya»



30-rasm. Z.M.Kovalevskaya «portret Benkov Pavel Petrovich»

Portret iliq gammada ishlangan bo‘lib, ayni ijod pallasini aks ettirgan. Samarqandda o‘tgan hayoti tematik kompozitsiyalar, maishiy janrdagi asarlar birqancha portretlarga boy bo‘ldi. Lekin manzara ishlashni ham kanda qilmas edi.

U o‘zining 20 yillik ijodida «Bibi-Xonimda bahor», «Bahor», «Shaftoli gulladi», «Tokzorli hovli», «Kuzdagi hovli» kabi ajoyib manzarasini chizib Samarqand obrazini yaratdi. Biz yuqorida ko‘rib chiqqan asarlardan P. Benkovning naqadar zabardas rassom bo‘lganligiga iqror bo‘lamiz. Uning ijodi pedagogik faoliyat bilan chambarchas bog‘langan. U Samarqand rassomchilik bilim yurtida umrini oxirigacha yoshlarga saboq berdi, tasviriy san‘at sirlarini o‘rgatdi. U ajoyib ijodkor yoshlarni tarbiyaladi. Shular orasida O‘zbekiston xalq rassomlari Lutfulla Abdullaev, Malik Nabiev, Abdulxaqk Abdullaev, Z. Kovaleskaya, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arboblari Yu. Elizarov,

R. Temurov, V. Fadeyev, rassomlar A. Roziqov, P. Chernoshev va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Uning pedagoglik mahoratini siri, yuqori darajali qobiliyati, chuqur bilimida, yoshlarga bo'lgan mexrida edi. U o'z o'quvchilariga kundalik hayotni sevish uni go'zalligini ko'ra bilish va bu go'zallikni o'z asarlarida aks ettirishni uqtirdi. Naturani to'g'ri anglab chizishni, fikr yurg'azishni, xotiradan chizish, tasavvurini kuchaytirishni talab qildi. Muntazam ravishda naturadan soya-yorug' ranglarni o'zgarishini chizib ko'rsatardi. Shogirdlarini xatolarini ko'rsatib, ehtiyotlik bilan professional mahoratini oshirishga undardi.

Benkov yoshlarda san'atga bo'lgan ijodiy qobiliyatini uyg'otish kabi muxim qimmatli fazilatlarga ega edi. Samarqandda rassomchilik bilim yurti shakllanishida Benkov o'z tajriba, bilimini ayamadi. 1936 yili Leningraddagi ittifoq ko'rgazmasida uni o'quvchilarning ijodi namunalari yuqori baholar oldi.


Bu ajoyib insonning, o'z asarlari kabi yorug' saxovatli edi. Shu yillar Respublika rassomchilik maktabini B. Xamdamiy, bilim yurtlarini A. Toshkentboev, L. Abdullaev, A. Roziqovalar, Moskva, Leningrad, Penza bilim yurtlarini I. Ikromov, A. Siddiqiy, U. Tansiqboyevlar tamomlab ijodga yo'llanma oldilar.

Ularning ijodiy maxorati Siddiqiyning «To'y» (1932), B. Xamdamiyning «qizil choyxona» (1933), L. Abdullaevning «Paxta terimi» (1931), Roziqovanning «Maktabga» (1932) asarlarida namoyon bo'ldi.

Akram Siddiqiyning «To'y» kartinasi katta gulli so'zana fonida kontrast ranglarda, kompozitsiya tuzilishi amaliy san'at yo'lida tasvirlangan. U o'zbek xalq amaliy san'atini yaxshi o'rgangan edi. Realistik san'at yo'lidagi bu asarlarning yaratilishi Respublika badiiy hayotda muxim voqea bo'ldi.

Ijodiy izlanishi A. Siddiqiyga yaqin bo'lgan O'.Tansiqboev yorqin ranglar tizimida «Choyxona» (1934) kartinasini yaratdi. B.Xamdamiyning tengdoshi rassom A. Toshkenboev mehnat, kundalik xayot voqealari mavzusidagi asarlar yaratdi. 1934 yili bularni yaratgan kompozitsiya asarlari ko'rgazmada yaxshi baxolandi. P.Benkov bilan Samarqand rasomchilik maktabida yoshlarga dars

bergan Z.Kovalevskaya «Teatr lojasida» (31-rsm) nomli ajoyib asar yaratdi. Teatr lojasida o'tirgan o'zbek qizlarni nigohlarida hayajon, go'zallik xis tuyg'ularini ko'ramiz.



31-rasm. Z.M.Kovalevskaya «teatr lojasida»

Orqada e'tibor bilan Binoklda kuzatayotgan qari erkak va ayolni xotirjam qarashlari, qo'l harakatlari lirik xolatini ko'ramiz.

Rangtasvir kompozitsiya jihatidan o'ziga xos milliy koloritda ifoda etilgan. P. Benkov, A. Volkov qo'lida o'qigan B. Xamdamiy, L. Abdullaev, R. Temurov, P. Nasritdinov, A. Raximov, A. Toshkenboev, A. Roziqorovlar o'z ustozlarini yaxshi ananalarini davom ettirdilar, mazmun, g'oyalarni

kengaytirdilar. Ayniqsa Samarqand rassomchilik bilim yurtini bitirgan L. Abdullaev dastlabki «Paxta terimi» (1931) kartinasi bilan tomoshabin va tanqidchilarni fikrini qaratgan bo'lsa, keyinchalik yetuk rassom sifatida murakkab kompozitsiya asarlarini yaratdi. Ayniqsa «Yosh shoir huzurida» kartinasida kompozitsiya ustasi ekanligini tasdiqladi. Yigit va qizlar yosh shoirning sherlarini eshitmoqda. Zamonaviy xonada shoir gavdasi aniq, tasviri kompozitsiya markazini tashkil etadi, qo'lini ko'tarib tantanali xayajon bilan sher misralarini o'qimoqda. Yoshlarning bilimga chanqoqligi, mehnatga mehr bilan intilishi ifodalangan.

Uning «Mulla To'ychi Toshmuxeimedov» portreti, «Frontdan qaytish», «qo'riq er ochuvchilar», M. Nabiev, S. Muxammedov, X. Raxmonovlar bilan hamkorlikda yaratilgan «Poyafzalchi Ubay Raxmutallaev brigadasi» asari eng yaxshi san'at asari sifatida O'zbekiston Davlat san'at muzeyida saqlanmoqda. Yuqorida qayd etib o'tilgan rassomlar 50 yillarda Toshkentdagi P. Benkov nomli rassomchilik bilim yurtida yoshlarga dars berdilar, rasm chizish va kompozitsiya asari yaratishni o'rgatdilar. 40-50 yillarda shular bilan bir qatorda V. Ufimtsev, P. Gan, A. Goldrey, Ch. Axmarov, A. Abdullaev kabi zabardast rassomlar yoshlarga tasviriy san'at sirlarini o'rgatdilar.

Maishiy janrda ko'plab asarlar yaratgan rassom N. Kashinadir. Uning «Doira chalayotgan qiz» (1945) (32-rasm), «Tushki tanaffus» asarida insonni mehnat bilan barhayotligi, uni toza havo, oftob nurlaridan, tabiatdan zavqlanayotgani o'z aksini topan. Asar kompozitsiyasi, rang koloriti, milliy ruxda, insonni zamonaviy xislatlari, kompozitsiya tuzish vositalari namoyon bo'lgan. Yoshlarga metodik tavsiya vazifasini bajaradi.

1947 yili Ch.Axmarov, Toshkentdagi Navoiy nomli opera va balet teatri binosi foyesi devoriga A. Navoiyning «Farxod va Shirin», «Layli va Majnun» asariga bag'ishlangan mahobatli rangtasvir asarini ishladi. Asosiy mavzu afsona yoki bo'lib o'tgan voqealar bo'lishiga qaramay, tipajlar, ularni aniq o'xshashligi, sharqona miniatura san'atining nozik plastikasida sug'orilgan xolda murakkab kompozitsiya yechimida topilgan.

Tasvirdagi odamlar xajmsiz tekislikda, aniq chizgilarda va yengil nozik ranglar tusida tasvirlangan.



32-rasm. N. Kashina «Doira chalayotgan qiz»




33-rasm. Ch. Axmarov «A.Navoiy muzeyda ijod jarayonida»

«Monumental» panno mavzusida A.Navoiyni «Farxod va Shirin», Etti sayyora, «Iskandarnoma», «Layli va Majnun» poemasi asosida «Farxod va

Shirinni, Layli va Majnunning uchrashuvi, Baxrom va Dilorom, Iskandarni to‘g‘on qurilishini kelib-ko‘rishi kompozitsiyaning asosiy negizini tashkil etadi. Shirin kanizaklari bilan Farxodga nigoh tashlab uni qilgan jasoratiga ta‘zim qilayotgan vaqti ifodalangan. Asarni muvaffaqiyatli chiqishda rassomning A. Navoiy dostonlarini yaxshi sinchiklab o‘rganganligi katta yordam bergan. Bu asar uchun Ch.Axmarov 1948 yili «Davlat mukofoti»ga sazovar bo‘lgan edi.

50 yillarda rassom Moskva, Qozon, Dnepropetrovsk, Kemerovo shaharlarida asosan mahoratli-devoriy asarlar ustida ishladi. 1961 yildan boshlab Ch. Axmarov yana O‘zbekistonda ijod qila boshladi. «A‘lochi qiz», «Raxima» (34-rasm), «Balerina», Rassom «Temur portreti», «Muqanna Turg‘unboeva», «Zulfiya» (35-rasm) kabi portretlarni yaratdi.



34- rasm. Ch. Axmarov «Raxima»



35-rasm. Ch. Axmarov «Zulfiya»

Ayniqsa shoira «Zulfiya portreti»da nozik chizgilar bilan gavda va qo‘l holati, liboslar o‘ziga xos go‘zal xolatda ifodalagan. Shoiraning samimiyligi, yoqimtoy nigohi chuqur poetik ijod sohibi ekanligi sezilib turadi. Ch.Axmarov zamonaviy o‘zbek ayolini ziyo tarqatuvchi ma’naviy boyligini, ichki go‘zalligini ochib bergan. Chingiz Axmarov ko‘p yillar davomida K. Behzod nomli Toshkent davlat milliy rassomlik va dizayn institutida kafedra mudiri, professor bo‘lib ishladi. Ko‘plab o‘zbek «monumental»chi rassomlarni etishtirib chiqardi va o‘ziga xos mahobatli kompozitsiya san’ati maktabini yaratdi.

1953 yili Repin nomidagi Leningrad badiiy akademiyasi institutini R. Axmedov, N. Qo‘ziboev, T. Oganegov, M.Saidov, V.Zelikov, Muxina nomidagi oliy san‘at bilim yurtini V.Jmakin, V.Sosedovlar (1954-55y.) V. Surikov nomidagi Moskva rassomchilik institutini Yu.Elizarov tamomlab yangi kuch va ishtiyoq bilan san‘at olamiga kirib kelishdi.


Ijod bilan bir qatorda P. Benkov nomli rassomchilik bilim yurtida yoshlarga saboq berishdi. Shu sababli o‘sha yillari bilim yurtini bitirib chiquvchilarning turli nufuzli oliy badiiy o‘quv yurtlariga kirib o‘qishlariga zamin yaratildi.

Ular orasida yosh va iqtidorlisi N. Qo‘ziboev edi. Uning qora - qum xavzasiga bag‘ishlangan «Qidiruvchilar» (1953y.) diplom ishi a‘lo darajada himoya qilinib, DAK a‘zolari va raisi Ioganson maqtoviga sazovor bo‘ldi va institut muzeyidan muntazam o‘rin oldi.

O‘zbek xalqining orzusi quruq erni ochishga otlangan halqni shijoati, g‘ayrati N. Qo‘ziboevning «Qidiruvchilar», «Uzboy o‘zanida» ”Cho‘ponlar huzurida” (36-rasm) kartinasida o‘z aksini topgan. Mazmun va kompozitsiya jihatidan o‘ta antiqa zamonaviy bu asarda mahorat bilan, jazirama issiqda matonatli ishlayotgan kishilar obrazi tasvirlab berilgan. Asar kompozitsiyasida chodir yonidagi shijoatli odamlar, yuk ortilgan tuyalar, maxsus qidiruv ishlari jixozlari tasvirlangan. Inson kuch-qudrati bilan tabiiy ofatlarni engib, cho‘lni bog‘u-bo‘stonga aylantirayotganlar tasviri manzarasini guvohi bo‘lamiz. Rassom xaqiqatni jozibali tasvirlagan. Kompozitsiya jihatidan mavzu va ma‘no bir - biriga juda mos bog‘langan. Cho‘l oftobi toblangan afsonalar yaratuvchi inson obrazi asarda eng muhim vositadir.

1954 yili Toshkent teatr san‘ati institutida rassomchilik fakelteti 1955 yilda Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika universitetida badiiy-grafika fakulteti tashkil topdi. Bu yerda dastlab O. Tatevosyan, V. Podgurskiy, M. Shchirovskiy, R. Axmedov, A. Krivonos, N. Qo‘ziboev, pedagogika institutida

Yu. Elizarov, M. Saidov, T. Oganegov, V. Yurovskiyar tasviriy san'at asarlaridan yoshlarga dars berishdi.




36-rasm. N. Qo'ziboyev «Cho'ponlar huzurida»

Ayniqsa R. Axmedov tashabbus ko'rsatib, ko'p mehnati singdi. Shijoatli olov qalbli bu inson keyinchalik butun umrini O'zbekiston tasviriy san'ati va maktabini tashkil topib rivojlanishiga bag'ishladi. Samarali mehnati va ijodi uchun nufuzli davlat mukofatlari, orden medallariga sazovor bo'ldi.

Rossiya Badiiy akademiyasi muhbir a'zosi, O'zbekiston Badiiy akademiyasini akademigi professor Rahim Axmedov institutida ijod laboratoriyasini, tasviriy san'at bo'limlarini ochdi, keyinchalik aspirantura tashkil qildi. Uning maqsadi yosh iqdidorli rassomlarni tarbiyalab, o'qitish va O'zbekiston tasviriy san'atini rivojlantirishdan iborat edi.



37-rasm. R. Axmedov «Ona o'ylari»



37-rasm. R. Axmedov «Tong»

Musavvirning «Ona o‘ylari» (37-rasm), «Tong» (38-rasm), «Sora Axmedova» portreti «Lola» portreti «Oqtoshda baxor», «Surxondaryolik ayol», asarlarida jozibali ranglar vositasida o‘zbek xalqining o‘tmishi, ichki dunyosi, xis -tuyg‘u, orzulari o‘z ifodasini topgan.

Rahim Axmedov dastlab portret soxasida juda berilib ijod qildi. Zamondoshlarni betakror obrazini, mazmun g'oyalarni ifodalashda o'ziga xos badiiy til topdi. Portret yaratganda, nafaqat uni tashqi qiyofasiga, ranglarni uyg'unligiga, balki uni chexrasidagi insoniy fazilatlarni ochib berishga intilardi. Shuning uchun mehnatsevar xalqning milliy xususiyatlarini, o'zida mujassamlashtirgan ayollar, qariyalar, o'spirin - yoshlarni obrazini yaratishga qaratilgan edi.

«Cho'pon portreti»da tabiat bilan kurashib og'ir mehnatni yoshlikdayoq elkasiga olgan 40-yillar avlodini taqdirini tasvirlagan. Cho'pon yigit qiyofasida sinchiklab qarayotgan nigohi gavda kompozitsiyasiga bog'lanib ketgan, tayoqqa suyangan, qavargan qo'llari va suyangan gavdasi jazirama oftobda kuygan dala o'tlari, haroratda qizigan tabiat manzarasi fonida - issiq ranglarda o'z echimini topgan. Portet kompozitsiyasida asosiy mavzu bu inson obrazidir. Boshiga kattalarga taqlid qilib o'ralgan qizil ro'molcha, og'ir mehnatni anglagan, pushti ko'ylakdagi o'spirin bola tasvirlangan. Bu ajib asar hozirda O'zbekiston Davlat san'at muzeyida avaylab saqlanmoqda.

1956 yili Rahim Aqmedov Birchmulla qishlog'ida, ikki o'g'li hamda turmush o'rtog'i frontdan qaytmagan, mehnatda qaddi bukilmagan mardona keksa ayol portreti, «Ona o'ylari» (37-rasm) asarini yaratdi. Ayol ko'pincha qariyalarga xos o'tirar, hayolga cho'mar edi. Ayol kechinmalari, onadan yosh etim qolgan Raxim akaning bag'rini to'lqinlantirib, unga mehr, chuqur hurmat uyg'otdi.

«Ona o'ylari» portreti kompozitsiyasida, figura biroz oldinga chiqqan. Yong'oq daraxti yonida yostiqa suyanib tizza ko'ziga qo'l panjalarini saranjom qo'yib, hayolga cho'mgan ayol qiyofasi, kompozitsiya jihatidan klassik mavqeiga ega, juda muvafaqqiyatli topilgan. Ayolni yuzidagi chuqur ruhiy holatni, uning g'amgin yuzidagi katta yorug' ko'zlarida, mehnatda toblangan yuz chexrasida xaykalga xos o'z ifodasini topgan. Gavda, «siluet» aniq, engil ranglardagi manzara fonida, ko'k, binafsha, pushti, yashil, sariq ranglarda shiddatli maxorat bilan tasvirlangan.

«Hozirgi davrda janrli portretga ko‘proq ahamiyat berish kerak» deydi R.Axmedov, chunki insonni tabiiy sharoitda mehnat jarayonida ichki kechirmalarini ishonarli chuqur ifodalab berish sharoiti mavjud.

Ranglarni maftuni bo‘lgan R. Axmedov ko‘p zamondoshlari qatori 1959 yil «Surxondaryolik qiz» portretini yaratdi. Sariq ranglar fonida boshiga oq ro‘mol o‘rab o‘tirgan, yuzlari quyoshda toblangan bug‘doy rang ayol obrazini yaratdi. Egnidagi libosi qizil-zarg‘aldoq. Dekorativ ranglarda bo‘ynidagi yaltiroq kumush tangalar, tumorlar o‘ziga xos uslubda tasvirlangan.

Raxim Axmedov bilan bir qatorda K. Behzod nomli milliy rassomlik va dizayn institutida Ch. Axmarov, N. Qo‘ziboev, T. Oganegov, V. Jmakin, V. Sosedov, V. Kovinin, M. Saidov kabilar yoshlarni tarbiyalashda o‘z xissalarini qo‘shdilar.

M. Saidovni «Askiya» (1964) asarida paxta dalasi manzarasi, yog‘och karovatda dam olayotgan paxtakorlar asar ishtirokchilari. Kompozitsiya markazida qo‘lida piyola ushlagan qariya, navbatdagi xazil musobaqa g‘alabasidan so‘ngi yuzidagi kulgi, iliq chehra, ro‘parasida xazildan yutqazib o‘zini noqulay holatda sezib o‘tirgan raqib tasvirlangan. Xushchaqchaq hazil kulgidan o‘zini tutolmay o‘tirgan atrofidagi odamlar har xil xolatlarda tasvirlangan. Tomoshabinni e‘tiborini o‘ziga qaratgan chol figurasi kartinada asosiy bog‘lovchi - kompozitsiya markazini tashkil etadi. har bir tipaj o‘ziga xos psixologik xolatda jozibali tillarang koloritda ifoda etilgan.

V. Jmakining «Paranji tashlagan ayol» (1957y) kartinasi ko‘p figurali monumental kompozitsiya asarida dramatik holat tasvirlangan. Asar mazmuni yaxlit kompozitsiya echimi chuqur psixologik ko‘rsatilgan. Yorug‘ oftobli ko‘chada bo‘layotgan tarixiy dramatik voqea ifodalangan. Kompozitsiya markazini paranji tashlab salobatli turgan o‘zbek ayoli tashkil etadi. Muallif kelajakka intilgan ayol obrazini, eski tuzim vakillari, ruxoniylarga kontrast holatda qarama-qarshi qo‘yilgan. V. I. Jmakin kartinada «tipaj»lar obrazini, ularning ruxiy munosabatlarini, ularning liboslarini kontrast ranglarda ustalik bilan tasvirlab bergan.

1955 yili Nizomiy Nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida Badiiy grafik fakulteti tashkil topdi. Bu erda dastlabki yillarda Yu. Elizarov, M. Saidov, T. Oganegov, Yurovsiy A. Goldrey, M. Nabiev yoshlarga tasviriy san'atdan saboq berishdi, tasviriy san'at va ijod asoslarini o'rgatishdi, Respublikamiz maorif sohasiga yosh rassom - o'qituvchilarni tarbiyalash bilan bir qatorda, ko'plab ijodiy asarlar yaratishdi.

Moskvadagi Surikov nomidagi rassomchilik institutida akademik I. Grabar, S. Gerasimov qo'lida ta'lim olgan Yu. Elizarovning ijodi dastlab portret soxasida boshlanib, shakllandi. Uning «Paxtakor qiz», «Kabutar ko'targan qiz», «Onalik» asarlarida, rassomning kalorit, nozik ranglar ko'rish, kabi yaxshi xislatlari namoyon bo'lgan.

«Kabutar ko'targan qiz» (1953) ochiq havoda (planerda) bajarilgan. Toklar soyasida o'tirgan yosh o'zbek qizchasi obrazi namoyon bo'lgan yumshoq tashabbusli chehrasi aks ettirilgan. Chambarak qilib o'rilgan qora sochlari, iliq engil qarashlari, uning erkin holatda o'tirishida o'ziga xos harakter ifodasini beradi, Uyning devoriga tushgan yorqin oftob nuri, xovlidagi yashil maysa fonida bayram libosidagi qizning ruxiy holati jozibali tarzda tasvirlab berilgan. Yuzidagi iliq, libosidagi sovuq reflekslar rassom tasavvuridagi go'zal, haqqoniy ifodani namoyon etib turadi.

Yu. Elizarov yozuvchi «Sadriiddin Liniy», rassom «Rashid Temurov» portreti va bir necha mavzuli, tarixiy kartinalar yaratdi: «Xalima Nosirovaning ijodiy kechasi» kartinasi, «Registon maydonida tantana» shular jumlasidandir.

Yosh pedagog - rassomlarni tarbiyalashda ayniqsa Malik Nabievning xizmati juda katta. U 30 yil davomida badiiy grafika fakultetida rangtasvir kafedrasining mudiri bo'lib ishladi. Mutaxassis fanlarni o'qitishni takomillashtirishga, ilmiy nazariy, amaliy qo'llanmalar yaratishda o'z xissasini qo'shdi. Kompozitsiyada milliy ijod maktabini shakllantirdi. Shu bilan birga tinmay ijod qilib nufuzli ko'rgazmalarda qatnashib, o'z malakasini takomillashtirdi.

Uning samarali ijodiy mehnati, davlat tomonidan yuqori darajada taqdirlandi. U O‘zbekiston Badiiy akademiyasining faxriy a‘zosi professoridir.



38-rasm. Yu. Elizarov «O‘zbekiston madaniyat arboblarning guruh portreti»

M.Nabievni «Eski maktab» asari o‘ta mahorat bilan tasvirlangan. Tanlangan mavzu tarixiy asar tuzilishi (kompozitsiyasi) ranglar majmuasi, korishmasi bir - biriga mutanosib uyg‘unlashib ketgan. «Eski maktab»da milliy musavvirimiz tomonidan, xaqqoniylik o‘z aksini topgan. Hamma bolalar boshida jajjigina jiyakli gilamkashta, chamandagul, Marg‘ilon nusxa do‘ppilar tasvirlangan bo‘lib, milliy kiyimlar yoshlariga qarab topilgan ularga nihoyatda yarashgan. Bolalarda sabr, odob, ilm olishga moyillik, andisha kabi o‘zbekona xislatlar sezilmoqda. Ular cho‘qqa tushib, bo‘yra ustida o‘tirishibdi, oldilariga pastak yasama kursi, uning ustida darsliklar. Domladagi aqlu-zakovat, ilmlariga xos ko‘rinish, xona ichi bilan uyg‘un qilib aks ettirilgan. Bu asarda har bir bolaning bir-birini takrorlamagan holatlari hayotiy topilgan, domla qiyofasining ko‘rinishi ko‘p yillik tajriba natijasida yaxshi tasvirlanganini qayd etamiz.

M. Nabiev xalq baxodirlari yunon bosqichlariga qarshi jang qilgan Spitamen qo‘zqoloni jasorati bilan arablarni hayratda qoldirgan «Muqanna qo‘zqoloni» tarixiy asarlarini yaratdi.

Abu Rayxon Beruniy obrazi tasviri, uning qomusiy olim va mutafakkir inson ekanligi, uzoq vaqt davomida mashaqqatli ijodiy mehnat qilish, alloma yashagan davrni yaxshi o‘rganish, bir necha bor eskiz va ranglavxalarni ishlash natijasida yuzaga keldi.

M.Nabievning «Beruniy portreti» birinchi bor 1950 yilda ikkinchi varianti 1974 yili allomaning 1000 yilligi o‘tkazilishiga bag‘ishlangan tanlovda g‘olib chiqdi. UNESCO tomonidan chiqiriladigan «Kurer» jurnalining 1974 yil iyul soni muqovasida bosilib chiqdi va dunyo halqlariga borib etdi.

Rassom asarda ilm sirlarini echish uchun butun vujudi bilan kirishgan tarixiy shaxs, insonparvar olim Abu Rayxon Beruniyning butun salobatini, nufuzini gavdalantiradi. Kartinning keyingi planlaridagi kitoblar, tibbiyot, ilm fanga bog‘liq bo‘lgan buyumlar, ayniqsa portret kompozitsiya echimidagi sharqona tahlil, yuz qiyofasidagi chehra chizgilari, ruxiy holati mujassamlashib yaxlit Beruniy obrazini, uning qomusiy olim mutafakkir inson ekanini yanada bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qilgan.

Shuningdek M. Nabiev Soxib qiron Amir Temur portretini 1995-1996 yilda yaratdi (39-rasm). U. davlat tanlov komissiyasi tomonidan umumnamuna sifatida qabul qilindi. Tasvirda Amir Temur sarkardalik kiyimida namoyon bo‘ladi. Taxtda o‘ychan o‘tirgan sohibqiron, qilichga qo‘llarini qo‘yib, kuchga, aql-zakovatga to‘lib, davlat osoyishtaligi va farovonligi, xalqlar inoqligini o‘ylamoqda. Tarixchi Arabshox tariflaganidek uning boshiga kiygan toji barvasta qomatlariga juda yarashgan.

Portret havorang, zarjal jigarrang, qirmizi va oppoq moybo‘yoqlarda nixoyasiga etkazilgan taxtning bir tarafida quyoshdek nur sochayotgan jilvakor qadimiy Maroqand me‘morchiligi ko‘rinishlari aks etgan.

Kompozitsiya jihatdan portret tasvirida shijoatli, kuch - qudratga to‘liq, inson qiyofasi o‘ziga xos salobatli qomatda tasvirlangan.



39-rasm. M. Nabiev. “Soxib qiron Amir Temur portreti”

M. Nabiev tarixiy allomalarda Zaxiriddin Muxammed Bobur. Alisher Navoiy, Ibn Sino siymolarini, ko‘plab zamondoshlar portretlarini yaratgan pedagog rassomdir.

Biz yuqorida faqat 2 ta portret yaratilishi haqida taxlil qilib qayd etdik xolos. M. Nabiev ham R. Axmedov kabi butun umrini ijodiy asarlar yaratish

bilan birga 35-40 yil davomida TDPU yoshlariga tasviriy san'atdan saboq berishga o'ziga xos san'at, kompozitsiya ijod maktabini shakllantirishga sarflab keldi.

60 yillari tasviriy san'at ijodkorlari qatoriga Toshkent teatr - rassomchilik instituti, Leningrad badiiy akademiyasini bitirgan bir gurux iqtidorli yosh rassomlar kelib qo'shildi.


Ular orasida G. Abdurahmonov, B. Boboev, V. Burmakin, A. Boymatov, E. Melnikov, V. Perov, N. Shin, R. Chorievlar hayotga chanqoqlik, shijoat bilan ish boshladilar.

B. Boboevni uch qismdan iborat «Farg'ona suitasi» (1970) asari kompozitsiyasini olib ko'ramiz. 1) «Furqatning qo'qon bilan xayrlashuvi», 2) «Ishga», 3) «Rishtonli o'ta kulol» uchlik ishlarning normalarida birlik sezilmasada, «triptix» shaklidagi bu asarda chuqur hayot mazmuni o'z aksini topgan. Farg'ona vodiysi - O'zbekistonning go'zal o'lkalaridan biri. Farg'ona haqidagi «triptix» uchlik, xalqning taqdiri, xayot kechinmalari haqidagi keng ma'nodagi dostonidir desak yanglishmaymiz.

Asarni birinchi qismida shoir Furqatni do'stlari, ustozlari bilan hayrlashuvi haqidagi lirik poema tasvir vositalarida kompozitsiya jihatdan hayotiy mukammal tasvirlangan. Asarni markaziy qismi keng ponoramada mehnatkash xalqning, Farg'ona kanali qurilishiga o'tlangan grafik uslubda, yorug' va issiq rang koloriti tasvirlangan. «Triptix»ni uchinchi qismida usta kulolning ijod qilishi jarayoni sovuq ko'k, yashil ranglar gammasida tasvirlangan. Dumaloq - oval shaklidagi laganlarni va suv xavzasini plastik shakli, tandir oldida laganga bezak berayotgan usta yaxlit kompozitsiya tuzilishida ifodalangan va tomoshabinga nozik, go'zal dunyoni namoyon etadi. Bu asari uchun B.Boboev sobiq ittifoq Badiiy Akademiyasining kumush medaliga sazovor bo'lgan edi.

B.Boboev 60-yillarda o'z ijodida o'rta asr miniatyura san'ati ustalarining tajriba - namunalaridan va Deynekaning dastlabki izlanish natijalaridan foydalanishga harakat qilgan.

Shunday rassomlardan biri Vladimir Burmakin. Ijodiy diapazoni keng bu rassom xayot mazmuni, boʻlgan voqealarni chuqur anglagan xolda oʻz kompozitsiyasida asar mohiyatini jozibali ochib berishga erishadi va tomoshabinni oʻziga rom etadi. Uning «Xamon kutayotgan ayollar», «Boysun Madonna» asarlarida mukammal kompozitsiya echimi, oʻziga xos boy rang koloriti oʻz ifodasini topgan. Latofatli yosh ayol, ona obrazini yaratish, mavzuni chuqur anglash natijasidir.



40-rasm. V.Burmakin. "Boysunlik Madonna"

Uning «Daraxt haqidagi poema» kartinasida asar qaxramonlari, ikki yoshning hayot taqdiri tasviri tabiat qonunlarni toʻgʻrisida falsafiy fikr yurgizishga undab tomoshabinnni oʻylantirib qoʻyadi. Ikki yoshning ezgu xis-tuygʻularini ayni tabiat qoʻynida bir-biriga izxor etishi holati, daraxt oldida kompozitsiya jihatidan falsafiy lirik echimini topgan.

70-yillari Moskva Leningrad badiiy o‘quv yurtlarini J. Umarbekov, B. Jalolov, A. Mirzaev, A. Ikromjonov kabi yosh iqtidorli rassomlar bitirib keldilar.

Ayniqsa Javlon Umarbekov va Bahodir Jalolovlar talabalik yillaridayoq badiiy ko‘rgazmalarda qatnasha boshladilar. J. Umarbekov, aslida Butun ittifoq kinomotografiya institutini tomomlagan bo‘lsada, tasviriy san’atdagi ijod yo‘lini portret, maishiy tarixiy janrda boshladi.

Uning dastlabki «Alisher va Xusayn Boyqaroning yoshligi» (41-rasm) asari sharq miniatyura an‘analari uslubida yaratilgan. Ikki yosh o‘spirinning muloqoti, lirik-poetik holati kompozitsiya echimida ustalik bilan tasvirlangan.



41-rasm. J. Umarbekov. «Alisher va Xusayn Boyqaroning yoshligi»

Uyg‘onish davri tasviriy san’at ustalari asarlaridan ta’sirlanib yaratgan. «Tafakkurli inson» (42 -rasm) asari maqtovgga sazovordir.



42-rasm. J. Umarbekov. «Tafakkurli inson»

Asarda inson, koinot taraqiyoti, abadiyat va zamon haqidagi mavzu asos qilib olingan. Bu asar muallifning ijod cho‘qqisi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Murakkab kompozitsiya echimida, estetik did, yuqori malakaviy saviya, mahorat, chuqur falsafiy fikrlash o‘z aksini topgan. 1986 yili Leningradda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston tasviriy san’ati badiiy ko‘rgazmasida Milnikov tomonidan yuqori baholandi.

Baxodir Jalolov Leningrad rassomchilik ijodiy maktabini chuqur egallagan rassom. U o‘z asar personajlarini sodda tabiiy holda atrofga, kasbga munosabatini, ichki his-tuyg‘ularini, manaviy boyligini ifodalaydi.

Rassomning salohiyati o‘tkirliги «S. Axunov», «Komil Yormatov» (43-rasm), «Avtoportret» (44-rasm), “Kulol M. Rahimovning portreti” (45-rasm) portretlarida o‘z ifodasini topgan. Asardagi maromiga yetgan qalam tasvir, chiziqqlar, kompozitsiya tuzish maxorati, uni yuksak saviyali bilimidan dalolat beradi. Rassomning mazmuni kompozitsiya echimida monumental yo‘nalish asosiy vosita bo‘lib, uyg‘onish davri rassomlarning badiiy tamoyillariga asoslangan.

U mahobatli rang tasvir hamda dastgohli rang tasvir san’ati asoslarini professor A. Milnikovdan o‘rgandi.



43-rasm. B. Jalolov. «Komil Yormatov»


Keyinchalik mukammal akademik qalam tasvirga asoslanib, Salvador Dali, Albrecht Dürer ijodi va jaxon badiiy me'roslarini o'rganib, badiiy tafakkurini olg'a siljitdi.

Uning “Niyatga etish”, “Folbinlik”, “Metamorfoza”, “Ikkilanish”, “Yaratuvchi-inson”, “Ikki asos kurashi” asarlari turkumida xayotni falsafiy muammolari, insonning yashash uchun kurashi, undagi ma'naviy dunyoqarashning shakllanishi kabi masalalarni olg'a suradi. Uni tasavvurida uyg'onish davri rassomlarining g'oyalari chuqur iz qoldirgan.

U monumental san'at asarlari, Yevropa va va sharq «progressiv» ijodkorlar yo'nalishida bajarilgan asar sifatida bo'lajak rassomlarni monumental kompozitsiya tuzilishini o'rganishida asosiy dastur, vosita bo'lib xizmat qiladi.

XXI-asrda O'zbekiston tasviriy san'ati turli rakurslarda rivojlanib bormoqda. Yuqorida nomi keltirilgan buyuk rassomlarning maktabidan

yetishib chiqqan yosh rassomlar o'zlarining ijodlarini salmoqli davom ettirmoqda.



44-rasm. B.Jalolov. «Avtoportret»



45-rasm. B.Jalolov. «Kulol M. Rahimovning portreti»



45-rasm. B.Jalolov. «Raqsning tug'ulishi»




46-rasm. B.Jalolov. «Birlikni tushunish»

KOMPOZITSIYANING QONUN VA QOIDALARI

Tasviriy san'atda kompozitsiya bir tomondan katta, murakkab va muhim mavzu bo'lsa-da, ikkinchi tomondan, uni muhim, majburiy narsa sifatida qabul qilmaslik kerak. Kompozitsiya tushunchasi go'zallik, uyg'unlik va estetika hissini shakllantirishga yordam beradi. Kompozitsiya qoidalariga rioya qilsangiz, mukammal asarga ega bo'lishingizga kafolat beradi. Sizda kompozitsiya tushunchasi mavjud bo'lsa, siz o'z ishingizga yanada malakali yondashasiz, eskizlarni xolstga uyg'unroq joylashtirasiz va o'z g'oyalaringiz va fikrlaringizni tomoshabinga ko'proq ekspressivlik bilan etkazasiz.

Oltin kesim - bu kartinani ikki qismga bo'lish orqali olingan maxsus nisbat bo'lib, butun kartina katta qism bilan bog'liq bo'lganidek, katta qism kichikroq bilan bog'liq bo'ladi.


Uchdan birlik- qoidasi yagona haqiqiy va eksklyuziv emas, lekin bu yaxshi kompozitsiyani yaratish uchun ideal vosita bo'lib, unda asosiy elementlar 3x3 panjaraning kesishish nuqtalarida joylashgan. Bu yaxshi "qo'llanma" va tasvirni yanada qiziqarli qilishning bir usuli.




Toq son qoidasi - Bu yozilmagan qoida, ammo toq obyektlarning soni juftdan ko'ra jozibadorroq ekanligiga ishoniladi. Agar rasmda bir nechta obyekt bo'lsa, kamida uchta elementdan va odatda uchtadan iborat kompozitsiyani tanlash yaxshidir, chunki besh, etti yoki undan ortiq obyekt vizual ravishda chalkashishni boshlashi mumkin.

Yo'l tuzilishi - tomoshabinni asosiy markazga yo'naltirish uchun tasvir bo'ylab tarqalgan bir qator markazlashtirilgan nuqtalar. Ba'zan barcha markazlashtirilgan

nuqtalar kompozitsiya uchun bir xil darajada muhimdir va unda vizual yo‘l yoki halqa yaratadi.



Simmetrik va assimetrik tuzilmalar. Simmetrik tuzilmalarda tasvirning har ikki tomoni markaziy chiziq atrofida aks etadi. Bir tomon boshqasidan qisman farq qilganda, bu tasvirning spekulyarligini buzadi, assimetriya paydo bo‘ladi.







Simmetrik kompozitsiya bugungi kunda unchalik mashhur emas, lekin avvalgi davrlarda nihoyatda keng tarqalgan va odatda diniy mavzudagi kartinalar bilan bog‘liq. Simmetriya birlik, muvozanatni anglatadi. Masalan, Leonardo da Vinchining “Sirli oqshom” asari bitta fokus nuqtasi va o‘rtacha chiziqli kompozitsiyaga ega simmetrik strukturadan foydalanadi. E’tiborni tortadigan birinchi narsa bu tasvirning markazida joylashgan Isoning joylashuvi, qolgan raqamlar esa ufq chiziqqa nisbatan teng taqsimlangan. Iso orqasidan qarama-qarshi yorug‘lik oynasi tufayli ajralib turadi. Istiqbolning barcha chiziqlari Isoning yuzida birlashadi. Chap tomon o‘ng tomonga qaraganda ancha quyuqroq va ehtimol, bu tasvirni muvozanatlashga yordam beradi. O‘z navbatida, har ikki tomonning raqamlari bir-biridan farq qiladi, bu esa freskaga assimetriya elementini kiritadi.


Rafaelning Uyg‘onish davrining yana bir surati o‘rta chiziq tarkibidagi yagona markazlashtirilgan nuqta tuzilishini, etakchi chiziqlarni va ramka tuzilishini birlashtiradi:

Yetakchi chiziqlarning tuzilishi. Ushbu tuzilishda aniq chiziqlar mavjud bo‘lib, ularning ortidan tomoshabinning ko‘zi tasvirning ma’lum bir qismini yoki qismlarini kuzatib boradi.



Suratida oltin nisbatni uchdan birlar qoidasi va ehtimol, rasmni yorug'lik va qorong'u qismlarga ajratuvchi ufq chiziq bilan birgalikda kuzatish mumkin. Kompozitsiya asosiy

obyektni va kema ekipajini ramkaga soladigan ko‘rinadigan yo‘naltiruvchi chiziqlar bilan tuzilgan. Bu, shuningdek, bitta diqqat markaziga ega bo‘lgan strukturadir, lekin ko‘z hali ham jamoa a‘zolarini kesib o‘tadi, bu sizga qizning atrofida vizual ramkani belgilash va tomoshabinning qiziqishini saqlab qolish imkonini beradi. Yana, vizual qiziqish uchun, tasvirning chuqurligining yoqimli tuyg‘usi mavjud va tog‘lar, arqonlar va yelkanlar kabi obyektlarning silueta juda batafsil emas, lekin ular etarli vizual kontekstga ega. Buning yordamida tasvirning muhim qismlaridagi tafsilotlar, masalan, yuz, ayniqsa kuchli tarzda ajralib turadi va bizning ko‘zlarimiz doimo qizga qaytadi.



Kompozitsiya markazi. Muvaffaqiyatli kompozitsiyada har doim asosiy urg‘u obyektini joylashgan kompozitsion markaz mavjud. Boshqa barcha obyektlar atrofida joylashgan bo‘lib, kompozitsion markazga nisbatan ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Kompozitsiya markazi - bu sizning kompozitsiyangizda birinchi navbatda tomoshabin e‘tiborini tortadigan joy. Bu eng muhim joy. Qolgan hamma narsa, kompozitsiyaning barcha boshqa elementlari kompozitsion markazga va undagi g‘oya mavzusiga bo‘ysunishi kerak.

Asar g‘oyasi mavzusi bilan bir biridan quyidagicha ajralib turishi mumkin:

- O‘lchamlari bilan;

Turli o'lchamdagi buyumlar va predmelardan tashkil topgan natyurmort. Bir qarashda ko'zimiz katta hajmdagi ko'zaga tushadi. Uning hajmi diqatimizni birinchi bo'lib o'ziga tortadi. Demak kompozitsiyada hajm ham mavzu g'oyasini ochishda muhim sanaladi.



- Shakl bilan;

Turli o'lchamdagi va bir biriga yaqin ranglardagi noteks shakldagi daraxtzor orasida tekis chiziq va shakldagi kichik uyning ko'rinishi tasvirlangan manzara. Ushbu manzaraga bir qarashimizda diqatimizni uy tortadi. Uning shakli tasvirda yagona ajralib turuvchi shakldir.



PhotoShop dasturi yordamda asardagi uyni olib tashlaymiz, o'rniga kartinadagi daraxt shakli va ranglariga yaqin daraxt xosil qilamiz. Endi kartinaga razm solamiz. Xo'sh birinchi e'tiborimizni nima tortdi?



Kichik odamlar! Ha, biz darhol odamlarga ularning soniga e'tibor qaratdik. Demak asarda katta yoki keskin farq qiluvchi shakllar kartina g'oyasini ochib berishda muhim hisoblanar ekan.

Manzaralarda aks etga kengliklarga inson figurasini qo'shish orqali sizning ko'zingiz ufiq chizig'iga emas birinchi navbatta insonga e'tibor qaratadi. Garchi kompozitsiyada chiziqlar ufiqqa yo'naltirilgan bo'lsada inson gavdasi elementi kompozitsiya g'oyasini butunlay o'zgartirib yuboradi. Shuning uchun ham kompozitsiya mukammal va barcha qoidalari bir-birini ba'zida inkor etadi, ba'zida to'ldiradi.



Kompozitsiya asrlar mobaynida shakllangan qonunlar va qoidalar asosida quriladi. Uning qonun qoida va usullari o'zaro bog'liq bo'lib, kompozitsiya ustida ishlash

jarayonida unga barcha holatdagi harakatlar ta'sir etadi. Ilg'or g'oya maqsadlarini ishonarli, tasirchan ifodalashda asar yaxlidligiga amal qilgan holda va badiiy san'atning barcha imkoniyatlaridan o'rinli foydalana olish talab etiladi.

Badiiy asar yaratishning turli usul va qonuniyatlari, uning qurilmasi bilan tanishib chiqar ekanmiz, bunda kompozitsiyani qonuniyat va usullar asosida ifodalash ekanligini ilg'ab olamiz.

Kompozitsiyaning asosiy g'oyasi kontrastlar orqali, ya'ni yorug'lik va qorong'ulik, ruhiy ko'tarinkilik va tushkunlik, sahiylik va baxillik, quvnoqlik va g'amginlik, yangilik va eskilik, sokinlik va harakatlar orqali ifodalangan bo'lishi mumkin.


Kontrast o'zining universal imkoniyatlari bilan yorqin va ma'nodor san'at asarlari yaratishda beqiyos asqotadi.

Leonardo da Vinchi o'zining «Rangtasvir traktati qomusida» kattaliklar kontrastidan, jumladan baland-past bilan, katta-kichik bilan, to'liq nimjonlik bilan, shuningdek turli sirtlar, ashyo, hajm, shakl, tekisliklar va shu kabilardan foydalanish kerakligini aytib o'tadi.

Tus va rang kontrastlari rangtasvir, grafika va boshqa yo'nalishdagi san'at asarlarini yaratishda imkoniyat omillarining ajralmas bir qismidir. Yorug' obyekt to'q fonlarda, va aksincha, to'qlari yorqinlik ichida ko'zga yaqqol tashlanadi.

V. Serov mo'yqalamiga mansub «Shaftoli bilan qiz» kartinasida bu jarayonni yaxshiroq kuzatish mumkin Qizning bug'doyrang yuzi yop-yorug' deraza fonida to'q dog bo'lib ajralib ko'rinadi. Qizning ko'rinishida sokinlik bo'lsada, uning yuzida hayot barq urmoqda, go'yo u hozir tabassum qiladigandek, go'yo nigohini olmoqchidek va qandaydir harakat qilmoqchidek holat yuz bermoqda.

Inson holatining o'ziga xos tabiiyligi, bir joyda qotib qolmasdan, harakatli faoliyatni tasvirda ifodalab beruvchi bunday portretlar oldida biz albatta hayratlanamiz.



Karl Bryulloving «Pompeyning so‘nggi kuni» nomli ko‘p qirrali, mavzuli kompozitsiyasi kontrastlardan foydalanish borasida yorqin misoldir. Bu asarda vulqon otilish chog‘ida insonlarning fojiali halok bo‘layotgan payti tasvirlangan.

Asosiy qomatlar ikkinchi plan kengligida joylashgan bo‘lib, charaqlagan chaqmoqning eng yorug‘ nurlari bilan ajratilganligi bois kontrastlar ancha kuchli ko‘rinadi. Bu planda ayniqsa qomatlarning dinamik harakatlari va o‘ta nozik ruhiy holatlar ifodalangan. Asarda odamlarni qo‘rquv, dahshat va sarosimalar qamrab olganligi, tartibsizliklar va boshqa alomatlar nihoyatda ishonarli va tabiiy etib ifodalangan. Kompozitsiyada umumiy yaxlitlikka erishish uchun asosiy maqsadni yorituvchi diqqat e‘tiborli markazni belgilash, ikkinchi darajali qismlardan voz kechish, chalg‘ituvchi kontrastlardan holi bo‘lish talab etiladi.

Asarning barcha yorqinlik, tus, rang koloritlari bo‘laklarini o‘zaro uyg‘unliklar bilan birlashtirgan holda umumiy yaxlitlikka erishish mumkin.

Kompozitsiyaning ahamiyatga molik roli, voqea sodir bo‘ladigan orqa fon va muhitga ajratiladi. Qahramonlar doirasi asar mazmunini yoritib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompozitsiyada yaxlitlikka va g'oyaning hissiyotlar ta'sirchanligiga erishish uchun maqsadni amalga oshirish choralari, shuningdek o'ziga xos interer yoki manzara tanlab topish zarur.



Kompozitsiyaning asosan to'rtta qonuni mavjud: yaxlitlik qonuni, tipiklashtirish qonuni, qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonuni, kompozitsiyaning barcha vositalarining fikriy mazmuniga bog'liqligi qonuni.

Yaxlitlik qonuni

Kompozitsiyaning birinchi qonuni asarning yaxlitligi qonuni hisoblanadi. Badiiy asarning qonundan qurilgan yaxlitligini kompozitsiya aniqlab beradi. Kompozitsiyaning barcha unsurlari rassomning mantiqiy o'y-fikrlarini birlashtirgan holda joylashadi. Biz buyumni yoki asarni kuzatar ekanmiz, avvalo uning umumiy ko'rinishiga e'tibor beramiz va bo'laklarni bir-biriga taqqoslaymiz. Demak, asarning bir butunligi (yaxlitligi) kompozitsiyani tashkil etadigan barcha qismlarining o'zaro bog'liqligidir. Unsurlarning uyg'unligi o'zida kompozitsiyaning xususiyatlarini mujassamlashtiradi.

Yaxlitlik tushunchasi kompozitsiya unsurlarining bir-biriga bevosita bo'ysunishi kabi tushunchalar bilan bog'liqdir.

Bu qonun badiiy tasvirning hamma turlarining asosiy qonuni hisoblanadi. Yaxlitlik qonunini qo'llamasdan turib chizish ham, naturadan ishlash ham mumkin emas. Shaki

ham, rang ham o‘z-o‘zicha paydo bo‘lmaydi, balki ular butunlik bilan munosabatda, butunning qismi sifatida ko‘rinadi.



Kartinada chuqur o‘ylanmagan konstruktiv fikr bo‘lmasa, bo‘laklar xuddi yopishtirib ishlanganday bo‘ladi. Bunday holatda biz faqat alohida figuralarning o‘zinigina eslab qolamiz. Asarda butunlik bo‘lmaydi.

Rassomlar kompozitsiyaning konstruktiv - fikriy tuzilishini topish uchun turli usullardan foydalanishadi.

Ba‘zi rassomlar kompozitsiyani tartib bilan o‘ylab topadi, ba‘zilari esa oldin tasavvuriga nima kelsa o‘shani tartibsiz chizib tashlaydi, keyin esa undan yo‘l kursatuvchi konstruktiv fikr qidiradi.

Mukammal kompozitsiyani yaratish rassom uchun murakkab yo‘l hisoblanadi. Shuning uchun ham mukammal yaratilgan kompozitsiyadagi bitta detalni olsak ham uning yaxlitligiga zarar yetadi. Bunday kompozitsiyaning barcha unsurlarining aloqasi aniq va mazmundor bo‘lganligidan unga qo‘shimchalar kiritib va o‘zgartirib bo‘lmaydi.

Kompozitsiyaning barcha unsurlarining o‘zaro aloqasi faqatgina mantiqan emas, balki uyg‘unlik yaratuvchi emotsional estetik sifatlarga ega.

Kompozitsiyaning yaxlitligi, aloqasi va bir-biriga bog‘liqligi muammosi kompozitsiya elementlarining takrorlanmasligi, turli-tumanligi vazifasi bilan uzilmas aloqadadir. Kompozitsiyada hech narsa takrorlanmasligi kerak. Uning kattaligi, dog‘i, intervallari, tipi, jesti ya‘ni harakat belgisi ham takrorlanmasligi kerak. Ularning

hammasi bir butun dog‘ yoki siluetga birlashishi o‘zbek rassomlari Abdulhak Abdullayev, Malik Nabiyeu portretlari, rus rassomlaridan M. Grekov, Surikov va Repin asarlarini olishimiz mumkin. Ko‘pgina rassomlar o‘zlarining ko‘p figurali asarlarini yaratib, ko‘p detallarini takrorlanmasligiga erishishgan.

Tipiklashtirish qonuni (hayotiylik qonuni)

Kompozitsiyadagi tipiklashtirish qonuni uchta asosiy belgilari bilan xarakterlanadi.

Birinchi belgi - kompozitsiyadagi berilayotgan voqea va xarakterlarning tipikligi. Bu qonunning asosida xarakter orqali tipikligi berilgan badiiy asar yaratishdir. Bunga misol qilib A.K. Savrasovning "Qora qarg‘alar uchib keldi" (47-rasm), I. I. Levitanning "Qaynzor" (22-rasm) kabi asarlarini olish mumkin. Bu asarlar juda mazmundor, qiziqarli, go‘zal bo‘lishi bilan birga, rus tabiatining tipik obrazini ochib beradi.

Tipiklashtirish qonunining ikkinchi belgisi san‘at asarida harakatni berish, vaqtni ko‘rsatib bera olishdir.

San‘atning tomosha qilinuvchi, sintetik turlaridan (teatr, kinematograf) farqli ravishda tasviriy san‘at syujetning rivojlanishidagi faqat bitta momentni. Hodisani o‘zgarmas holatda tasvirlab beradi. Shuning uchun ham biz tasviriy san‘atda harakatni berish to‘g‘risida gapirganimizda, harakatni his qilishni nazarda tutamiz.



47-rasm. A.K. Savrasov "Qora qarg‘alar uchib keldi"



48-rasm. I.I. Levitanning "Qaynazor"

Asarda harakatni aniq tasvirlash uchun tasvirlanayotgan voqeani kulminatsion nuqtasini topish, ya'ni oldingi harakatning belgilarini va keyingi bo'lajak voqealarni his qilish va tasvirlash lozim. Asarda qonunning bu belgilarini bera olmaslik kompozitsiyaning qotib qolishiga olib keladi. Bunda hattoki dinamik holatda tursa ham harakatni faqat tashqi ko'rinishi tasvirlanadi.

Mana shuning uchun ham rassom hayotni harakatda, yangining tuzilishi jarayonida qura olishi juda muhim. Ko'p figurali kompozitsiyaga nisbatan, bir figurali kompozitsiyada harakatni berish juda qiyin.

Repinning "Kutmagan edilar" (49-rasm) nomli asarida bir necha figura qatnashadi. Bu asarni tomosha qilgan kishi faqat tasvirlangan vaqtni emas, balki surgundan qaytgan kishi kirmasidan oldin ular nima ish qilib va qanday holatda o'tirganini ham tasavvur qila oladi. Uning paydo bo'lishi holati hozirgi holat sifatida his qilinadi. Chunki tasvirdagi boshqa barcha personajlar holatida oldingi harakat izlari saqlanib qolgan. Unda qari ona kresloni surgan holatda o'g'liga intilgani, xotini esa royal chalishdan to'htab, o'girilib qarab turgani tasvirlangan.

Keyingi harakat esa tasvirlanmagan bo'lsa ham quvnoq shovqin-suronni, savol-javobni va quvonch ko'z yoshlarini his qilish mumkin. Bu asarda voqeaning

kulminatsion nuqtasi aniq ko‘rinib turibdi. Unda vaqt va harakat juda muvaffaqiyatli berilgani uchun ham asar juda hayotiy chiqqan.

Rassom Yu. I. Pimenov o‘zining "Yangi Moskva va Kechagi ko‘chadagi to‘y" nomli asarlarida ham zamonaviy shaharni harakatda bera olish. Uni ko‘rgan tomoshabin voqealar xuddi ko‘z oldida bo‘lib turgandek his qilinadi.

Tipiklashtirish qonunining uchinchi belgisi uning yangiligidir.

Realistik san‘at hayotni faqat haqiqiy holatda tasvirlash bilan birga, rassomning oddiy kundalik hayotdan zavqlanishini, uni estetik his qilishni ham ko‘rsatib bera oladi.

Tasvirlanayotgan materialni estetik jihatdan o‘zlashtirish - san‘atning spetsifik xususiyatlaridan biridir. Bu estetik qarashlarsiz u o‘ziga-o‘zi qarshi chiqadi. Demak badiiy obraz o‘zida estetik sifatlarni namoyon qilishi va kompozitsion yechimda yangilik yaratishi zarur. Haqiqatan ham biz Mikelandjelo, Titsian, Rembrandt. A. A. Deyneka, A. A. Plastov, o‘zbek rassomlaridan R. Ahmedov, O‘. Tansiqboyev asarlarida biz dunyoni juda go‘zal holatda ko‘ramiz va his qilamiz.



49-rasm. I. Repin "Kutmagan edilar"

Qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonuni

Kompozitsiyaning yana bir asosiy qonunlaridan biri bu qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonunidir. Qarama-qarshi munosabatlar kompozitsiyaning ta'sirchan kuchini ko'rsatib beradi. Kompozitsiyada qarama-qarshi munosabatlarning ahamiyatini rassomlar qadimdan bilishgan, Leonardo da Vinchi o'zining "Rangtasvir haqidagi traktatlar" nomli asarida uzunlik kontrasti (uzun va past, semiz va ariq), xarakter, faktura, materiallar kontrasti to'g'risida yozib qoldirgan.

Mikelendjelo o'z asarlarida hajm va yassilik kontrastlariga e'tibor bergan. U o'z asarlarida hajmli figuralarning ko'rinishini ozg'in figuralar yoki yassilik orqali bo'rttirib ko'rsatgan.

Inson o'z atrofidagi predmetlarni eng avvalo ularning siluetiga qarab ajrata olamiz. Bu esa tasviriy san'atda juda katta ahamiyatga ega. Predmetning shaklini inson undagi yorug' va soya kontrastiga qarab qabul qila oladi. Chunki yorug'-soyaning yo'qligi, yassilikni, hajmsizlikni keltirib chiqaradi.

Masalan, portret san'atida rassomlar qadimdan tonlar kontrastidan foydalanishgan.


Rangtasvir asari issiq va sovuq ranglar kontrasti asosida quriladi. Rang kuchi uning yoniga qo'yilgan kontrast ranglar (qo'shimcha ranglar) orqali beriladi. Bular qizil, yashil, ko'k-zarg'aldoq - yashil, ko'k-zarg'aldoq, oq qora va hokazo bo'lishi mumkin.

Kompozitsiyada uzunlik kontrastlari (katta va kichik) va syujet tuzilishidagi kontrastlar (holat, psixologik) katta rol o'ynaydi.

Monumental asarlar ham kontrastlar asosida quriladi. Bu yerda uzunlik kontrasti katta ahamiyatga ega. Masalan, monumentalist - haykaltaroshlar mayda shakllarni yirik monumentlar oyog'i ostiga qo'yishadi.

Kompozitsiyada ideyani tasvirlash va syujetni qurilishida psixologik va holat kontrastlarini qo'llanilishi haqida Ye. A. Kibrik shunday deydi: "Kompozitsiyaning syujetini kurishda holatlarni qarama-qarshi qo'yish muhim ahamiyatga ega. Masalan, dehqon yoki turma vagonida hibsga o'tirgan mahbusga perronda uchib yurgan ozod kabutarlar kontrast bo'la oladi. Kir, yirtiq-yamoq kiyimlardagi ishchi bilan yaxshi kiyingan fabrikant ham kontrastni bera oladi.

Shunday qilib kompozitsiyada kontrastlar universal rol o'ynaydi. Ular kompozitsiyada ideyaning konstruktiv xarakteridan boshlab, syujet qurilishiga katta ta'sir qiladi.



Kompozitsiyadagi barcha qonun va vositalarning uning fikriy g'oyaviy mazmuniga bog'liqligi qonuni

Bu qonunga asosan rassom yaxlit, ta'sirchan, fikriy-g'oyaviy jihatdan juda mazmundor san'at asari yaratadi. Chunki kompozitsiyaning tuzilishi barcha qismlari va detallari bilan formalistik - o'lik sxemaga emas, balki uning fikriy mazmuniga asoslanishi kerak.

San'at asari ustida ishlar ekan rassom uning kompozitsiyasi orqali o'zini tasvirlaydi, unga ma'naviy va estetik jihatdan baho beradi. Bu holatlar rassomning eng yuqori fikri va g'oyasi bo'lishi mumkin. Shunday qilib, rassom o'zining fikri va g'oyasini kompozitsiya orqali bera olsa bu badiiy asarga aylanadi. Aks holda bu obyektiv real borliqni fotografik ko'chirish yoki mazmun va mohiyatdan holi bo'lgan tasvirga aylanadi.

Bu qonun hajmlar munosabatini (soni va sifati), rang, yorug'lik, ton va shakl, shuningdek ritm va plastikasini berishi, harakat yoki nisbiy tinchlik holatini, simmetriya va assimetriyasini hisobga olishni talab qiladi. U kartina o'lchamiga barcha shakllarning nisbiy o'lchamini, kompozitsiyaning syujet markazini boshqa qismlariga nisbatini aniqlashtirishni talab qiladi. Asarda yaxlitlik taassuroti hosil bo'lishi uchun qismlar va elementlarning o'lchamlari nisbatlarning garmonik uyg'unligini keltirib chiqarishi lozim. Bu vazifalar rassomning fikriy-g'oyaviy mazmuniga mos holda yechilishi zarur. Shunday asarlar qatoriga M. B. Grekovning "Tachanka" asarini kiritishimiz mumkin.

Bu qonuning mazmun va mohiyatidan ko'rinib turibdiki asar yaratuvchi rassom kuchli aqlga, qaynoq yurakka va chuqur fikr bildirishga qodir inson bo'lishi lozim. Shuning uchun ham rassom uchun katta dunyoqarashga ega bo'lishi juda zarur.

Xulosa qilib shuni aytib o'tish lozimki, yuqoridagi qonunlarga rassom faqat o'z munosabatini bildirsa, tomoshabinga tushunarli bo'lgan asar yaratishi mumkin emas. Chunki tasviriy san'atning asosiy vazifalaridan biri bu insonlar orasidagi muomala vositasi bo'lib xizmat qilishdan iboratdir.

Yuqorida keltirib o'tilgan qonunlar abstraksionizm va naturalizmga juda begonadir.

Nazariya amaliyotini kerakli bilimlar bilan qurollantiradi, aniqroq qilib aytganda asrlar davomida rassomlar tomonidan to'plagan boy materialni sistemali ravishda san'atga qaytaradi. San'at nazariyasi, rassomning yoshlik davridan boshlab shakllangan dunyoqarashi kabi juda katta ahamiyatga ega.

Kompozitsiyaning badiiy ahamiyati va nazariyaning rivojlangan qonun-qoidalari va vositalari mavjud. Quyida asar yaratish jarayonida musavvirga yordam beruvchi asosiy qoidalari va vositalar haqida kengroq to'xtalib o'tmoqchimiz.

Albatta insonning o'zida hech qanday ijodiy qobiliyat yoki qiziqish bo'lmasa uni hech qanday qonun, qoidalar va vositalar bilan to'ldirib bo'lmaydi. Qobiliyatli rassomlar to'g'ri kompozitsion yechimni o'zining hissiyot va sezgisi orqali topadi, lekin bu qobiliyatni rivojlantirish uchun nazariyani ko'proq o'rganib, uni amaliyotda qo'llab ko'proq mehnat qilish lozim.

Kompozitsiya yuqorida aytib o'tganimizdek aniq qonunlar asosida quriladi. Uning qoidalari, usul va vositalari esa butun ish jarayonida qo'llaniladi. Ular badiiy asarning yaxlitligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Rassomning fikri tasurotini yoritib beruvchi badiiy vositalarning qo'llanilishi va original kompozitsion yechimni topish kompozitsiyaning tasviriy asosi hisoblanadi.

Kompozitsiyaning qoidalarini quyidagilarga ajratish mumkin: harakat (dinamika)ni berish, tinchlik (statika, oltin kesim 1/3).

Kompozitsiyaning usullariga ritm, simmetriya va assimmetriya, muvozanat va syujetli - kompozitsion markazni aniqlash kiradi.

Kompozitsiyaning vositalari quyidagilardan iborat: format, masofa, kompozitsion markaz, ritm, kontrast. Yorug'-soya, rang, dekorativlik, dinamika va statika simmetriya va assimmetriya, ochiqlik va yopiqlik, yaxlitlik va hokazo. Shunday qilib, kompozitsiya vositalari, bu kompozitsiyani yaratishda zarur bo'lgan barcha narsalar, shu bilan birga ularning qatoriga kompozitsiyaning qoidalari va priyomlarini ham kiritamiz. Ular turli tuman. Biz bu yerda eng asosiylari to'g'risidagina ma'lumotlarni berdik.

Ritm

Hammaga ma'lumki, ritm - bu tabiatning universal xususiyatidir. Masalan, kun va tun, yil fasllari siklik ravishda o'zgarib turadi, hayvonlar, o'simliklar va materiallarning

rivojlanish jarayoni aniq ketma-ketlikka ega. Lekin hayot va san'atdagi ritm bir hil emas. San'atda ritm va ritmlik aksentlarda uzilish, notenglik, noaniqlik bo'lishi mumkin.

Musiqadagi kabi tasviriy san'atda ham ritmlar faol, uzuk-yuluq, tekis, xotirjam, sekinlashgan ritmga ajratiladi.

Ritm - bu qandaydir elementlarni ma'lum bir ketma-ketlikda joylashishidir.



Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, dekorativ san'atda ritm kompozitsiyaning muhim tasviriy vositasi sifatida qatnashadi. U faqat tasvirni ko'rishdagina qatnashib qolmay, balki asarga aniq emotsionallik bahsh etadi.

Ritm chiziqlar, dog'lar, yorug'lik va soya, rang orqali berilishi mumkin. Kompozitsiyada bir-hil elementlar takrorlanib keladi, masalan odamlar qomati, ularning qo'li yoki oyog'i va hakoza. Natijada ritm hajmlar kontrasti asosida quriladi.

Ritmilar dekorativ amaliy san'atda muhim rol o'ynaydi. Turli-tuman bezaklardagi ko'plab kompozitsiyalar elementlarining aniq ritmik ketma-ketligida qurilgan.

Ritm tekislikda harakatni bera oluvchi vositalardan biridir. Nimaga ritm harakatni ko'rsata oladi? Bu bizning ko'ruv organizmining xususiyati bilan bog'liq. Bizning nigohimiz bitta tasviriy elementdan o'ziga o'xshash boshqa elementga tushar ekan, o'zi ham harakatda qatnashadi. Masalan. Biz suv to'lqiniga qarar ekanmiz, nigohimiz bitta to'lqindan ikkinchisiga o'tadi va ularning harakati illyuziyasi hosil bo'ladi.

Tasviriy san'at musiqa va adabiyotdan farqli ravishda fazoviy san'at guruhiga kiradi, vaqt va masofada harakatning rivojlanishi uning asosi hisoblanadi. Tabiiyki biz harakatni tekislikda berish haqida gapirganda, albatta uning illyuziyasini ko'zda tutamiz. Rassomlar kartinada ob'ektlar harakati illyuziyasini yaratish, uning xarakteri to'g'risida juda ko'p vosita va usullarni bilishadi.

Quyida biz ulardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

Harakatni bilish qoidasi. Quyidagi sharoitlarda ob'ektlar kartinada xuddi harakatlanayotgandek ko'rinadi:

- Agar kartinada harakat yo'nalishi bo'yicha bitta yoki bir nechta diogonal chiziqlardan foydalanilsa;
- Agar harakatlanayotgan obyekt oldida bo'sh masofa qoldirsak;
- Agar harakatni xarakterini juda aniq ochib beruvchi kerakli kulminatsiya tanlansa.

Bundan tashqari harakatni faqat bir momentini emas, balki uning harakatlarini bosqichma-bosqich bersak ham tasvir harakatlanayotganga o'xshab ko'rinadi. Masalan, qadimgi Misr releflarida har bir figura aniq bir holatda qotib qolgan, lekin

kompozitsiyani aylana holatida tomosha qilsak harakat ketma-ketligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda tasvir harakatlanayotganga o‘xshab ko‘rinadi.

Asarni yaxlit holda tomosha qilsakgina harakatni sezishimiz mumkin, harakatning bo‘lak momentlarida u sezilmaydi. Harakatlanayotgan obyektning oldidagi ochiq masofa harakatni fikran davom ettirish imkoniyati tugdiradi. Aks holda ob‘ekt qogoz satxining chekkalariga juda yaqin qilib tasvirlansa, xuddi harakat to‘xtab qolgandek tuyuladi.

Shuningdek harakatni rasmdagi chiziqlarning yo‘nalishi orqali ham berish mumkin. Masalan, barcha chiziqlar qog‘oz satxining chuqurligiga yo‘nalgan. Bunda qahramonni eng kuchga to‘lgan vaqtini tasvirlasak harakatning ta‘sirchanligi ortadi. Shu bilan birga harakat hissini obyektning silliq bo‘yalgan foni noaniq ko‘nturlari ham berishi mumkin. Fondagi qo‘llagan vertikal va gorizontal chiziqlar harakatni to‘xtatib qo‘yadi. Harakat yo‘nalishini o‘zgarishi esa harakatni tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi.

Harakat tezligini V. Surikovning “Boyarina Morozova” kartinasi misolida ham ko‘rishimiz va his qilishimiz mumkin (50-rasm).



50-rasm. V. Surikov “Boyarina Morozova”

Statikani berish qoidasi

Quyidagi sharoitlarda kompozitsiya statik hisoblanadi.

- Agar kartinada diagonal yo‘nalishlar yo‘q bo‘lsa;

- Agar ob'ektlar tinch (statik) pozada tasvirlangan bo'lsa, harakatning kulminatsiyasi bo'lmaydi;

- Agar kompozitsiya simmetrik, muvozanatda yoki oddiy geometrik sxemalar (uchburchak, aylana, oval, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak) asosida qurilgan bo'lsa.

Tinchlik hissi san'at asarida yoki boshqa sharoitlarda paydo bo'lishi mumkin. Masalan, K.Korovinning "Qishda" kartinasida (51-rasm) diagonal yo'nalishlarning ko'pligiga qaramay, changi qo'shilgan ot tinch turibdi, undagi harakat quyidagi sabablarga ko'ra sezilmaydi: kartinaning kompozitsion va geometrik markazi bir-biriga mos, kompozitsiya muvozanatda va otning oldidagi ochiq sathda daraxt tasvirlangan.



51-rasm. K.Korovinning "Qishda"

Syujetli - kompozitsion markazni aniqlash

Rassom kompozitsiya yaratar ekan, kartinada eng asosiysi nima bo'lishini va bu asosiy syujetni ya'ni "mazmun markazi" deb ataluvchi syujetli - kompozitsion markazni qanday ajratib ko'rsatish to'g'risida o'ylashi lozim.

Albatta syujetda hamma narsa, bir hil muhim va ikkinchi darajada turuvchi qismlar asosiy syujetga bo'ysunadi. Kompozitsiyaning markazi asosiy harakat bilan unda qatnashuvchi asosiy shaxslarni o'ziga bog'laydi. Asardagi kompozitsion markaz o'ziga

diqqatni jalb etishi lozim. Markaz rang, yorug'lik, tasvirni yiriklashtirish, kontrast va boshqa vositalari bilan ajratiladi.

Kompozitsiya markazi faqat rangtasvir asarlaridagina emas, balki grafika, haykaltaroshlik, dekorativ san'at, me'morchilikda ham ajratiladi. Masalan, Uyg'onish davri rassomlari kompozitsiya markazi xolstning markazida turishini hoqlashgan. Bosh qahramonni holstning markazida tasvirlash orqali rassomlar uning syujet uchun muhim rol uyg'onishni ta'kidlamoqchi bo'lishgan.

Rassomlar kompozitsiya markazini xolstning hoqlagan joyiga qo'yib kartina yaratish uslublarining ko'pgina variantlarini ishlab chiqishgan.

Rembrandtning "Oq padarning qaytishi" (52-rasm) nomli asarida asosiy fikrni aniq ochib berish maqsadida asosiy qahramonlar markazdan chetga surib ishlashgan. Unda uyning bo'sag'asida dunyoni darbador kezib kelgan o'g'ilning ota bilan uchrashuvi tasvirlangan. Darbador o'g'ilning ko'rinishiga qarab uning og'ir yo'l bosib kelganini bilish mumkin. Chuqurlik birinchi plandan boshlab rang va yorug'lik kontrastlarini kamaytirish hisobiga ochib berilgan.

Ko'zi ko'r bo'lgan ota kechirganini belgisi sifatida o'g'lining yelkasiga qo'lini qo'yib turibdi. Bu harakat orqali yillar davomida to'plagan qayg'u-alamni, donolikni ko'rish mumkin. Rembrandt kompozitsiyasidagi asosiy markazni yorug'lik bilan ajratib ko'rsatilgan. Kartinning kompozitsion markazi juda chetda joylashgan. Rassom kompozitsiyadagi muvozanatni o'ng tomonda turgan katta o'g'ilni tasvirlash orqali bergan. Kompozitsiyadagi asosiy markazning berilishi "Oltin kesm" qoidasiga to'g'ri keladi. Qadimdan rassomlar taassurotni kuchaytirish uchun qo'llashgan.



52-rasm. Rembrandt "Oq padarning qaytishi"

Kompozitsiyada oltin kesim qoidasi


Kompozitsiyadan markazni ko'rsatish uchun tasvirning muhim elementi oltin kesim nisbatiga to'g'ri keladigan holda ya'ni $1/3$ nisbatda joylashtiriladi. Agarda uyg'unlikka erishish uchun tasvirlanayotgan obyektlarning nisbiy munosabatlari oltin kesim qoidasi asosida qurilishi lozim.


Ikkita va undan ko'proq kompozitsion markazlar berilgan kartinalar orqali bir hil vaqtda bo'lib o'tayotgan bir necha voqealarni ko'rsatish mumkin.

Asardagi asosiy voqeani ochib berish uchun bir necha vositalardan ham foydalanish mumkin. Masalan, “Izolyatsiya” priyomidan asosiy tasvirni boshqa predmetlardan ajratib tasvirlashlar asosiy o‘lcham va rangni ajratib tasvirlash qo‘llaniladi.

Eng asosiysi kartinadagi syujetli kompozitsion markazda asarning asosiy mazmun va g‘oyasini berish muhim hisoblanadi.

Oltin kesim qoidalari sxemasi





Kompozitsiyada simmetriya va assimetriya

Turli davr rassomlari kartinani simmetrik qurish uslubidan foydalanganlar. Qadimgi mozaikalar kompozitsiyasi simmetrik qilib qurilgan. Uygʻonish davri rangtasvirchilari ham oʻz kompozitsiyalarini simmetriya qonuni asosida qurishgan. Bunday qurish tinchlik, ulugʻvorlik, turgʻunlik, tantanavorlik taassurotini berishda yordam beradi. Simmetrik kompozitsiyada odamlar va predmetlar kartinaning markaziy oʻqiga nisbatan bir-biriga yonma-yon qoʻyib joylashtiriladi.

Sanʼatdagi simmetriya hayotdagi simmetrik shakllarni koʻrsatuvchi real voqealikka asoslanadi. Masalan, inson qomati, kapalak, qor shakli simmetrik qurilgan. Simmetrik kompozitsiyalar statik (turgʻun) boʻlib, chap va oʻng tomonlar bir hil ogʻirlikda boʻladi.


Assimmetrik kompozitsiyada esa obʼektlar asarning syujeti va mavzusiga qarab turli - tuman boʻlishi va chap va oʻng tomonlari esa muvozanatda boʻlmaydi.

SIMMETRIYA



ASIMMETRIYA





Kompozitsiyada muvozanatni berish

Simmetrik kompozitsiyaning barcha qismlari bir hil muvozanatda, assimmetrik kompozitsiya muvozanatda va muvozanatsiz bo'lishi mumkin.


Kompozitsiyadagi katta yorqin dog', kichik to'q rangli dog' bilan muvozanatda bo'ladi. Kompozitsiyada muvozanat og'irligi, tusi va rangiga ko'ra beriladi. Muvozanat figuralarning o'ziga va ular orasidagi masofalarga ham tegishli bo'ladi. Muvozanat dinamik va statik bo'ladi.

Maxsus mashqlar kompozitsiyadagi muvozanatni sezish hissini rivojlantiradi. Katta va kichik o'lchamlarni, yorqinlik va to'qlikni, turli-tuman siluetlar va rang dog'larini muvozanatga keltirishni o'rganish juda muhim. Shu yerda halinchak uchganda muvozanatni topish tajribasini eslash juda foydali bo'ladi. Unda halinchakni bir tomoniga kattaroq bolani o'tirg'izib, narigi tomoniga ikkita kichkina bolani qo'yib muvozanatni saqlash mumkin. Kompozitsiyadagi og'irlik bilan ham xuddi shunday eksperiment o'tkazish mumkin.

Bunday tenglashtirish kartinaning turli qismlarini o'lchamlari, toni va rangiga ko'ra muvozanatga keltirishga yordam beradi. Bu esa kompozitsiyada muvozanat va uyg'unlikka erishishga yordam beradi.

Assimmetrik kompozitsiyada fikriy-hayoliy markaz kartinaning chekkasiga yaqin bo'lsa muvozanat umuman bo'lmaydi. Agar kartinaning oynadagi aksiga qarasak taassurotimiz umuman o'zgarib ketadi. Bu xususiyatni kompozitsiyada muvozanatni izlash jarayonida e'tiborga olish lozim.


Kompozitsiyadagi qonunlar, qoidalar va vositalar rassomlarning ko'p asrlik boy ijodiy tajribasiga asoslangan, lekin kompozitsiya texnikasi bir joyda to'htab qolmay keyingi rassomlarning ijodiy adabiyoti bilan muntazam rivojlanib bormoqda. Kompozitsiyaning qandaydir qonun va qoidalari klassika darajasiga ko'tarilgan bo'lishi mumkin, lekin yangidan-yangi qoidalar ham paydo bo'ladi, lekin hayot san'at oldiga yangidan-yangi vazifalar qo'yimoqda.




STATIK MUVOZANAT



DINAMIK MUVOZANAT





53-rasm. N.N.Baskakov "Karusel"

NATYURMORT KOMPOZITSIYASI

Naturadan realistik tasvirlash atrofimizdagi voqea-hodisalar yoki narsalarning shakl va bo'yoqlarini haqqoniy tasvirlash malakasini o'z ichiga oladi. Naturani haqqoniy tasvirlash - bu narsalarni konstruktiv va perspektiva qonunlari asosida qurish, ularning fazoviy joylashuvi, materialligi, hajm va nisbatlarni ifodalas qalamtasvir yoki etyudni yaxlit bir butunlikka keltirish, tasvirlanayotgan obyektlar va narsalarni xarakterli xususiyatlari va nafis go'zalligini aniqlashdir.

Realistik tasvirlash savodini dastlabki ta'lim bosqichlarida o'quv natyurmortlari bajarish orqali o'zlashtirish mumkin. Darxaqiqat savodli tasvirlash asoslarini o'rganishda natyurmort qimmatli tasviriy obyekt bo'lib hisoblanadi.

Natyurmortni rangtasvirning kamerli musiqasi deb atashadi. Unda mahoratli bo'yoq surtmasi kolorit monandligi va shakl plastikasini kuzatish mumkin. Ular orqali rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini tez va qulay o'zlashtirish mumkin. Ya'ni, perspektiv va konstruktiv qurilish shaklning soya-yorug'ligi va rangda tasvirlanishi tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy uzoqlashishdagi holati va materialligi, tus va rang munosabatlari, manzara va interer, inson kallasi va qomatini tasvirlashdagi birlik va uyg'unlik hisoblanadi. Pedagog rassomlar o'quv jarayonida natyurmortni muhim ekanligini ta'kidlab: «Natyurmort – shunday zaminki unda badiiy maktab mustahkam joylashgan bo'lishi kerak» - deydi.

Natyurmortni xona ichida, ochiq havoda soyada va quyoshda tabiiy va sun'iy yorug'likda tasvirlash lozim. Bu esa o'z navbatida o'quv va ijodiy vazifalarni samarali amalga oshirishga puxta zamin yaratadi.

Natyurmortni amaliy tasvirlashning dastlabki bosqichida biroz soddaroq so'ngra esa narsa va buyumlarning bir guruhini tasvirlash kerak. Narsalarning bir guruh yig'ilganini tasvirlash uchun natyurmort kompozitsiyasini to'g'ri tashkil etish muhimdir. U ikki jihat asosida tuziladi: natura qo'yilmasini tashkiliy qismi (narsalarni tanlay bilish va ularni kompozitsion chiroyli joylashtirish) naturaga nisbatan ko'rish nuqtasini aniqlash va qog'oz yuzasida qo'yilmani tasvirlash.

O'quv natyurmort qo'yilmasini tuzishda quyidagi qonun-qoidalarga rioya qilish kerak;

Har bir o‘quv natyurmortning mazmuni rangtasvir dasturida ko‘rsatilganidek aniq maqsad va vazifaga ega bo‘lishi kerak. Talabalar natura qo‘yilmasini tasvirlash jarayonida aynan qanday nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlarini tasavvur eta olishimiz kerak. O‘quv vazifalardan tashqari, natyurmort estetik talablarga ham javob berishi kerak: buyum va narsalar aynan mavzuga oid bo‘lishi, mazmun jihatdan ma’noli va ta’sirchan bo‘lishi va ma’lum g‘oyani ilgari surishi kerak.

O‘quv natyurmorti ijodiy natyurmortdan vazifasi bilan farqlanadi: o‘quv vazifa muvaffaqiyatli yechim topishi uchun narsalar saralanadi, guruhlashtiriladi va shunday yoritiladiki, qo‘yilma natijali yakunlanadi. O‘quv natyurmortida bir oz bo‘lsada shartli olinishiga imkon yaratiladi.



Natyurmort kompozitsiyasi ustida odatda narsalardan natura qo‘yilmasini tuzmasdan ilgari fikrlar yurgiziladi. O‘quv yoki ijodiy vazifalar asosida rassom ongida bo‘lajak natura qo‘yil-masining xomaki obrazi haqida tasavvur hosil bo‘ladi. Masalan, N. Mashkov, «Nonlar» natyurmortini tasvirlash uchun navvoyga non mahsulotlarini tayyorlab berishga buyurtma bergan.



54-rasm.N. Mashkov, «Nonlar»

Natyurmortni tuzish mobaynida shakli mayda naqshlar bilan bezatilgan konstruksiyasi murakkab narsalardan yiroqda bo'lgan ma'qul. Murakkab buyumlarga burmali gazlamani kiritish mumkin. natyurmort qo'yilmasi haddan tashqari murakkab shaklli va rang jihatdan rang-barang bo'lishi qo'yilmadagi rang munosabatlar mohiyatini tushunishga qiyinchilik tug'diradi.

Natyurmort qo'yilmasini ufq chizig'iga nisbatan pastda joylashgani ma'qul chunki buyum va narsalarning ostki qismi (ularning asosi) stol ustida aniq ko'rinib turishi kerak. Agar narsalarning asosi bir chiziq bo'yicha qo'yilsa, stol yuzining gorizont tekisligi ko'rinmay qoladi, bu esa natyurmortni fazoviy yechimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Natyurmort tuzish vaqtida narsalarni balandligi, ularning surat tekisligida joylashuvi, rang bilan shaklini ham hisobga olish kerak. Narsalar guruhi bir tomonga yig'ilib qolishi noto'g'ri. Yirik buyumlar qisman bo'lsada boshqa buyum bilan biroz to'silgan bo'lishi mumkin. Qo'yilmadagi narsalar shunday joylashishi kerakki, ularni bir qarashda har-birini yaqqol ko'rish mumkin bo'lsin.

Natura qo'yilmasidagi narsalarning ranglari ma'lum darajada bir-biriga yaqin va monand bo'lishi kerak.

O'quv qo'yilmalardagi fon (zamin) muhim ahamiyatga ega. U turli rang va och to'qligi bo'yicha, barobar kontrast kuchi bilan narsalarni idrok etishga sezilarli tasir ko'rsatadi. Narsalarning yarimsoya va soyali tomonlari och fonda sezilarli ko'rinib turadi. Qoramtir fonda narsalar o'zining yorug'lik sifatlarini ko'proq namoyish etaoladi. Fonning tusi och va to'q narsalar orasida o'rtacha bo'lishi, rang jihatdan silliq va ko'zga yaqqol ko'rinmasligi naturaning muvaffaqiyatli tasvirlanishiga yordam beradi. Masalan, to'q qizil narsalarda fon neytral qizil tanlanadi, agarda narsalar to'yingan och yashil bo'lsa, fon kam to'yingan to'q yashil bo'lgani ma'qul. Iloji boricha, natyurmortning foni bilan tagligi (stolning gorizonta tekisligi) tabiiy bo'lishi kerak. Xonaning devori, interer kengligi, yog'och uyning tashqi devorlari yoki uzoqdagi manzara kengligi ham fon o'rnida qo'llanilishi mumkin. Nima bo'lganda ham u natura qo'yilmasida hayotiy haqiqatni aks ettira olishi kerak.

O'quv natyurmortning kompozitsiyasi turlicha yechimga egadir. Biroq badiiy pedagogika va realistik sanat tabiat bilan bayon etilgan asosiy talablar o'zgarmay qolmoqda: aniqlik, badiiy ifodalilik, o'quv metodik vazifalarning mavjudligi.

Ijodiy natyurmort tuzish uchun hayotiy voqealarga tayanish kerak. Bunday holda chiroyli va qiziqarli kompozitsiya tuzishda narsalar guruhini kundalik turmushda qo'llaniladigan narsa va buyumlardan olish maqsadga muvofiq. Rangtasvirning asosiy vazifasi shundan iboratki, buyum va narsalarning hajmliligi, materiallik va rangdorlik sifatlarini natura qo'yilmasidek aniq tasvirlash hamda qo'yilmani yaxlit tusda yakunlash maqsadga muvofiqdir.

Rangtasvir mukammal qalamtasvirga asoslanadi. Shuning uchun rangtasvir jarayoniga o'tishdan oldin natyurmortning qalamtasvir kompozitsiyasini surat tekisligida tasvirlash xususiyatlariga qisqacha to'htalib o'tamiz. Tasvirlovchi narsalar to'plamiga (natyurmort) ma'lum bir ko'rish nuqtasidan qaraydi va u ko'z qarashiga qat'iy ravishda kuzatish perspektivasi qonuniyatining o'zaro bog'liqligi bilan namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, naturadagi narsalar o'zaro yoritilganligi va bir-biriga bog'langan bo'lib, ular oralig'ida reflekslar, yarimsoyalar, soyalar va yorug'liklar taqsimoti ma'lum bir tartibda bo'ladi. Mabodo ko'rish nuqtasi o'zgartirilsa naturaning o'zaro joylashuvi va yoritilganligi yangi ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ko'rish nuqtasi

yorug'likka qarama-qarshi bo'lganda tasvirni siluet tarzida ko'rish mumkin. Natyurmortni tasvirlash jarayonida to'plamdagi barcha narsalar, ularning o'zaro joylashuvi, soya-yorug' va tus munosabatlarini obrazli ko'rinishiga buysundiriladi va idrok qilinadi. Natyurmort kompozitsiyasini shunday tuzish kerakki, uni qaysi nuqtadan kuzatganda ham u yaxlit bir butun ko'rinishiga erishmoq zarur. Bu ishning muvaffaqiyatli chiqishi rassomning shaxsiy badiiy didi va tajribasiga bog'liqdir. Naturaga nisbatan qiziqarli ko'rish nuqtasini tanlab olgach, qog'oz varog'i yoki mato qanday o'lchamda bo'lishligini aniqlash zarur. Qog'oz varog'ida ifodalanadigan natyurmort qo'yilmasini naturadan to'g'ri aniqlab tasvirley olish kerak.

Tajribasiz rassomlarning mato yoki qog'oz varog'i tekisligida tasvirlashlaridagi asosiy kamchilik shundan iboratki, ularda plastikali tasvirlash, izlanish jarayoni mukammal emas. Shuning uchun tasvirlash mobaynida aniq metodik ketma-ketlikka qat'iy rioya qilish, samarali natija garovidir.

Natyurmort kompozitsiyasini qurilishida dastlab qog'oz yuzasida tasvirlanayotgan narsalarni puxta joylashuvi, qog'oz o'lchamiga nisbatan tasvirning katta kichikligini aniqlashdan iborat. Har bir natura qo'yilmasi muayyan o'lchamdagi qog'ozni talab qiladi.

Tasvirlanayotgan narsalar ma'lum o'lcham tekisligida zich, yoxud juda ham kichik joylashib qolmasligi zarur. Haddan tashqari kichik joylashgan tasvirlar qog'oz tekisligida aniq ko'rinmaydi. Tasvirda asosiy e'tiborni o'ziga jalb etuvchi buyum – kompozitsiya markazini qolganlari esa unga tobe bo'lib hizmat qiladi.

Tasvirda tomoshabinning nazari ana shu markazga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'lchamni aniqlab olgach, asosiy ishni boshlashdan oldin kichik o'lchamdagi qog'oz bo'lagida bo'lajak natura qo'yilmasini xomaki variantlari tayyorlanadi, shundan so'ng, asosiy ishga o'tish maqsadga muvofiqdir.

Dastlab oddiy natura qo'yilmalaridan (gipsli geometrik shakllardan) keyin esa geometrik shakllarga yaqin bo'lgan maishiy buyumlardan tuzilgan natyurmortlarni astoydil ishlash so'ngra, turli rangdagi, materiallikdagi buyumlardan tuzilgan qo'yilmalarni (plener sharoitida va intererda joylashtirilgan natyurmortlar) tasvirlash mumkin.

Natyurmort qo'yilmasini tasvirlashda ishni alohida-alohida buyumlardan boshlab so'ngra boshqalariga o'tish aslo mumkin emas. Narsalar guruhini qog'ozga to'g'ri joylashtirishda nisbat, oraliq masofalar, fazoviy joylashuvda xatolikka yo'l qo'yimaslik muhimdir. Buning uchun narsalar to'plamini yengil chiziqlar bilan belgilab chiqish zarur. Tasvirlashda narsa va buyumlarning perspektiv qisqarishlarini puxta bajarish o'ta muhim.

Rangtasvir uchun dastlabki qalamtasvir ishlarini bajarayotganda yosh rassomlar narsa va buyumlarning tekislikdagi fazoviy joylashuvi, nisbatlari, hajmini, buyumlarning konstruktiv qurilish kabi vazifalarni to'liq bajarishmaydi. Ularning diqqat e'tibori narsalarni kontur chiziqlarini tasvirlashga qaratilgan bo'ladi. Ularning fikricha narsaning sirtqi ko'rinishi chizilsa, shakl ham to'g'ri tasvirlanadi deb hisoblaydilar. Buyumning tashqi ko'rinishini tasvirlayotib, uning konstruktiv qurilishi, nisbat kabi xususiyatlari nazardan qolib ketishi mumkin.

Narsalarning o'zaro joylashuvi, istagan qirrasini yo'nalishi naturada osongina aniqlanadi va naturaning yo'naltiruvchi va vertikal (tik), gorizontaal (yotiq) chiziqlari yordamida tasvir qog'ozda yengil quriladi. Uzun qalam yordamida qurilmaning perspektiv burchaklarini, qirra nisbatlarini, stol tekisligida o'zaro turgan joylarini tekshirish mumkin. Buning uchun qalamni cho'zilgan qo'lda vertikal, gorizontaal yoki burchak ostida ushlab qirralarni perspektiv yo'nalishini tekshirish mumkin.

Narsalarning nisbatlarini aniqlab, ularni perspektiva qonun-qoidalariga amal qilib qurish hamda yengil-yelpi soyalarni berish mumkin. Bu esa narsalarning nisbatlarini ham va ularning o'zaro joylashganligini ancha aniq yetkazishga imkon beradi. Stol tekisligidagi narsalar to'plamini joylashtirishda ularning asoslarini qurish juda ham muhim. Har bir narsaning joyini aniqlamasdan ular orasidagi kenglikni yetkazish mumkin emas. Ayrim narsalar havoda «muallaq» bo'lishi yoki biri ikkinchisiga «o'yib» kirgandek ko'rinishi mumkin.

Tasvirlash jarayonida alohida narsalarni va ularning qismlarini katta-kichikligini har doim bir-biriga taqqoslab borish zarur.

Moybo'yoqli rangtasvir uchun matoda ko'mir yordamida yorug' va soyalar bilan qalamtasvir ishini bajarish mumkin. Narsalarni hajmdor shakli yorug' soyalar bilan

qurilsa qalamtasvir aniq ko‘rinadi. Tayyor bo‘lgan tasvirni tashqi ko‘rinishlari tush bilan chizib chiqib, ko‘mirni esa latta bilan qoqib tashlanadi. Shunday qilinsa bo‘yash uchun zarur bo‘lgan natyurmortning aniq ko‘rinishi qoladi.

Rang bilan ishlash jarayonida shakllarning xarakteriga aniqlik kiritib borish zarur. Tasvirlash jarayonida ishni boshidan oxirigacha albatta metodik ketma-ketlikka rioya qilish muhimdir.

Natyurmort janrida ijod qilgan rassomlar ijodidan namunalar



55-rasm. Yuriy Kushevskiy. Sochiq bilan kompozitsiya.



56-rasm. Murodjon Djumashev. Natyurmort, akvarel.



57-rasm. Yusuf Yelizarov. Natyurmort. Moyboyoq.



58-rasm. Viktor Ufimtsev. Natyurmort. Moy bo'yoq. 1956 yil.



59-rasm. Zaxarov Sergey Efimovich. Natyurmort. Akvarel.



60-rasm. Zaxarov Sergey Efimovich. Natyurmort. Akvarel.



61-rasm. M. Maxmudov. Natyurmort.

MANZARA KOMPOZITSIYASINI ISHLASHDA QONUNIYATLARDAN FOYDALANISH

Manzara janrlari muhim ekanligini har qanday mavzu va mazmundagi asarlarning mavjudligi bilan ham izohlash mumkin. Chunki manzara har qanday tarixni, maishiy hamda natyurmort va portret asarlarining bir qismi, yani asosiy mavzuni ochib, to'ldirib turuvchi fon sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga u alohida ma'lum ma'noni tashuvchi, ko'rinishni barcha jihatlar bilan aks ettiruvchi mustaqil asar sifatida yaratilishi ham mumkin. Jahon tasviriy san'ati tarixiga murojaat etar ekanmiz yuqoridagi fikrlarga juda ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan: P. Rubens, N. Pussen, K. Koro, I. Repin, N. Yaroshenko, V. Surikov, P. Benkov, L. Abdullaev, A. Abdullaev, M. Nabiev, R. Axmedov, Z. Inog'omov, J. Umarbekov, A. Mirzaev, A. Ikromjonov, M. Nuriddinov, Z. Faxruddinov asarlarida manzara mavzuli kompozitsiyaning yordamchi qismi sifatida aks etgan. N. Krimov, I. Levitan, F. Vasilev, I. Shishkin, U. Tansiqboev, N. Karaxan, G. Abduraxmonov, N. Qo'ziboev, A. Mo'minov, I. Xaydarov, A. Yunusov, A. Jamolov, M. Toshmurodov va boshqalar manzarani mustaqil badiiy mukammal asar sifatida yaratganlar.

Ma'lumki manzara asarlarining o'zi mazmun va mavzu jihatidan bir necha turga bo'linadi. Ular - shahar ko'rinishini ifodalovchi, sanoat, tarixiy, romantik, lirik, epik, dengizni aks ettiruvchi va panoramali manzaralardir. Manzara asarlari mavzu va mazmun jihatidan rang-barang bo'lsada, ularning barchasiga taluqli umumiy qonuniyatlari ham mavjudki, bunday xususiyatlar kompozitsiya qurilishi asoslari, mutanosiblik, fazo va chiziqli perspektiva qoidalari, rang va tus borasida olib boriladigan jarayonda namoyon bo'ladi. Chunki manzara asari boshqa bir manzara asaridan mazmun va mavzu, voqeabandlik yuzasidan tubdan farq qilsada, mahorat darajasi tasviriy vositalarning qo'llanishi bo'yicha mushtaraklik kasb etishi mumkin. Masalan, shahar manzarasini tasvirlovchi rassom bilan tog'lar va kengliklarni tasvirlovchi rassom aks ettirgan tasvir ob'ektlari turlicha bo'lsada, ularning o'z ishlarini amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan tasviriy vosita, uslubiy yo'nalish bir-biriga o'xshash bo'lishi mumkin. Ya'ni har bir asarda manzaraning va umuman rangtasvir kompozitsiyasining asoslari: mavzu, voqeabandlik, obrazlar, ko'rish nuqtasi, ko'rish

darajasi, fazoviy planlar, perspektiva, ritm, kalorit, nur, shu'la, kompozitsiya markazi mavjud bo'lishi kerak. qalamchizgi, rangtasvir bazida kompozitsiya asoslaridan etarli darajada xabardor bo'lmagan, o'zining mahoratini natyurmortlar va qoralama lavhalar chizib oshirib bormagan ijodkor yaxshi manzara namunasini yarata olmaydi. Shuning uchun u manzara chizishda kerak bo'ladigan nazariy hamda amaliy vazifalarni bilishi va bajarishi lozim. Manzara asari yaratish ishtiyoqida bo'lganlar uchun ikkinchi darajali narsaning o'zi bo'lishi mumkin emas. Tasvirning barcha unsurlari o'z mohiyati bo'yicha muhimdir.

Manzara yaratish mavzu tanlash va u haqda mulohaza, mushohada yuritishdan boshlanadi. So'ng tanlab olingan tasvir obyektlaridan qarab qalamchizgilar, ranglavhalar, qoralamalar ishlanadi.

Manzara ranglavhasi ustida ishlash jarayonida "Manzara chizish tasviriy san'atning eng oson janri, unda buyumlar aniq o'xshatib tasvirlanmasa ham, ko'rinishni xohlaganicha o'zgartirib ishlasa ham bo'ladi", degan va shu kabi ba'zi havaskor rassomlar o'rtasida uchrab turuvchi xato, noto'g'ri fikrlardan iloji boricha yiroq bo'lish kerak. Chunki asar yaratishda oson mavzu, qiyin mavzu, oson janr, murakkab janr degan tushunchalarning bo'lishi aslo haqiqatga to'g'ri kelmaydi. har qanday asar unga halol, vijdonan mexnatsevarlik bilan yondoshilsa, muvaffaqiyatli chiqadi.

Asosiy ishga tayyorgarlik maqsadga mos keladigan joy tanlashdan boshlanadi. Masalan, shahar mavzusidagi manzara ranglavhasini yaratish haqida to'xtalib o'taylik. Avval mavzuni aniqlashtirib olinadi. Ya'ni eski, ko'xna, tarixiy voqealar guvohi bo'lgan me'moriy obidalar, inshoatlar aks etgan rangtasvir yaratmoqchimisiz, yoki yangi zamon belgilari yorqin aks etgan, fan texnika yangiliklar natijasida bunyod etilgan osmono'par binolar ko'rinishi ishtirokidagi manzarani tasvirlamoqchimisiz aniq fikrlab, rejalashtirib olingach, tasvirlash obyekti tanlanadi. Tasvirlash joyi uchun kompozitsiyaga mos vertikal yoki gorizontaal shakldagi xolst tanlanadi.

Borliqdagi barcha narsalar inson ko'zidan uzoqlashib borgan sari kichkinalashib ko'rinadi. Shunga muvofiq har bir tasviriy san'at asarida chiziqli hamda fazoviy perspektiva o'z aksini topishi zarur. Uning qonunlarini bilmay turib, birorta ham manzaraning ko'rinishini xatosiz tasvirlab bo'lmaydi. Manzara ishlashdan avval chiziqli

perspektivaning asosiy qonunlarini diqqat bilan o'rganish lozim. Shuningdek tabiat ko'rishini ishlash davomida fazoviy perspektiva hodisasiga ham jiddiy e'tibor berilishi kerak.

Rangtasvirning chiziqli perspektiva talabiga muvofiq to'g'ri tasvirlanishi ufq chizig'ining qanday joylashishiga ham bog'liq. Shuning uchun uni doim to'g'ri aniqlab olish kerak. Manzarada ufq chizig'i yuqorida ham, pastda ham bo'lishi mumkin. Ba'zilar ufq chizig'i yuqorida bo'lgan manzara ko'rishini ma'qul ko'rsalar, boshqalar aksincha, ufq chizig'i pastda bo'lganini ko'proq afzal biladilar.

Tabiatda ham rassom tomonidan ishlanayotgan rangtasvir satxida ham odatda osmon ko'p joyni egallaydi. Shuning uchun uni diqqat bilan o'xshatib tasvirlash kerak. Kunduzi quyoshning yorug'ida uning rangi yuqorida to'qroq, ufqqa yaqinlashgan sari ocharib ko'rinadi. Ufqning shunday tepasida esa osmon tumansimon bo'lib tuyuladi. Ko'pchilik hollarda osmon tabiatan eng yorug' joy qisoblanadi, Albatta, shunday paytlar ham bo'ladiki, unda ochiq rangli narsalar quyoshning. o'tkir nurlari ostida osmondan ham yorug' bo'lib ko'rinadi. Ular binolarning devorlari, qor, oq gullar, odamlarning rangdor kiyimlari bo'lishi mumkin.

O'rganayotgan havaskor rassom, talabalarning ishlagan ranglavha mashqlarida ko'pincha daraxtlar bir-biriga juda o'xshash bo'lib qoladi. Bunday hol talaba ularni e'tiborsizlik bilan kuzatishi natijasida ro'y beradi. U kuzatuvchanlikka odatlangandan so'ng hatto bir turga mansub daraxtlar ham har xil bo'lishini, ayniqsa boshqa-boshqa turdagi daraxtlar o'zining tuzilishi-shoxlarining joylashishi, novdalari hamda barglarining quyuq yoki siyrakligi, rangi, shakli, po'stlog'ining o'ziga xosligi va o'ziga monand belgilari bilan ajralib turishini yaxshi bilib oladi. Shunda u tasvir etgan ranglavhadagi daraxtlar: tolmi, terakmi, qayrag'ochmi, archami yoki tutmi ekanligi bir qarashdayoq ma'lum bo'lib turadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki ranglavha, qoralama-qalamchizg'i va katta hajmdagi bevosita tabiatdan qarab yaratilgan rangtasvir bilan manzara kompozitsiyasi o'rtasida katta farq bor. Chunki tugallangan bekamu-ko'st asar yaratishgacha bosib o'tiladigan ijodiy yo'l mashaqqatli bo'lib, musavvirdan chidam va yuksak mahorat talab etadi. Yuqorida birma-bir aytib o'tilgan jihatlarning asosiysi va ikkilamchi darajalisi

bo'lishi mumkin emas. Odamlar tuyg'usiga ijobiy ta'sir etib, ichki kechinma va mulohazalar tug'dira oladigan keng qamrovli, ma'lum ko'rinishga xos bo'lgan belgilar majmuasini o'zida mujassamlashtirgan, obraz darajasiga ko'tarilgan haqiqiy asarga tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ladi.



62-rasm. M.maxmudov. „Quyoshli kun”



63-rasm. M.maxmudov. „Xumsonda kuz”



64-rasm. M.maxmudov. „So'qmoq”
65-rasm. M.maxmudov. „G'ilon”


MASHHUR RASSOMLAR IJODIDA KOMPOZITSIYA MASALALARI

Kompozitsiya masalalari haqida gapirar ekanmiz, albatta bu borada samarali ijod qilgan yetuk musavvirlar asarlariga murojaat qilamiz. Bunday musavvirlar hoh manzara, hoh boshqa janrda asar yaratmasin ularning ijodida kompozitsion yechim nechogʻliq toʻgʻri topilganligining guvohi boʻlamiz. Shunday mashhur rassomlardan biri-xalq rassomi Oʻrol Tansiqboyevning baʼzi asarlarida kompozitsiya masalalari qanday hal qilinganligini koʻrib chiqamiz.

XX asrning 50 yillarida oʻzbek manzara janrida Oʻrol Tansiqboyev karvonboshi boʻldi. Qishloq xoʻjaligi mavzusiga oid asarlar yarata boshladi. 1950 yilda «Oʻzbekistonda bahor», «Paxtani sugʻorish» asarini yaratdi. Tongda esayotgan mayin shabada va shildirab oqayotgan suv, salqin tabiatning uygʻonishi tomoshabinda quvonchli hissiyotni uygʻotuvchi taʼsirchan vositadir. Xayotning obyektiv qonunlari va inqilobiy rivojlanishining epik holatda yuzaga kelishi «Ona oʻlka» asarida (1951) oʻz aksini topdi. Kompozitsiya yechimini -diorama usulida yechish, rassom ijodining xarakterli nuqtalaridan boʻlib qoldi. Ayniqsa holat choʻlni ochishga bagʻishlangan «Taxyatosh» va «Issiq koʻl» nomli asarlarida namoyon boʻladi. Manzara kompozitsiyasini panorama usulida tasvirlash rassomga xos xususiyatlardan biridir. «Qayroqqum GES tongi» (1957 y) eng yaxshi industrial manzara asarlaridan biri deb tan olingan. (1958). Asar 1957 yili Moskvada sobiq ittifoq koʻrgazmasida va Bryuseldagi koʻrgazmada namoyish etilib kumush medal bilan takdirlangan. Hozir u Moskvadagi Sharq xalqlari Davlat sanʼat muzeyida saqlanmoqda.



66-rasm. O'. Tansiqboyev. "Yangi angren"



67-rasm. O'. Tansiqboyev. "Kolxoz manzarasi"

Qarshimizda katta keng gidroelektrostansiyaning qurilish panoramasi, biryuza rangli «Qayroqqum» dengizi, kompozitsiya markazida esa gidrostansiya qurilishi tasvirlangan. Tepalikdagi buldozer, to'g'on ustidagi kranlar, oldingi plandagi qumli do'ngliklar, to'g'on orqasidagi cho'l manzarasi, cho'lda hosil bo'layotgan mo'jizani eslatadi. Eng asosiysi manzara asarida qayroqqumda haqiqatni poetik talqin etish mahorat bilan ko'rsatib berilgan. Yorqin dekorativ iliq, sovuq tuzlardagi kontrast pushti,

tilla, ko'kbiryuza ranglarda go'zal tabiatning bepoyon kengligidagi qaynoq xayot o'z aksini topgan. Dengiz satxidagi quyosh nurlarida yarqirab turgan o'ynoqi bliklar rassom tomonidan juda katta mahorat bilan tasvirlab berilgan.



68-rasm. O'. Tansiqboyev. «Qayroqqum GES tongi»

Kompozitsiya masalari haqida gapirganda mashhur rus rassomi I. K. Ayvazovskiy yaratgan rangtasvir asarlarini ham chetlab o'tish qiyin. XIX asrda yashab o'tgan bu rassom asosan daengiz manzaralari bilan bog'liq shunday ajoyib kompozitsiyalar yaratdiki, ularni ko'rgan tasviriy san'at ixlosmandi bu ijodkor mahoratiga so'zsiz tan beradi. Buning boisi nimada? Mana misol uchun uning "To'qqizinchi to'lqin" karetnasini ko'rib chiqaylik. Cheksiz dengizda birdaniga boshlangan to'fon kemani halokatga keltirgan. Shiddatli to'lqinlar orasida jon saqlash uchun intilayotgan kishilar bu bo'ron bilan kurashmoqda.



69-rasm. I. K. Ayvazovskiy. «To 'qqizinchi to' lqin»



70-rasm. I. K. Ayvazovskiy. «To 'qqizinchi to' lqin» fragment

Ularning talvasali harakatlari va ovozlari qudratli to' lqinlar orasida ilojsiz va ojizdek ko' rinadi. Rassom bu kartinasida inson va tabiat o' rtasidagi munosabatlarning

bir ko‘rinishi misolida tabiatning qudratli kuchini, inson zotining har doim u bilan hisoblashishi kerakligini ko‘rsatadi go‘yo. Eng asosiysi inson hayotning naqadar qimmatligi, har qanday vaziyatda ham yashashga bo‘lgan intilish hech qachon so‘nmasligini ajoyib bo‘yoqlarda ko‘rsatadi. Rassomning mahorati shundaki, u o‘z oldiga juda murakkab bo‘lgan kompozitsiya yaratishni maqsad qilib qo‘ygan va uning uddasidan chiqq olgan. Asar tuzilishiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, dovuldan chayqalayotgan dengiz to‘lqinlari orasida ko‘rinayotgan kema uzoqroqda, ya‘ni xiraroq ranglarda tasvirlanib, qayiq va sollarda omon qolishga intilayotgan dengizchilar esa yaqinroq planlarda tasvirlangan. Mahobatli to‘lqinlar quyosh nurlarida xilma-xil tovlanib, uning zarralari yaltirab ko‘rinadi. Buyuk rassom ana shu murakkab ranglar jamlanmalarini shu qadar ustalik bilan topganki, undagi ranglar koloriti, ularning yorqin jilosi kishini beixtiyor o‘ziga maftun qiladi.

Maishiy janrdagi tematik kartinani yaratish mazmun va goyani ochib beruvchi voqea bilan bog‘liq va voqeaning eng xususiyatli, qiziqarli nuqtasini tasvirlashni talab etadi. Inson yashab turgan muhitda sodir bo‘layotgan voqealarni ifodalovchi bu janr qadim zamonlarda paydo bo‘lgan. Utgan asrning demokratik rassomlari xalq hayotini astoydil haqqoniy, tasvirlab berganlar. Bunga I. Repinning «Yangi kuyovni kuzatish», Y. Makovskiyning «Xiyobonda», V. Perovinning «Uchovlon» va boshqa suratlari o‘ziga xos misol bo‘la oladi. Yoshlarning kundalik hayoti, mehnati, o‘qishi tasviriy san‘at maishiy janrning bir qator asarlarida o‘z aksini topdi. V. Laktionovning «Frontdan xat» F. Reshetnikovning «Yana ikkimi», «Ta‘tilga keldi» asarlarida Vatanga muhabbat, maktab hayoti bilan bog‘lik g‘oyalar tasvirlangan. Maishiy janrda ham kompozitsiyaning talablari mavjud. Mazmun va g‘oyani kompozitsiyaning ma‘lum vositalarida ochib berish: ko‘rish nuqtasi, ufq, fazoviy uzoqlashish, shuningdek, kompozitsiya markazi, asosiy va ikkinchi darajali predmetlar yorug‘ligi, tus, rang, kolorit munosabatlari rioya qilishdan iborat. Perspektiva qonunlari, muvozanat, simmetriya, dinamika vazifalaridan to‘g‘ri foydalana bilish kerak. Kompozitsiya tuzilishi xona chekkasi (interyer) yoki ochiq havoda bo‘lsa-da, asosiy o‘rinni odam qiyofasining tasviri egallaydi. Rassomning hayotni kuzatishi natijasida bo‘lgan mavzuga oid ko‘plab bajarilgan xomaki chizgi, etyud, eskizlar kompozitsiya tuzilishiga asos bo‘ladi. Ikki, uch

figurali kompozitsiya tuzish uchun uyda yoki ishxonada odamlarning mehnat qilish yoki dam olish jarayonini tasvirlash uchun uning kasbi, xarakterini, hayotdagi voqeaning qiziqarli holatini o'rganish lozim. Naturadan bajarish bilan bir qatorda xayoldan va tasavvur qilib ishlashni, mashq qilishni odatga aylantirish kerak.

RANG VA KOMPOZITSIYA MASALASIDA RASSOMLAR FIKRLARI

N. Krimov: “Har kimning rang nima ekanligi haqida o'z fikri bor. Ehtimol, mening fikrim siznikiga mos kelmasligi mumkin. Rang, ohang va hokazo tushunchalari nimani anglatishini kelishib olaylik.

Men rangli bo'yoq deb atayman. Agar men akvarel bo'yog'ining naychasini olsam, aytaylik, pushti bo'yoqni suvga suyuq tarzda suyultirib, cho'tka bilan nuqta qo'ying, shunda u pushti bo'ladi, bo'yoqni quyugroq qo'yanimda, kamroq suv olib, quyugroq pushti bo'ladi. Men bo'yoqni yanada qalinroq olib, qog'ozga qo'yaman, u yanada quyugroq bo'ladi. Nihoyat, men uni butun kuchim bilan qo'yaman, uni qalin va deyarli suv bilan suyultirmasdan ishqalayman, shunda qog'ozdagi dog' bo'yoqning kuchiga teng bo'ladi. Iltimos, ayting-chi, qog'ozdagi bo'yoqlar bir xilmi yoki boshqachami? Bitta rang, bitta bo'yoq va bular bitta bo'yoqning soyalari. Biri qorong'u, ikkinchisi yorug', uchinchisi undan ham engilroq. Bu bir xil rangdagi ohanglar deb ataladi. Biz bir xil bo'yoqning soyalari bir-biridan intensivligi yoki yorqinligi bilan farq qilganda, ohangdagi farq haqida gapiramiz.

Rassom uchun nimani ko'rish muhimroq: ohangmi yoki rangmi?

Qaysi biri osonroq? Rangni ko'rish osonroq. Faqat rassomlik qobiliyatiga ega bo'lgan odamning ko'zi ohanglardagi farqni qanday ko'rishni biladi, ya'ni bunday odam rassom bo'lish uchun ko'proq ma'lumotlarga ega. Eng muhimi - ohang. Kim rasmni ohangda chizsa va uni har xil rang-barang soylar bilan umumiy ohangni saqlay bilgan holda sadoqat bilan yetkazsa, rassom deyiladi. Kim ohangni yomon ko'rsa va ohang munosabatlarini tushunmasa, u rassom emas”.

L. A. Alberti: “Ranglar yorug‘lik ta’sirida o‘zgarib turishi menga ravshan ko‘rinadi, chunki soyaga qo‘yilgan har bir rang yorug‘likda qanday bo‘lsa, shunday bo‘lmaydi. Soya rangni quyuq qiladi, yorug‘lik, u tushgan joyda, uni engil qiladi “.

Savrasov: “Havosiz manzara yo‘q, siz qancha qayin yoki archa eksangiz ham, nima deb o‘ylaysiz, havoni yozmasangiz, u holda manzara axlatdir”.

Rubens: “O‘z soyalaringizni yengil yozishni boshlang, ularga hatto arzimasi miqdordagi oq rangni ham kiritmang: oq rang - rasm zahri va uni faqat diqqatga sazovor joylarga kiritish mumkin”.

Rubens: “Oq rang sizning soyalaringizning shaffofligini, oltin ohangini va issiqligini buzganligi sababli - sizning rasmingiz endi engil bo‘lmaydi, lekin u og‘ir va kulrang bo‘ladi”.

Leonardo da Vinchi: “Soyali o‘simliklar hech qachon qora bo‘lmaydi, chunki yorug‘lik kirgan joyda qorong‘ilik bo‘lishi mumkin emas”.

B. Ioganson: “Rassomlikning butun siri soyalar va yarim tonlarda (yarim tonlarda). Soya va yarim soyalar - bu akvarium rangtasvir, ulardan oltin va kumush baliq yorug‘lik chiqadi”.

E. Delakrua: “Aslida, soyalar umuman yo‘q, faqat aks ettirish bor.”

N. Krimov: “Kulrang kundagi o‘t quyoshli kunda soyali joyda o‘t kabi yashil bo‘ladi, quyoshli kunda mo‘ridagi tomdagi soya xuddi shu tomdir, faqat quyosh bilan yoritilmaydi - xuddi bulutli kunda sodir bo‘lganidek. Va, albatta, barcha buyuk ustalar bu qonunni bilishgan”.

Sezan: “Tabiatdagi hamma narsa shar, konus, silindr shaklida shakllangan; siz bu oddiy shakllarda yozishni o‘rganishingiz kerak, agar siz ushbu shakllarni o‘zlashtirishni o‘rgansangiz, siz xohlagan narsani qilasiz”.

N Krimov: “Ular aytadilar: san‘at ilm emas, matematika emas, bu ijodkorlik, kayfiyat va san‘atda hech narsani tushuntirib bo‘lmaydi - shunchaki qarang va hayratda qoldiring. Menimcha, bunday emas. San‘at tushunarli va juda mantiqiy, bu haqda bilish zarur va muhim, bu matematika”

Leonardo da Vinchi: Shamol ta'sirida hosil bo'lgan to'lqinlar xuddi dengizda ham, ko'llarda ham ko'rinib turganidek katta o'rmonlarda, dalalarda va o'tloqlarda ko'rish mumkin

Jon Konstabl: Osmoni kompozitsiyaning eng muhim qismlaridan biri bo'lmagan peyzaj rassomi o'zining eng yaxshi yordamchisini e'tiborsiz qoldiradi. Tabiatda osmon yorug'lik manbai bo'lib, u hamma narsada hukmronlik qiladi. Osmon asosiy nota bo'lmagan va butun rasmning kayfiyatini ifoda etmaydigan landshaft turini nomlash qiyin.

Osmon ham kompozitsion, ham ijrosi jihatidan juda qiyin vazifa. Uning barcha yorqinligi uchun u oldinga chiqmasligi kerak, faqat cheksiz masofa g'oyasini uyg'otishi kerak. Bu, albatta, har doim alohida e'tiborni tortadigan noyob tabiiy hodisalar yoki tasodifiy yorug'lik effektlariga taalluqli emas.

E. Delakrua: Har qanday narsadan erga tushadigan soya har doim binafsha rangda bo'ladi va refleks yashil rangda bo'ladi.

Oq pardalarda: soyalar - binafsha, reflekslar - yashil.

Dengizda: to'lqinlarning tushayotgan soyalari - binafsha rang, reflekslar – yashil.

F. Angel. Tez va mahorat bilan kompozitsiyani joylashtirish zarur. Kompozitsiyani to'g'ri joylashtirgan rassom har qanday murakkab vazifani osonlik bilan hal etadi. Bir maqsad sari yo naltirilgan ong, minglab turli jihatlarni yengil ochish imkoniyatiga ega. Agar bu yengillik haqqoniyat bilan muvofiqlashib ketsa, ular qondosh bo'lib qoladi, bu esa san'atga nazokat baxshida etadi, ko'plab so'zlar tizmasidan ham chiroyliroq ifodalab beradi. Bu sifat rassom uchun shuning uchun ham kerakki, u o'z asarida ifodalayotgan voqelikni barcha ishqibozlar uchun tushunarli qilib ifodalay olsin.

E. Delakrua. Haqiqiy rassom o'z fikr-o'ylarini ifodalagan chiziqlardan oq uning asaralarini boshqalardan ajratib turadigan jihatlar paydo bo'ladi. Rafael, Rembrandt, Pussen-men bu nomlarni bekorga keltirayotganim yo'q, negaki aynan o'shalar tafakkur qudrati bilan ajralib turadi. Ular qog'ozga tushirgan bir necha chiziqning asarlariga e'tibor qaratilsa, hamma joyida hayot bor.

Ammo shunday mahoratli rassomlar borki, ular dastlab yarq etib paydo bo'lgan fikrga to'la va tuban e'tiborni qaratmaydilar, ular uchun tomoshabinning tafakkuriga

ta'sir etuvchi tasviriy vosita zarur bo'ladi. Umumiy qoida sifatida ular ko'p narsani tabiatdan oladilar. Model ularga ishonchliroq ishlash uchun zarur bo'ladi. Ularning takomilga eltuvchi yo'li boshqacha.

Darhaqiqat, agar siz Titsian, Murilo yoki Van Deykni jonli tabiatga ergashishdek ne'matdan mahrum qilsangiz, ularning butun mahoratini tortib olgan bo'lasiz, tanlangan syujetda yoki uni ishlashda ko'pincha qiziqishdan mahrum bo'lgan ohangni uchratasiz, ammo rangning maftunkorligi va mo'yqalam sehri tufayli u yashirin ravishda yuqori san'at cho'qqilariga ko'tariladi.

K. F. Yuon. Katta hajmdagi asarlarning keng kompozitsiyalari, ularning ayrim lavhalari ham o'rganilishi lozim. Kompozitsiyaning bir planli, ikki planli va ko'p planli, ilmiy perspektivali va shartli perspektivali, shuningdek erkin perspektivasiz kabi barcha tur va ko'rinishlari har bir holatda badiiy maqsadlarga erishtiruvchi o'ziga xos usullarning butun bir turkumini in'om etadi. Bezakli va haqqoniy jihatlar, ruhiy holatlar, imo va ishoralar, harakat va holatlar, qahramonlarni guruhlashtirish va yorug'-soya shartlaridan foydalanish kabilar asosiy kompozitsion materialni tashkil etadi.


A. A. D eyneka. Xolstning markaziy o'qi bo'ylab tasvirlarni to'g'ri joylashtirish, rasmning muvofiqligini taminlaydi. Ammo katta xolstdagi kichik tasvir ko'rinmay qoladi, tasvir yuzasiga zo'rg'a sig'dirilgan, xolstning chetiga surilgan yoki yuzadan qisman chiqib ketgan tasvir, kompozitsiyaning muvofiqligini buzadi. O'quv rasmlarida tasvirni joylashtirishning oddiy qoidalari anashular. Ammo, tasvirning keng qamrovli ekanligini ko'rsatish maqsadida biz katta zal maydonida kichkina tasvirni ishlashimiz mumkin. Oldingi plandagi tasvirni qisman xolst chetiga chiqarish mumkin, arxitektura foni ikkinchi planga o'tadi, xususan plakatda. Harakat qilayotgan odamni xolst chetiga joylashtirish bilan dinamika ko'rsatib beriladi.

E. A. Kibrik. Ijodiy idrok qobiliyati-rassom iqtidori ko'rinishidir. Tahlil qobiliyati, ya'ni o'z ijodini mantiqiy ko'ra olishni tarbiyalash va o'stirish zarur. Mazmundan shaklga bora turib, hissiyot bilan bajarilgan ishni idrok etib rassom personajlarni o'zaro va muhit bilan aloqasini tiklabgina qolmasdan, balki bajarish motivi va hatto vositasini ham belgilab beradi. Faqat hissiyot bilan yaratilgan asarni tahlil qilibgina rassom ijodining tugallikka olib boruvchi yakuniy bosqichiga yo'l va

vositalarini topa oladi. Ammo, tugallikka olib boruvchi yo'lni yoritadigan, muallifni bir nafasda hissiyot va aniqlik bilan yakuniga yetkazuvchi kayfiyat ko'tarinkiligi, tahliligina samarali bo'ladi.

Ijod jarayoni taxminan hissiyot - tahlil - hissiyot ko'rinishida bo'ladi. Negaki san'at hissiyot bilan boshlanadi va yakunlanadi, u bilan idrok etiladi. Tahlil orqali tushuntirib beriladi.

ILLYUSTRATSIYALAR




M.Maxmudov. Kompozitsiya uchun eskiz.



M.Maxmudov. "Kompozitsiya".



M.Maxmudov. "Barchasi shu ondan boshlangan edi", eskiz.



M. Mahmudov. "Niqob".





M. Maxmudov. "Laylo porteti".



M. Maxmudov. "Kompozitsiya".
120



M.Maxmudov. "Buyuk ipak yo'li".



M.Maxmudov. "Buyuk ipak yo'li".



M. Maxmudov. "Mirzo Ulug'bek".



M. Maxmudov. "Al- Xorazmiy".



M.Maxmudov. "Shonli tarix siymolari", eskiz.



M.Maxmudov. "Temuriylar davri", eskiz.

GLOSSARY

O'zbekcha	inglizcha	Izoh
Akvarel	Watercolors	– tayyorlashda suvda parchalanish hususiyatiga ega modda, masalan gummiarabik moddasidan foydalanilgan bo'yoq turi. Odatda akvarel suv bilan qorilganda suv kabi tiniq holatga keladi va mo'yqalamda uzun dog'lar yordamida ishlanadi.
Oq bo'yoq (Belila)	White	– oq mineral bo'yoq. Odatda tarkibida kumush, temir, mis, titan kabi moddalar mavjud bo'ladi. Birinchi oq mineral bo'yoq – yog'li rassomlik san'ati uchun mo'ljallangan – qo'rg'oshin belilasi. U mustahkam, yaxshi quriydi va havo ta'siriga chidamli hossalarga ega. Qo'rg'oshin belilasining kamchiliklari ham bor: u zaharli, vaqti bilan vodorod sulfide ta'siridan rangi to'q va tiniqroq holatga keladi, yog'da sarg'ayadi.
Qog'oz	Paper	– tasviriy san'atda qog'oz ko'proq akvarel bilan ishlashda qo'llaniladi, bu yerda ortiqcha takrorlanishlardan qochib, faqat bir qancha mulohazalar bilan kifoyalanish mumkin.
Vatman	Whatman	– (angl whatman) – qalin qattiq qog'oz. Juda sifatli, yuzasi ga'dir – budur, mustahkam va yaxshi moylangan qog'oz. Qog'oz nomi ingliz qog'oz korxonasi egasi J.Vatman
Grizayl	Grisaille	– (fran. Grisaille gris so'zidan olingan – kulrang). Bir rangli tasviriy san'at, bir rangli yozuv (monoxromiya), bitta rang yordamida ishlanadi, odatda kulrang yoki jigarranglardan foydalaniladi. Grizayl uslubi uskuna tasvirida, shuningdek interyerlarda ham keng qo'llaniladi. Grizayl klassitsizm san'atida relyef soya va nur tasviri yordamida yoritiladi.
Shu'la (blik)	Glare	– (nemis. – nigoh) soya va yorug'lik elementi. Buyumdagi eng yorug' nur tushgan, asosan jilolanib va yaltirab turgan qismi. Odatda bu

		dog‘ yorqinligiga ko‘rabuyumning umumiy ko‘rinishidan yaqqol farqlanib turadi.
Mo‘yqalam	Brush	– dastgakka maxkamlangan bir xil dag‘al junlar to‘pi, tekislikka bo‘yoq, yelim , lak surtish uchun qo‘llaniladi. Yungli hayvonlar yungidan (olmaxon, suvsar) va hayvonlar junidan tayyorlanadi. Foydalanishda sintetik mo‘yqalamlar juda qulay.
Cheklangan ranglar	limited flowerses	–rangtasvir ishlashni o‘rganishning boshlang‘ich bosqichlarida qo‘shimcha ranglarni tayyorlashni o‘rganish uchun mavjud barcha ranglar naboridan foydalanilmay, kam sonli bo‘yoq ranglaridan foydalaniladigan ikki yoki uch xil rang.
Torshon qog‘oz	Paper torshon	–torshon atamasi (fr. juda g‘adir–budur yuza) – yuzaning yirik va mayda jilvirliligi xususiyatini anglatadi. Zichligi yuqori, yorqin oq rangda, kislotasiz, uzoq muddat saqlanish Rangtasvirga o‘ziga xos jozibalorlik yuzasi jilvirli akvarel, guash, tempera va akril bo‘yoqlarida rangtasvir ishlash uchun qo‘llaniladigan maxsus qog‘oz turi.
Kompozitsiya	Song	(lot.composition – tuzish) – badiiy asarni uning mazmuni va hususiyatiga ko‘ra tuzish. Kompozitsiya asarga o‘ziga hoslik va butunlik bahsh etuvchi badiiy shaklning muhim elementi hisoblanadi.
Geometrik jismlar	geometric bodies	– rangtasvirni o‘rganishning boshlang‘ich bosqichlarida natyurmort qo‘yilmalari uchun o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan to‘g‘ri shaklli (kub, shar, prizma, piramida, konus) gipsdan yasalgan jismlar to‘plami. O‘quv jihozi.
Konstruktiv tuzilish	design	– tasviriy san'atda shaklning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun barcha qismlari o‘rtasidagi munosabat, o‘zaro nisbatlarni qurish.

Perspektiva	Perspective	– (fran. perspective, lot. perspicio – aniq ko‘raman), tekislikdagi katta tanalar tasviri, ularning o‘z joy tuzilishi va joylashgan o‘rni, shuningdek kuzatuvchidan uzoqligi yetkazib beriladi.
Obraz	Image	– san’atda butun borliq hodisalarini tasvirlash shakli, butun borliqni badiiy tasvirlash shakli. Tasviriy san’atda obraz fikrning aniq, yaqqol tasviri.
Buyum tekisligi	Plane subject	–tasvir chizilayotgan sath, mato, polotno, qog‘oz yuzasi
Natyurmort	French inanimate nature	–tasvir chizilayotgan sath, mato, polotno, qog‘oz yuzasi frantsuzcha–jonsiz tabiat.
Rangtasvir	converted using different paints picture books	–tasvir chizilayotgan sath, mato, polotno, qog‘oz yuzasi turli hil bo‘yoqlar yordamida ishlanadigan surat, asarlar.
Yarim soya	The penumbra	– yorug‘lik va soya elementi; yorug‘lik va chuqur soya orasidagi joyni egallovchi, predmet ustidagi yorug‘lik va soya siyqallashishi.
Yarim	Halftone	– predmetning yoritilgan bo‘lagining kam rangli ikkita yonma–yon ranglari orasidan o‘tuvchi rang. San’at asarlarida: badiiy asarni ifodalash vositasi.
Nisbat	Ratio	– bo‘laklar o‘lchami, bo‘laklarning bir biriga va bir butunning o‘lchamlariga mosligi. Tasviriy san’atda nisbatning ko‘plab turlari mavjud. Rassom nisbatning barcha turlari bilan ishlaydi. Ular nafaqat shakl va predmetlarning tuzilishini, balki asarning kompozitsion tuzilishini ham belgilaydi.
Kolorit	Color	– (ital.colorito, lot.color–bo‘yoq, rang) rasmdagi bo‘yoqlar mutanosibli, ularning o‘zaro aloqasi, rang va uyg‘unligiga ko‘ra ranglarning mosligi. Koloritning tashqi tasviri – asarda ranglarning yorqinligi va uyg‘unligi.

Kontrast	Contrast	(fran. – keskin farq, qarama–qarshilik) – tasviriy san’atda keng tarqalgan badiiy uslub, qarama–qarshi sifatlarni taqqoslash va ularni kuchaytirishga qaratilgan.
Munosabat, nisbat	Attitude, proportion	– asar yaratishda foydalanilgan natura elementlarining o‘zaro bog‘liqligi. Masalan: rangtasvirda tus va rang munosabati, har xil yorqinlik nisbati. Chizmatasvirda o‘cham va shakl nisbatlari. San’atda taqqoslash usuli bilan aniqlanadi. Tus va rang munosabatalari kontrast, o‘tkir va engil nyuansli bo‘lishi mumkin.
Qoralama	Sketch	fransuzcha – exguisse – nabrosok (qoralama) – ijodiy g‘oyaning asar uchun bajarilgan tez bajarilgan chizgilari.
Eskiz	Outline	–tasvir chizilayotgan satx, mato, polotno, qog‘oz yuzasi eskiz har xil usul (texnika)da bajarilishi mumkin. Eskiz bir necha variantd a bajariladi va eng yaxshi deb topilgani asar uchun asos qilinib olinadi.
Chiziq	Sidebar	–tasvir chizilayotgan sath, mato, polotno, qog‘oz yuzasi kontur, abris
Shakl	Form	(lotincha – forma – tashqi k o‘rinish) 1) tashqi ko‘rinish, qiyofa; 2) tasviriy san ’atda forma deganda shaklning tashqi xususiyatiga aytiladi. Tasviriy san ’atda badiiy forma – bu kompozitsiya tuzilishi, vositalar birligi, hamjihatligi, usuli, badiiy ashyoda amalga oshirilganligi va badiiy g‘oya mujassamligidir.
Dastlabki rang (podmalevka)	First colour	–tasvir chizilayotgan sath, mato, polotno, qog‘oz yuzasi ko‘p qatlamli moybo ‘yoqda ishlangan kartinaning eng avvalgi boshlang‘ich bosqichi. Podmalevka rangli yoki monoxramli (rangsiz, kulrang), bir tusli, yupqa rangli qatlamda yoki nisbatan quyuq bo‘yoqda bajarilishi mumkin.

Faktura	Invoice, texture	(lotincha – factura– ishlov berish) 1) ashyo (material) ning xarakter xususiyati, naturada buyumning sirti va uning san 'at asaridagi 2) materialning ishlov berilganlik xususiyati, materialning xarakterli sifati (masalan, nafis tasviriy asar fakturasi – bu mezon (iz), b o'yoq qatlamining xususiyati. U silliq, g 'adir–budir, relefli va shu kabi k o 'rinishda b o 'lishi mumkin, haykaltaroshlikda – ishlov berilgan tosh, yog'och va boshqalaming yuzasidir)
Alla prima	Alla prima	(lot– birinchi urinishdan) tasviriy san'atdagi rassomlik usuli, mohiyati shundaki, ishlanadigan tasvir hech bir yordamchi chizmalarsiz ishlanadi.
Soya–yorug'	Chiaroscuro	– yorug' va to'q ranglar aralashmasi, buyumning hajmi va formasini chiqarishda katta ahamiyatga ega. Uning asosini: Soya va yorug', yarim yorug', reflex, shu'li tashkil etadi. Soya va yorug' kompozitsion tuzilish va asar mazmunini ta'riflash vositalaridan biri hisoblanadi.
Axromatik ranglar	Achromatic colors	–axromatik ranglar – qar. Xromaticheskie sveta
Xromatik ranglar	Chromatic colors	– bir–biridan asosiy sifati, va ko'rinishi bilan ajralib turadigan ranglar. Xromatik ranglarga – quyosh nurlari tushganda hosil bo'ladigan, quyosh nurlari spektoridagi ranglar. Ranglar spektori shartli ravishda “ranglar doirasi” da joylashadi. Bu doirada ranglar sovuqda issiqqa qarab ketma – ketlikda joylashadi.
Rang	Color	– rang tasvirning eng asosiy ish anjomlaridan biri hisoblanadi. Atrof muhitning rang – barang holda aks ettirilishi, naturaning muhim jihatlari ko'rsatilishida ranglar jilosi asosiy o'rinni egallaydi.

Rang kontrasti	Color contrast	– bir–biridan faqat tus jihatidan ajralib turadigan ranglarning birga qo‘llanilishi. Ranglarning sovuq issiqligi kartina elementlarining ajralib turishida ta’sir ko‘rsatadi.
Palitra	Palette	– (fran.palette) 1. Bo‘yoqlarni aralashtirish va joylashtirish uchun ishlatiladigan katta bo‘lmagan yupqa yog‘och taxtacha; 2. Rassom yoki rangtasvirasarlari uchun ushbu rasmga xos bo‘lgan ranglar mutanosibligi, ranglar xususiyati, majmuasi, jilosi.
Fazoviy planlar, perspektiva	Intensity cuing, airborne prospect	1) naturalarga qaraganimizda fazoga joylashgan buyumlar shartli ravishda maydonlarga bolinadi 2) kartina bo‘sh lig‘idagi tasvirning har xil darajadagi uzoqlashuvi. Odatda bir necha planlar farqlanadi: birinchi, ikkinchi, uchinchi yoki oldingi, o‘rta, uzoq planlari. Ularning soni har xil bo‘lishi tasvirlanayotgan obyektga, ijodiy g‘oyaga bog‘liq;
Tasvir	Item image	– belgilangan obyektни tasvirlovchi buyum, obraz, rasm. Tasviriy san’atda yaratilayotgan asarlar (rasmda, kompozitsiyada va b.) haqiqiy dunyoning subyektiv tasviri hisoblanadi.
Tasviriy san’at	Art	– badiiy ijodning bir turi, badiiy obrazlarni tekislik va makonda namoyon etadi. Bu tushunchalar tasviriy san’at, grafika va me’morchilik, shuningdek arxitekturaning har xil turlarini birlashtiradi.
Obraz	Image	– san’atda butun borliqdagi hodisalar, voqeliklarni badiiy tasvirlash shakli. Tasviriy san’atda obraz - fikrning aniq, yaqqol tasviri.
Karton	Cardboard	–fran.carton, ital.cartone, carta – qog‘oz. 1. Qalin, qattiq va juda pishiq qog‘oz, oddiy qog‘ozdan qalin. Qog‘ozga tushirilgan rasm, eskiz, keyin u o‘zakka tushiriladi (mato, devor, yog‘och yoki metal tekislik).

Yorug‘lik	Light	– tasviriy san’atda soya yorug‘ elementi. Naturada bo‘lgani kabi, tasvirda ham bu atama eng yorug‘ qismlarini ko‘rsatib berishda qo‘llaniladi.
Muvozanat		–o‘quv natyurmorti yoki kompozitsiya, tasvirining qismlari, ranglar, o‘lcham, shaklning o‘zaro mos kelishi, sath og‘irligi mutanosibliigi.
Ritm	Rhythm	–asar kompozitsiyasi tuzilishi xususiyatlaridan biri, kompozitsiya qismining (buyum, shakl, naqsh bo‘laklari, rang va h.k...) bir tekisda navbat bilan qaytarilishi.
Modelirovka	Modeling	– (ital.–davolamoq) – badiiy amaliyotda: u yoki bu yorug‘likda relyef, tasvirlanayotgan predmet shaklini yetkazib berish. Rasmda modelirovka rang (nur va soya) yordamida amalga oshiriladi, o‘z navbatida shakllarning muntazam o‘zgarishi ham hisobga olinadi. Tasviriy san’atda shakl ranglar bilan shakllantiriladi, chunku bu yerda ranglarning barcha taraflari o‘zaro bog‘langan. Haykaltaroshlikda modelirovkada yasash jarayoni va uch o‘lchamli shakllarni ishlash tushuniladi.
Bo‘yoq	Paint	– rang bo‘yash vositalari tarkibining umumiy nomi, maishiy sohada foydalanishga mo‘ljallangan, predmetlarga surtilganda yoki bo‘ktirilganda u yoki bu rangni beradi. Kimyoviy tarkibiga ko‘ra pigmentlar va ulardan tayyorlangan bo‘yoqlar mineral (noorganik tuzlar yoki metal oksidlari) va organik (o‘simlik va hayvonlarning birlashishi).
Rang surtmasi	Pap	– mo‘yqalam tortib bo‘yoq berish – asosga (mato, karton va boshqalar) tushirilgan bo‘yoqli mo‘yqalam izi. Mazok bilan ishlash texnikasi turli va u muallifning shaxsiy harakati, oldiga qo‘ygan vazifalari, u ishlayotgan material hususiyatlariga bog‘liq.

Xomaki reja	Sketch	– rassom tomonidan tez bajarilgan, katta bo‘lmagan o‘lchamdagi rassomlik, grafika va haykaltaroshlik san’ati asari.
kompozitsiya tekisligi		
Siluet	Silhouette	–XVII asr frantsuz arbobi nomidan kelib chiqqan. Kishi, hayvon, qush, narsalarning soyaga o‘xshatib bir rangda ishlangan tasviri. Tasvir sidirg‘a rangdagi qog‘ozni kesib ishlab, boshqa rangdagi qog‘oz yoki materialga yopishtirilishi ham mumkin. Grafika texnikasining bu turi qadimdan Xitoyda, Yaponiya va boshqa sharq mamlakatlarida, asrdan boshlab esa Evropada rivojlangan. Keng ma'noda narsa, bino turi shakllarining xarakterli ko‘rinishidir.
Sovuq ranglar	Cool Flowerses	–qor, muz va sovuqlik taftini eslatuvchi ko‘k, havorang va siyohrang tusli ranglar ko‘lami
Iliq ranglar	Warm flowerses	–quyosh, olov, issiqlik taftini eslatuvchi sariq, qizil va zarg‘aldoq tusli ranglar ko‘lami
Yuvish	Blur	– muntazam suvdan foydalangan holda mo‘yqalam bilan ishlash texnikasi, qiyin va tasviriy san’at effektlariga boy tush, akvarel va boshqalarda ishlangan rasmlarga ega bo‘lish uchun qo‘llaniladi.
Refleks	Reflex	– grafikada kamdam–kam, tasviriy san’atda: o‘rab turgan obyektlardan biror–bir predmetga rang va nurning tushgan aksi. Bir butun qismlarining qiyin o‘zaro aloqasi.
Ufq Chizig‘I	Line of the horizon	–nigoh qarashi va uning izidan taasurotimiz paydo bo‘ladigan, ko‘pincha rassomning tasvirlanayotgan ko‘rinishga qarash uchun tanlagan nuqtasi, ya'ni kartina tashqarisidagi qarash nuqtasiga bog‘liq bo‘ladi. Tomashabinning ko‘z qarashi darajasida yotuvchi chiziq. – bu gorizont chizig‘i deyiladi.

Uslub	Style	– muallifning ijod maktabida rassomlikning aniq bir yo‘nalishiga xarakterli obrazli tizimi qat’iy birligi va tasvirlash usuli. Atama turli ma’nalarda qo‘llaniladi, ko‘pinch keng ma’nodan qo‘llaniladi.
Shakl	Form	– tashqi ko‘rinish. Tasviriy san’atda forma hajmi, konstruksiyani hamda mutanosiblikni anglatadi.
Gamma	Gamma	–ranglarjilosi, ko‘proq amaliy san’atda qo‘llaniladigan birnechta ranglarning o‘zaro uyg‘unligi. Issiq, sovuq, yorqin va boshqa xillarga ajratiladi.
Grafika	Graphics	– (grek. graphike, grapho, yozaman, chizaman) 1) Tasviriy san’at turi bo‘lib, asosiy tasviriy vositalar: qog‘ozga tushirilgan chiziqlar, shtrixlar, dog‘ va nuqtalar bilan rasm chiziladi. Grafika ikki turga bo‘linadi: tasviriy (rasm), muallif tomonidan chizilgan rasm va nashr qilingan: o‘yma naqsh, toshbosma. 2) Asosi shunday rasmdan iborat bo‘lgan nashr qilingan badiiy tasvirlar (o‘yma naqsh, toshbosma). Ranglar grafikada yordamchi vazifasini bajaradi.
O‘zgarish	Changing	– bo‘yoq qatlamidagi o‘zgarish, shu sababli rasm yuzasining bir qismiga jilo berilmaydi, bo‘yoqlar o‘z yorqinligi va jarangini yo‘qotadi.
Molbert	Easel	– (nem.malbrecht – rassomlik san’ati uchun tokcha) – rassomlik san’ati uchun taxta yoki metal uskuna, turli balandlikda va turli nishablikda mato, karton yoki taxta bilan romlar qotiriladi.
Motiv	Motive	– 1) rassom tomonidan tasvir uchun tanlangan natura obyekti, kamdan–kam manzara. Motiv – bog‘liqlik, rasm yoki etyudning tasvir yoki rang holatini aniqlaydi. 2) bezak san’atida – ko‘p maroat takrorlanishi mumkin bo‘lgan ornament kompozitsiyasining asosiy elementi.

Muvozanat	Balance	–o‘quv natyurmorti yoki kompozitsiya, tasvirining qismlari, ranglar, o‘lcham, shaklning o‘zaro mos kelishi, sath og‘irligi mutanosibli.
Ijodiy eksperiment	Creative experiment	– (lot. – eksperimentum – tajriba, qo‘llab ko‘rish) ijodiy jarayonda kartina yaratish maqsadida izlanish, tadqiqot qilish, yangi usullarni qo‘llash, sinab ko‘rish.
Faktura	Texture	– (lot. Facture – qayta ko‘rib chiqish, qurish) – badiiy asarni his qilish hossalri, butun borliqning haqqoniy tasviri vositasi sifatida qo‘llanilgan.
Format	Format	– tasvir ishlanadigan yassi tekislik. Bo‘yi va eni hisoblab chiqilgan, tasvir ishlashga moslangan bo‘ladi. Format tanlash bajariladigan ishning umumiy ko‘rinishi va kayfiyatdan kelib chiqiladi. Rasm formati doim kompozitsiyaga mos kelishi kerak.
Realizm	Realism	– san’atda: butun borliqning obyektiv tasviri. Ko‘pgina san’at yo‘nalishi va oqimlariga hos bo‘lgan haqiqatga moyillikning namoyon bo‘lishi. Ular aniq yoki noaniq namoyon bo‘ladi, yoki umuman mavjud bo‘lmaydi.
Manzara	Landscape	– tasviriy san’at janri, uning asosini yovvoyi yoki odam tasvirlagan tabiat tasviri hisoblanadi. Joylarning, arxitektura inshootlarining, dengiz va boshqalarning haqiqiy yoki hayoliy ko‘rinishi. Boshqa janrlarning portret foni sifatida ham qo‘llanishi mumkin.
Fon	Background	- (frantsuzcha - fond - tag, chuqurlik kismi) - naturada va tasviriy san'atda - shakllar ortida joylashgan muhit, tasvirda orqa plan. Tasviriy san'atda fon tasvirli yoki tasvirsiz bulishi mumkin.
Qarash nuqtasi	Watchpoint	–rassom tomonidan tanlangan kartinaga tomashabinning nigohi yo‘naltirilayotgan nuqta.

Guash	Gouache	– (fran. Guache, ital. guazzo suv bo‘yog‘i). 1. Tiniq bo‘lmagan bo‘yoq, suvda yelim (gummiarabik yoki dekstrin) va belil moddasini aralashmasi. Akvarelning bir turi sifatida paydo bo‘lgan. Guashli bo‘yoq rasm yuzasida qalin qatlam hosil qiladi. Belil bo‘lganligi sababli, guashda chizilgan rasm qurish jarayonida ocharadi va baxmalga o‘xshash mayin rangga aylanadi. Guash – qoplovchi, korpus bo‘yog‘I, ya’ni to‘q ranglarni och ranglar bilan qoplash hususiyatiga ega va aksincha.
Eskiz	Sketch	– (frans. esquisse)– rassom ishlamoqchi bo‘lgan asari yoki tasvirning oldindan qilingan taxminiy ishi.
Ranglavha	Etude	– (frans. Etude – o‘rganib chiqish) naturani o‘rganib chiqish uchun ishlanadigan tasvir. Odatda katta san’at asari yoki haykal yasash uchun qo‘llaniladi.
Animalizm	Animal	– (lot–jonivor, hayvonot) tasviriy san’atda hayvonlar, jonivorlarni ishlash.
Kuchli yorug‘	Luminosity	– tasviriy san’atda rangning yorug‘lik bilan yanada ko‘proq boyitilishi; oldidagi boshqa buyumlarning rangidan ajratib olishi; grafikada esa bir–biriga qo‘shni turgan predmet tonlaring bir–biridan ajralib chiqishi.
Qiyofa	Silhouette quite flat.	– naturada qomatning yoki predmetning umumiy ko‘rinishi. San’at asarlarida: qomat deb ortiqcha detallar, ortiqcha hajmsiz turgan predmet yoki naturaga aytiladi.
Simmetriya	Symmetry	– predmet yoki kompozitsiya asarining shunday qurilishiki, bir xil turdagi qismlarning bir–biriga nisbatan parallel joylashishi, unda ixtiyoriy obyektning markaziy o‘qidan bir xil uzoqlikdagi masofada joylashgan holati.
Dastgohli rang tasvir –	Easel painting	– nomi tasvir yaratiladigan dastgohdan kelib chiqqan. Dastgohli rang tasvir doimo o‘z mazmuniga ega bo‘ladi. Ularning badiiy hususiyatlari tashqi muhitga bog‘liq emas.

Syujet	Story	– tasvirdagi aniq bir mavzu yoki voqeaning ko‘rsatib berilishi. Bitta mavzu bir necha marotaba qaytarilishi mumkin. Syujet tasviriy san’at janrlaridan maishiy, tarixiy va botal janrlarida ko‘p uchraydi.
Mavzu	Topic	– (grek) – rassom rasmda o‘z fikrini ifodalashi uchun zarur bo‘lgan mavjud voqeliklar doirasi.
Asosiy rang	Main flowerses	–rangtasvirda boshqa ranglarni aralashtirib tayyorlab bo‘lmaydigan, aksincha ular yordamida boshqa barcha ranglarni tayyorlash mumkin bo‘lgan ranglar.
Natura	Nature	–rassom uzoq vaqt kuzatib ishlash jarayonida bevosita tasvirlash uchun tanlagan voqelikdagi obyektlar.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TEST

№	Test savoli	Tog'ri javob	Muqobil javob	Muqobil javob
1	Rang koloriti deganda nimani tushunasiz?	*Rang tusi	Ranglar mutanosibligi	Jilo berish
2	Kontrast ranglar deb nimaga aytiladi?	*Bir-biridan keskin farq qiluvchi rang	Uchta bir xil rang	Ikkita bir xil rang
3	«Do'stlik» «Muxabbat» «Kuev» «Chayxonachi» asorlarini yaratgan rassom?	*Usta Mumin	Tatevosyan	Benkov
4	Uch qismdan iborat rangtasvir asari?	*Triptix	Kompazitsiya	Diptix
5	Badiy asarlarda rang birikmasining umumiy tusi	*Ton	Refleks	Blik
6	Uyg'anish davrining rang tasvir qiroli kim?	*Titsian Vechellio	Dyurer	Rembrandt
7	«Qayroqqum GESIda tong» asarining avtori?	*Tansiqbaev	Karaxov	Timurov
8	Tasvirlangan buyum xayotiy vaqea lavxa xarakat....	*Syujet	Eskiz	Nabroska
9	Buyuk rus tariyxii janri rassomi?	*Surikov	Vasnetsov	Shishkin
10	Muz qor suv xavo rang zangori kukish yashil tuq binavsha ranglar?	*Sovuq rang	Axromatik rang	Xromatik rang
11	Qorokolpoqston tasviriy sanaatiga asos solgan ilk rassomlarni ko'rsating?	*Sovetskiy Saipov Berdimuratov	Izentaev Jaqsibaev Lepesov	Sarekeev Antonov esentaeva
12	Predmetlarning munosabatligi tengligi?	*simmetriya	komponovka	asimmetriya
13	Buyuk rus manzara janri rassomi?	*Shishkin	Surikov	Repin
14	Rasm chizishda ishlatiladigan yumshoq qizg'ish jigari rang qalam?	*Sangina	Sous	Ugol
15	Mashhur xaykoltorosh R. Toqtash obrazi V. Savitskiy va Saida portretleri avtori?	*Ruziboev	Jalolov	Umarbekov
16	Yaratilgan asar komponentlarining oxangdor tekis yoki dinamik qaytarilishi?	*Ritm	Garmoniya	Kolorit
17	Zarar ko'rgan badiy asarning umrini uzaytirish va asl xoliga qaytarish?	*Restavratsiya	Reproduksiya	Gruntovka
18	Xaqiqiy badiy asarning poligrafiya vositalari yordamida qayta xosil qilingan kurinishi?	*Reproduksiya	Kopirovka	Grafika
19	«Volgadagi burlaklar asarining avtori?	*Repin	Surikov	Vrubel
20	Gollandianing eng iyrik rassomi?	*Rembrandt	Sharden	Karavadjo
21	Narsaning shaxsiy va tushuvchi soyasidagi aks shula?	*Refleks	Soya	Blik
22	Gorizont shizig'i deganimiz nima?	*Rassomning kozining sathi yoki ko'z balantligidan o'tkazilgan shartli to'g'ri chiziq	Osmon bilan erning kesilishi shizig'i	Rasimdagi ko'ndalang shiziq
23	Etyud deganimiz nima?	*Rangtasvirda kichik lavxa ishlash	Dastgoh nomi	Qalamtasvir usullaridan biri
24	Molbert so'zi nima?	*Rangtasvirda ishlash uchun	Mozayka	Fon uchun ishlatiladigan plazma

		moslama		matolar
25	Lessirovka so'zi nimani anglatadi?	*Rangtasvir usullaridan biri	Qalamtasvir usullaridan biri	Mazok
26	«Afina maktabi» asarining avtorini?	*Rafael Santi	Leonardo Do Vinchi	Mikelandjelo
27	Blik deganimiz nima?	*Predmetning en yaltiraq eri	Predmetning bir bo'lagi	Predmetning en yoqargi nuktasi
28	Inson rasmini tasvirlash qanday janr?	*Portret	Peyzaj	Natyurmort
29	Rassom Abdulhaq Abdullaev qaysi janrda ijod qilgan?	*Portret	Peyzaj	Animalistik
30	Tabiyatni tasvirlash qanaqa janr	*Peyzaj	Portret	Animalistik
31	«Trevoga» asarining avtorini?	*Petrov-Vodkin	Grekov	Deyneka
32	Portret janrida nima tasvirlanadi?	*Odomning qiyafasini	Manzara	Qush va xayvon
33	Plener so'zi nimani anglatadi?	*Ochiq kenglik	Interer	Eksterer
34	Mashhur rassom Tansiqboyev qaerda vafot etgan?	*Nukus	Toshkent	Termez
35	O'ziga xos chiziqlar yordamida tez bajariladigan tasvir	*Nabroska	Etyud	Plener
36	«Doyrachi qiz» asari avtorini?	*N.Kashina	P.Benkov	M.Nabiev
37	Rangli shisha toshlar yag'och charm qiyimlaridan bir-biriga zich qilib yapishtirish yo'li bilan xosil qilingan asar qanday ataladi?	*Mozaika	Ikona	Kollaj
38	Uzbekiston xalq rassomi rangtasvir ustasi «Bola xonada» «Intizorlik» «Toshkent-tinchlik va dustlik shahri» triptixi avtorini?	*Mirzaev	Nabiev	Axmarov
39	Surtma mo'y qalamda keskin va uzib uzib ishlash usuli?	*Mazok	Lesirovka	etyud
40	«A.Temur» portretini yaratgan rassom?	*M.Nabiev	R.Shoriev	B.Jalolov
41	Mashhur Beruni portretini qaysi rassom yaratgan?	*M.Nabiev	U.Tansiqbaev	R.Choriev
42	«Xosil» asarini yaratgan rassom?	*M.Juraboev	T.Mirjalilov	R.Shoriev
43	O'zbekiston xalq rassomi «Nido», «Baxt qushi» «XXI-asr madonnasi» asarlarining avtorini?	*R. Choriev	S. Melnikov	M. Nabiev
44	«Pompeyning sungi kuni» asarining avtorini?	*Bryulov	Ivanov	Kiprenskiy
45	Rangtasvirda Grizayl so'zi nima?	*Bir rangda qora yoki ko'k rangda tasvirlash	Xar turli rangda tasvirlash	Tasvirda narsalarning tokrorlanishi
46	«Dugonalar» «Dutorchi qiz» asarlarining avtorini?	*P. Benkov	A. Abdullayev	Usta Mumin
47	Jang manzaralarini tasvirlovchi rassom?	*Batalist	Morinist	Peyzajist
48	«Notanish ayol» asarining avtorini?	*Kramskoy	Repin	Surikov
49	Chiziladigan buyum manzara va boshqalarni qog'oz yuzasiga mos qilib joylashtirish?	*Komponovka	Nabroska	Konstruksiya
50	«Oltin kuz» asarining avtorini?	*Karaxan	Saidov	Benkov
51	Italiyaning eng yirik rassomi?	*Karavadjjo	Rembrand	Sharden
52	Buyuk rus portret janri rassomi?	*Kamskoy	Polenov	Savrasov
53	Natyurmort janri bu	*Jonsiz tabiatning tasvirlanishi	Ranglarni joylashtirish	Tabiatning tasvirlanishi

54	«Isoning xalqqa ko'rinishi» asarining avtorini?	*Ivanov	Kiprenskiy	Repin
55	Matn yoki xikoya bilan bog'lik bo'lgan shu xikoyadagi lavhaning kurinishini uzida aks ettiradigan rasmlar?	*Illyustratsiya	Grafika	Nabroska
56	Z. Faxriddinovning «Zulmat va Ziyoy» asari qanday bo'yoqda ishlangan?	*Guash	Akvarel	Tempera
57	«Partizanning onasi» asarining avtorini?	*Gerasimov	Ioganson	Deyneka
58	Luvr muzeyi qaysi mamlakat xududida joylashgan?	*Fransiya	Rossiya	Germaniya
59	O'zbekiston xalq rassomi Ch.Axmarov portretini qaysi rassom yaratgan?	*F. Sulaymanov	R. Axmedov	M. Nabiev
60	Rembrandtning «Oq padarning qaytishi» asari qaysi muzeyda saqlanadi?	*Ermitaj	Luvr	Tretyakov galereyasi
61	«O'zbekiston sanotkorlar guruhi» asarining avtorini?	*Elizarov	Tansiqbaev	Abdullaev
62	Rafael Santini «Sikstin madonnasi» asari qaysi muzeyda saqlangan?	*Drezden	Ermitaj	Luvr
63	«Sevastopol mudofasi» asarining avtorini?	*Deyneka	Gerasimov	Serov
64	Buyuk «Djakonda» asari qaysi muzeyning faxri?	*Luvr	Ermitaj	Prabo
65	Uyg'onish davrining buyuk rassomlarini ko'rsating?	*Leonardo Dovinchi, Rafael	Repin Serov Surikov	Benkov, Axmatov, Tansiqbaev
66	Buyuk Mona Liza asorini qaysi rassom yaratgan?	*Leonardo Do vinshi	Rafael	Mekelanjelo
67	«Ko'chma ko'rgizmalar birodarligi» birlashmasining yo'l boshchisi va tashkilotchilari kimlar?	*Kramskoy Perov Myasoedov	Savrasov Polenov Vasilev	Levitan Vasilev Repin
68	Ikki qismdan iborat rangtasvir asari?	*Diptix	Triptix	Politix
69	XX asr boshlarida ijod qilgan O'zbekiston rassomlari qatorini belgilang?	*O'.Tansiqboev, Z.Inog'omov, A.Abdullaev, M.Nabiev	A.Mirzaev, B.Maxkamov, Ya.Salpinkidi, N.Usmonov	D.Boqiev, I.Jabborov, O.Qozoqov, A.Mo'minov
70	Marina janriga oid asar nomi berilgan qatorni belgilang?	*To'qqizinchi val	Fontan bo'yida	Pompeyning so'nggi kuni

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R. A. Xudayberganov “Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari”, O‘quv qo‘llanma. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi. T- 2019.
2. Н. Ойдинов. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. Т-1997.
3. А. Турдалиев. Композиция. Ўқув қўлланма. Т-2003.
4. Е.Х.Хайтов. Композиция. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi. Т- 2019.
5. R. A. Xudayberganov. Mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi. Darslik. “Fan va texnologiya” Т-2015.
6. А. Эгамбердиев. Рахим Аҳмедов. Т-1994
7. А. Ҳақимов. Баҳодир Жалол. Альбом., 1999.
8. S. Abdirasilov, N.Tolipov, N. Oripova. Rangtasvir: Toshkent– “O‘zbekiston” –2006.
9. X. Sultanov “Rangtasvir” (Akvarel Rangtasvirda ishlash). O‘quv qo‘llanma. Т.–2019.
10. Ф. В. Ковалев. Золотое сечение в живописи. учебного пособия. Киев-1989.
11. S. Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Publis’hed in the United States by Watson–Guptill Publications, an imprint of the Crown Publis’hing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015.

Elektron ta’lim resurslari

1. <http://lib.cspi.uz/>
2. <http://.ziyonet.uz>
3. <http://natlib.uz/>
4. <https://t.me/armmrdi>
5. <https://art-blog.uz/>
6. <https://sanat.orexca.com/ru/about-journal/>
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Rahim_Axmedov
8. <https://www-artsacademy-ru>
9. <https://rahimakhmedov.uz/zhivopis-i-grafika>